

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK _____

XUSHBOQOVA XURSHIDA QO‘LDOSH QIZI

**O‘ZBEK VA TURK TILLARI LEKSIKASINING STRUKTUR-SEMANTIK
QIYOSI**

70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

N. Amonturdiyev

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Termiz – 2024

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 202__-yil __ oyidagi №__-T/M sonli buyrugi asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya mavzusining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ **f.f.f.d. (PhD) N. Amonturdiyev**

Kafedra mudiri: _____ **f.f.f.d. (PhD) N. Amonturdiyev**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ **D. Abduraximov**

**70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Xushboqova Xurshida Qo‘ldosh qizining “O‘zbek va turk tillari leksikasining
struktur-semantik qiyosi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: turkiy tillar oilasi, qadimgi turkiy til, o‘zbek tili, turk tili, struktur-semantik qiyos, leksika, fonetik sath, singarmonizm, morfologik sath, leksik sath, semantika, ifoda semalari, leksik parallellik.

Tadqiqot obyektlari: o‘zbek va turk tillari leksikologiyasining obyekti hisoblangan leksik qatlam.

Ishning maqsadi: tarixiy ildiziga ko‘ra bir umumturkiy til hisoblangan o‘zbek va turk tillari leksik qatlamining tarixiy taraqqiyot bosqichini, struktur-semantik tadrijini, ikki til leksikasining fonetik, morfologik hamda semantik jihatdan umumiy va xususiylik jihatlarini belgilash, til birliklarining o‘rganilayotgan tillar leksikasidagi o‘rnini aniqlash bilan birga ularni qiyosiy jihatdan tadqiq etish natijasida qardosh tillar leksikasining semantik taraqqiyotiga xos bo‘lgan asosiy qonuniyatlarni belgilashdan iborat.

Tadqiqot metodlari: tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, tasniflash, funksional-semantik, tarixiy-genetik, distributiv kabi tahlil usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- o‘rganilayotgan tillar leksikasining leksik qatlami to‘plandi va ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlari aniqlandi, har bir til leksikasining umumiy va xususiy jihatlari belgilandi;

- o‘zbek va turk tillari leksikasining fonetik sathdagi mushtarak hamda tafovutli xususiyatlari aniqlanib, bir qator misollar asosida yoritilib berildi;

- ikki qardosh til leksik qatlamining morfologik sathdagi bir-biriga o‘xshash umumiy va ayni damda bir-biridan farq qiluvchi xususiy jihatlari aniqlandi va ularning tamoyillari belgilandi;

- bir bobo tildan kelib chiqqan o‘zbek va turk tillari leksikasidagi ayrim so‘zlardagi tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan semantik o‘zgarishlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, qadimgi turkiy tilda bir ma‘noni ifodalashga xizmat qilgan leksemalarning hozirgi kunda o‘rganilayotgan tillarda ma‘no torayishi yoki ma‘no kengayishiga uchraganligi o‘rganildi va har ikki tilda ular anglatgan semantik ma‘nolar izohlab berildi.

- morfologik nuqtayi nazardan so‘z turkumlari ichida eng yiriklaridan biri hisoblangan fe‘l so‘z turkumidagi ayrim fe‘llarning ifoda semalari ikki qardosh til misolida ochib berildi.

Amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi xulosa va tavsiyalardan oliy ta‘lim muassasalari “Qiyosiy tilshunoslik”, “Etnolingvistika”, “O‘zbek tili tarixi”, “Leksikografiya”, “Etimologiya”, “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” kabi darslik va qo‘llanmalar yaratishda, ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlari mazmunini boyitishda foydalanish mumkin.

Tadbiq etish darajasi: tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, o‘zbek tili tarixi, turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi, hozirgi o‘zbek adabiy tili, etimologiya va leksikografiya sohalarida nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Qo‘llanilish sohasi: maktabgacha ta‘lim, oliy ta‘lim va umumiy o‘rta ta‘lim maktablari.

Master's dissertation on the topic “Structural-semantic comparison of the lexicon of the Uzbek and Turkish languages”

ANNOTATION

Key words: Turkic language family, ancient Turkic language, Uzbek language, Turkish language, structural-semantic comparison, lexicon, phonetic level, synharmonism, morphological level, lexical level, semantics, expression schemes, lexical parallelism.

Research objects: the lexical layer, which is the object of the lexicology of the Uzbek and Turkish languages.

The purpose of the work: to determine the stage of historical development of the lexical layer of the Uzbek and Turkish languages, which are considered to be one universal Turkic language according to their historical roots, the structural-semantic process, the phonetic, morphological and semantic aspects of the lexicon of the two languages, the general and specific aspects of the language units, the studied languages along with determining their place in the lexicon, as a result of their comparative research, it is necessary to determine the main laws characteristic of the semantic development of the lexicon of sister languages.

Research methods: comparative-historical, descriptive, classification, functional-semantic, historical-genetic, distributive methods of analysis were used in the research.

The results obtained and their novelty:

- the lexical layer of the lexicon of the studied languages was collected and the stages of their historical development were determined, the general and specific aspects of each lexicon were determined;

- common and different features of the lexicon of the Uzbek and Turkish languages at the phonetic level were identified and explained based on a number of examples;

- common and at the same time different specific aspects of the lexical layers of the two sister languages at the morphological level were identified and their principles were determined;

- semantic changes in some words in the lexicon of the Uzbek and Turkish languages, originating from the same ancestral language, and their specific characteristics, which are being studied today it was studied whether the meaning narrowed or the meaning expanded in the languages, and the semantic meanings they meant in both languages were explained.

- from the morphological point of view, the expression patterns of some verbs in the verb word group, which is considered one of the largest among the word groups, were revealed on the example of two sister languages.

Practical significance: the practical significance of the research results from the conclusions and recommendations of the dissertation in higher educational institutions such as "Comparative linguistics", "Ethnolinguistics", "History of the Uzbek language", "Lexicography", "Etymology", "Comparative-historical grammar of Turkish languages" can be used to create textbooks and manuals, to enrich the content of lectures and seminars.

Application level: the practical significance of the research is that the results of the research can be used as a theoretical resource in the fields of linguistics, comparative linguistics, history of the Uzbek language, comparative-historical grammar of Turkic languages, modern Uzbek literary language, etymology and lexicography.

Field of application: pre-school education, higher education and general secondary schools.

MUNDARIJA

KIRISH.....

I BOB. TURKIY TILLAR LEKSIKASI TADQIQI

1.1. Jahon va o‘zbek tilshunosligida leksik qiyos: talqin va muammolar.....

1.2. Turkiy tillar leksikasining leksikografik manbalarda namoyon bo‘lishi.....

Bobga doir xulosalar

II BOB. O‘ZBEK VA TURK TILLARI LEKSIKASINING FONETIK, MORFOLOGIK O‘ZGARISHLARI

2.1. O‘zbek va turk tillari leksikasidagi fonetik farqlar.....

2.2. O‘zbek va turk tillari leksikasidagi morfologik farqlar xususida...

Bobga doir xulosalar

III BOB. O‘ZBEK VA TURK TILI LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK TARAQQIYOTI

3.1. O‘zbek va turk tillari leksikasidagi semantik o‘zgarishlar.....

3.2. O‘zbek va turk tillaridagi faol fe’llar semantikasi.....

Bobga doir xulosalar

UMUMIY XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

So‘nggi davrlarda O‘zbekistonda bo‘layotgan dunyo miqyosidagi o‘zgarish va rivojlanishlarning har bir jabhada, chunonchi, tilshunoslik sohasida ham o‘z ifodasini topayotganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida jahonning ilg‘or davlatlari bilan iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy munosabatlarining o‘rnatilishi hamda o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi chet tillarini chuqur o‘rganish, ayniqsa, ularni o‘zbek tiliga qiyoslagan holda tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Yurtimiz bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan mamlakatlar orasida Turkiyaning mavjudligi esa turk tiliga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirmoqda. Shu jihatdan bir til oilasiga tegishli bo‘lgan o‘zbek va turk tillarini solishtirib o‘rganish bugungi kun nuqtayi nazardan ham ijtimoiy, ham ilmiy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Ona tilimizga asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylik sifatida qarash, uni boyitish, sofligini saqlash, nufuzini oshirish va asrab-avaylash shu tilda so‘zlovchi barchamizning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yilning 13-mayida imzolagan “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonida hozirgi kundan-kunga globallashib borayotgan bir paytda o‘zbek tilining o‘ziga xos jihatlarini, tarixiy taraqqiyot bosqichi, bugungi kundagi holati va uning kelajagi bilan bog‘liq masalalarni chuqur o‘rganish va hamda tadqiq etish borasida bir qator muhim vazifalar belgilab o‘tilganligi ham bejizga emas. Farmonda ta’kidlanganidek, “O‘zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga kelishida qadimgi turkiy til katta hissa qo‘shganini esa alohida ta’kidlash tabiiydir”¹.

XXI asrda tilshunoslik fanida mushtarak jihatlarini va xususiy qonuniyatlarini struktur-tipologik hamda semantik-funksional tadqiq qilish

¹ “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони, 2016-йил 13-май. – Б. 1.

mezonlarining yagona bo‘lgan tizimini yaratish dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu esa o‘z navbatida turkiy tillarning leksik boyligi, grammatik shakllarning qo‘llanilishi, morfologik kategoriyalarning xususiyatlari va ularni nutqiy voqealanishini qiyosiy o‘rganishni taqozo etdi. Shu bois o‘zbek tilshunosligida turkiy tillarni solishtirib tadqiq etishga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qardosh davlatlar orasidagi aloqalar to‘g‘risidagi quyidagi fikrlari ham e‘tiborga molikdir: “Tili, dini va yuraklari bir-biriga chambarchas bog‘langan qardosh xalqlarimiz ovozi endilikda dunyo bo‘ylab yanada baland, yanada kuchliroq yangramoqda”.

Qiyosiy-tarixiy usul asosida solishtirilayotgan tillarning leksik birliklarini tadqiq etishga doir ilmiy ishlarning aksariyat qismida an‘anaviy tilshunoslikka oid bo‘lgan tahlil usullari orqali yondashilgan. Binobarin, o‘zbek va turk tillari leksikasi hamda grammatikasining qiyosiy tadqiqiga oid amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda ham ushbu usullarga tayanilgan. Shu jumladan, bir til oilasiga mansub bo‘lgan tillarni solishtirib o‘rganilgan tadqiqotlarda til birliklari asosan diaxron jihatdan tadqiq etilgan.

Binobarin, turkiy tillar oilasi ham bundan istisno emas. Misol uchun, mashhur rus tilshunos olimlari tomonidan chop etilgan uch jilddan iborat “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” nomli yirik monografik tadqiqot ham yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir². Shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham til birliklarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari bevosita o‘rganilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi esa XIV hamda XIX asrga mansub yodnomalarning lingvistik xususiyatlariga oiddir.

Turkiy tillar leksikasini bevosita qiyosiy jihatdan tadqiq etishga doir ilmiy izlanishlar sifatida I.Ismoilovning “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari” hamda I.Ismoilov, K.Meliyev, M.Saparovlarning hammualliflikda yaratgan “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqot” kabi ishlarini misol qilib

² Сравнительно-историческая грамматика тюрских языков, I-III часть. – М.Наука, 1985-1988.

keltirishimiz mumkin³. Ayniqsa, turkiy tillarning leksik qatlamini o‘rganishga doir salmoqli ishlardan biri sifatida Turkiyada chop etilgan ikki jilddan tashkil topgan “Turk lahjalari so‘zlari” kitobini ta’kidlab o‘tishimiz joiz⁴. Negaki mazkur kitobda turkiy tillar oilasiga kiruvchi sakkizta tilga (shuningdek, rus tiliga ham) xos bo‘lgan faol leksemalarning muqobil variantlari keltiriladi hamda ular haqiqa qisqacha grammatik ma’lumot berib o‘tiladi.

Turkiy tillar tizimidagi, xususan, o‘zbek va turk tillaridagi mushtarak qonuniyat hamda hodisalarni xususiy jihatlar asnosida aniqlash, har ikkala til uchun umumiy bog‘liqlikni keltirib chiqaruvchi qoidalar va qonuniyatlarni belgilash, shuningdek, solishtirilayotgan tillarning o‘zaro bir-birini inkor etuvchi farqliliklarini ochib berish faqatgina qiyosiy-tipologik izlanishlar samarasi o‘laroq amalga oshirilishi mumkin. Mazkur tadqiqotlar esa, eng avvalo, til tizimining ma’lum bir sathlarida olib borilib, so‘ng esa uzviy bog‘liqlikdagi qonuniyatlarning umumiy tavsifi yaratilishini taqozo etadi. Bunday hodisalardan biri esa qiyoslanayotgan tillarning leksikasidir. Ana shu maqsadda o‘zbek va turk tillari leksikasining qiyosiy-lisoniy nuqtayi nazardan struktur-semantik xususiyatlari bilan birgalikda ma’noviy-uslubiy mushtarakligi hamda farqli jihatlarini o‘rganib tadqiq etishga harakat qilindi.

Tadqiqotning obykti va predmeti. Bir til oilasiga mansub o‘zbek va turk tillarining leksik qatlami mazkur tadqiqot ishining asosiy obykti hisoblanadi. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Turk tili izohli lug‘ati” (“Türk dili sözlüğü”), “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”, “Devoni lug‘atit turk” asari, qiyosiy tilshunoslik, turkiy tillarning qiyosi va o‘zbek tili tarixiga doir tarixiy va ilmiy manbalar, monografik tadqiqotlar, har ikki tilning badiiy adabiyotiga oid materiallar tadqiqot ishining ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslarini dalillash uchun xizmat qiladi.

³ Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари (ўзбек, қozoқ, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида) – Т.: Фан, 1966, – 150 б; Исмоилов И, Мелиев К, Сапаров М. Ўрта Осиё ва Қozoғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқот (мевали дарахт, полиз екинлари номлари ва уй-рўзгор буюмлари лексикаси материаллари асосида) – Т.: Фан, 1990. – 260 б.

⁴ Türk lehçeleri sözlüğü, Kültür Bakanlığı yayınları, Ankara, 1991.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqot ishining asosiy maqsadi bir bobo tildan kelib chiqqan o‘zbek va turk tillari leksikasining shakllanishi tarixi va taraqqiyot bosqichlari aniqlash, ikki qardosh til leksik qatlamining o‘zaro mushtarak va tafovutli jihatlarini belgilash, har ikki tilning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishdan iborat.

Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishi quyidagi vazifalarni amalga oshirishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan:

- hozirgi o‘zbek va turk tillari leksikasining tarixiy manbalarga tayangan holatda tarixiy taraqqiyot bosqichlarini hamda struktur-semantik jihatdan o‘zgarishlarini bir-biriga qiyoslagan tarzda aniqlash;

- ikki qardosh tillar leksik qatlamining fonetik sathda mavjud bo‘lgan bir-birini taqozo qiluvchi umumiy va ayni damda bir-biridan tubdan farq qiluvchi xususiy jihatlarini belgilash;

- o‘zbek va turk tillari leksikasining morfologik sathdagi qonuniyatlarini ochib berish, leksemalardagi grammatik shakllarning shakliy-vazifaviy hamda ma’noviy-uslubiy xususiyatlarini solishtirish asosida mushtarak va tafovutli kategorial belgilarini yoritish;

- qarindosh tillardagi leksemalarning semantik imkoniyatlarini ochib berish hamda ularning ma’no taraqqiyotidagi o‘zgarishlarini taqqoslagan holda aniqlash;

- o‘zbek va turk tillari leksik qatlamidagi o‘zaro parallelizmni aniqlash va ularning o‘ziga xos ma’no ko‘lamini ochib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar. O‘rganilayotgan qardosh ikki tilga doir til materiallarining tahlili natijasida mazkur tadqiqot ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

- o‘zbek va turk tilshunosligining leksikasiga oid mushtarak va tafovutli yondashuvlar, qarashlar o‘rganilib, tahlil qilindi, mazkur qarashlarga munosabat bildirildi. Bunda jahon, rus, o‘zbek hamda turk tilshunoslarining mavzuga tegishli ishlari atroflicha ko‘rib chiqildi;

- har ikki til leksikasi solishtirilgan holda o'rganilib, leksik qatlamning struktur-semantik xususiyatlari umumiylik va xususiylik nuqtayi nazaridan tadqiq qilindi;

- o'zaro qarindosh bo'lgan bu tillar leksikasining tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan fonetik farqlari bir qator misollar yordamida ochib berildi;

- ikki til leksik qatlamining o'zaro morfologik jihatdan tafovutli xususiyatlari bir-biriga qiyoslangan tarzda ko'plab misollar yordamida belgilab berildi;

- qadimgi turkiy tilda ayni bir xil ma'noni ifodalovchi leksemalarning tarixiy taraqqiyot natijasida semantik o'zgarishga uchraganligi har ikki tilda ko'rib chiqildi va ularning hozirda qanday ma'no ifodalash uchun qo'llanilayotganligi ko'rsatib o'tildi;

- so'z turkumlari ichida eng faollaridan biri hisoblangan fe'l so'z turkumidagi ayrim fe'llarning, xususan, harakat fe'li hisoblangan ketmoq – gitmek fe'lining umumiy va xususiy ma'nolari, semantik-funksional vazifalari misollar yordamida izohlab berildi;

- leksik qatlamni qiyosiy o'rganish natijasida bir bobo tildan yuzaga kelgan tillarning ildizi bir butunligi, ularning o'zaro mushtarak va ayni damda har bir tildagi muayyan qonuniyatlar, uzoq tarixiy taraqqiyot tufayli o'zaro ikki qarindosh til o'rtasida sezilarli farqlarning yuzaga kelganligi ko'rsatib berildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ilmiy tadqiqot ishida o'zbek va turk tillari leksikasining fonetik, morfologik hamda semantik sathga oid umumiy hamda xususiy xususiyatlari haqida aniq xulosalar berildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Jahon va rus tilshunosligida, shuningdek, turkologiya hamda o'zbek tilshunosligida leksikologiya, fonetika, morfologiya, semantika, parallellik, variantlilik masalalariga bag'ishlangan ilmiy kuzatishlarga tayanildi. Jahon tilshunosligi hamda turkiyshunoslikning yirik vakillaridan hisoblangan Sh.Balli, L.Cheyf, F. de Sossyur, K.Grenbek, M.A.Kastren, V.V.Radlov, L.Budagov, A.N.Kononov,

V.V.Vinogradov, N.K.Dmitriyev, B.A.Serebnikov, N.I.Ilminskiy, N.Z.Gadjiyeva, L.Kazembek, I.Qo'chqortoyev, N.Mahmudov, B.Yo'ldoshev, J.Shabanov, Sh.Usmonova va boshqa olimlarning amalga oshirgan ishlari mazkur tadqiqot ishi uchun nazariy asos sifatida olindi. Ilmiy tadqiqot ishida mashhur o'zbek va turk adiblari qalamiga mansub bo'lgan asarlarning asliyati hamda tarjimasidan olingan misollardan ham fikrlarni dalillash maqsadida kerakli o'rinlarda foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiqot usullari. Tadqiqot ishining metodologik asosini dialektikada mavjud bo'lgan, mohiyat-hodisa, sabab-oqibat, umumiylik hamda xususiylik, imkoniyat-voqelik, shuningdek, tilshunoslikdagi o'zaro til-nutq kategoriyalarining talqini tashkil qiladi. Ilmiy tadqiqot ishida asosan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, funksional-semantik va distributiv kabi bir qator tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot ishida solishtirilayotgan tillar leksik qatlami va ularning mushtarak hamda o'ziga xos xususiy jihatlari o'rganildi va ushbu tadqiqot ishi hozirgi o'zbek va turk adabiy tillari leksikasidagi o'zaro ziddiyatli muammolarni aniqlab, ularning hal etilishiga yordam beradi. Mazkur muammoning tadqiqot ishida o'rganilishi qarindosh tillar hisoblangan o'zbek va turk tillarining tarixiy taraqqiyot bosqichini shakllantirishga, ularning o'zaro qiyosiy grammatikasini yaratishga, leksikasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijalari hamda undagi ilmiy xulosalar turkiy tillar qiyosiy-tarixiy grammatikasini, o'zbek tili tarixini yaratishda, turkologik tadqiqotlar amalga oshirishda faktik material sifatida yordam berishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, tarjima nazariyasi, aniqrog'i, o'zbek hamda turk tillarida amalga oshirilayotgan tarjima asarlarning sifati va saviyasining oshishiga ko'maklashadi. Bundan tashqari, qiyosiy aspektda ish olib borayotgan talaba, magistrant kabi tadqiqotchilarga ham, ayni chog'da, turk tilini o'rganayotgan o'zbeklar va o'zbek tilini o'rganishni istagan turklar uchun ham ilmiy-amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, olti fasl, xulosa, foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Tadqiqotning umumiy hajmi __ sahifadan iborat.

I BOB. TURKIY TILLAR LEKSIKASI TADQIQI

1.1. Jahon va o‘zbek tilshunosligida leksik qiyos: talqin va muammolar

Jahon tillarini qiyosiy o‘rganish va tadqiq qilish XVIII asrning birinchi yarmidan yuzaga kela boshladi. Yer yuzidagi qarindosh tillarni, ya’ni genetik jihatdan o‘zaro bir-biriga bog‘liq tillarni fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini o‘rganish, bir tomondan, har bir til oilasining tarkibidagi tillarning shakllanishiga asos bo‘lgan umumiy bobo tilni aniqlashga urinishni yuzaga keltirgan bo‘lsa, ikkinchi tarafdin, ular o‘rtasidagi munosabatni aniqlash, ularning zamon va makon bo‘yicha tadrijiy taraqqiyotini tavsiflash, shuningdek, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, tillarni qiyosiy jihatdan tadqiq etish ko‘plab tillarning umumiy xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashga olib keldi hamda ularning bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsata oldi. “Qiyosiy tilshunoslik” atamasining o‘zi esa ilk bor XIX asrning birinchi yarmidan ishlatilgan va XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning mazkur sohasi gurkirab rivojlana boshlagan.

Qiyosiy tilshunoslikning rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan shaxslardan biri XVIII asrning II yarmida Hindistondagi Kalkutta madaniyat universitetining professori, ingliz tilshunosi Uilyam Jons edi. Tilshunos olim qadimgi hind yozma yodgorligi hisoblangan sanskrit tili va yozuvini yangi hind tili sanalgan prakrit tili va yozuviga qiyoslash orqali qadimgi sanskrit tilining Yevropa tillari bo‘lgan yunon, lotin, german, shuningdek, fors tillari bilan nafaqat o‘zak so‘zlar yuzasidan, balki grammatik xususiyatlari jihatidan ham bir o‘zakdan tarqalgan tillar ekanligiga ushbu tillar o‘rtasidagi umumiy lug‘at va grammatik tuzilmalar kabi o‘xshashliklarga tayangan holda asos soldi. Uilyam Jons tomonidan yuzaga kelgan yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda tez orada boshqa tilshunos olimlar ham dunyo tillari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqliklarni aniqlash uchun qiyosiy usulni qo‘llay boshladilar. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab hind-yevropa tillari oilasi tarkibiga kiruvchi tillarni solishtirish asosida o‘sha davrning yetuk tilshunos olimlari bo‘lgan Frans Bop, Yakob Grimm, Vilgelm fon Gumboldt, Rasmusk

Kristian Rask hamda A.X.Vostokovlar tomonidan o'rganilishi jahon tillarining qiyosiy o'rganishning asosiy yo'nalishi sifatida qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning rivojiga turtki bo'ldi.

Tillarni taqqoslab o'rganish anchadan beri tilshunoslarning e'tiborini jalb qilib kelayotgan yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda. Bu yo'nalishdagi dastlabki tadqiqotlar I.A.Boduen de Kurtene, L.V.Shcherba, Y.D.Polivanov, M.M.Pokrovskiy singari jahon tilshunos olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Biroq turli tilshunoslar ikki tilni solishtirib o'rganishning maqsad va vazifalarini, ahamiyati va metodlarini turlicha baholashgan. Jumladan, Praga til maktabi tilshunoslari, birinchi navbatda, taqqoslashning nazariy jihatiga ahamiyat qaratib, ikki tilni solishtirish har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq namoyon qiladi deb o'ylashgan. Ch.Priz va P.Lado kabi lingvistlar esa uning amaliy ahamiyatiga ko'proq urg'u berishib, lingvodidaktik maqsadni ko'zlashgan. Chunonchi, tillarni solishtirib tadqiq etish til jarayonlarining mohiyatini bilish hamda ushbu jarayonlarni boshqaruvchi qonun-qoidalarni chuqurroq anglashga yordam berishi bois u nazariya va amaliyotning kesishuv nuqtasi hisoblanadi⁵. Yuqoridagi fikrlardan shu ma'lum bo'ladiki, bir til oilasiga mansub qardosh tillarni, jumladan, o'zbek va turk tillarini solishtirib o'rganish ham ilmiy, ham nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

G'arb tilshunosligining ta'sirida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab XX asr boshlariga qadar mashhur jahon va rus tilshunos olimlari tomonidan turkiy tillarni va shu til oilasiga mansub tillarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini bir-biriga solishtirib o'rganish borasida bir qator samarali izlanishlar olib borilgan. Bu boradagi ishlar, ayniqsa, XX asr rus tilshunosligida keng ko'zga tashlanadi. Xususan, Rossiya Fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti turkiy tillar bo'limi, ushbu institutning Sibir va Peterburg bo'limlari tilshunoslari tomonidan amalga oshirilgan ishlar e'tiborga molikdir. Mazkur tilshunos olimlar turkiy xalqlar yashaydigan hududlardagi barcha turkiy millat va

⁵ Худайбергенова З.Н. Ўзбек ва турк тилларидаги монотаксемаларнинг илмий талқини. Фил. фан.док. дис. – Тошкент, 2007, - Б. 11.

elatlarning o'ziga xos jihatlarni atroflicha o'rganib, ularning fonetik tizimi, grammatik qurilishi, morfologik va sintaktik xususiyatlari, shuningdek, lug'at tarkibi bo'yicha bir qator ilmiy izlanish ishlari olib borishgan va bu izlanishlar natijasida hozirgi kunga qadar ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari, monografiya va maqolalar, tillarning qiyosiga doir lug'atlar yaratishgan. Turkiy tillarning mukammal qiyosiy grammatikalari, yuqorida qayd etilganidek, Rossiya Fanlar akademiyasining Moskva va Sankt-Peterburg tilshunoslik instituti lingvistlari tomonidan ishlab chiqilgan⁶. Shu bilan birga, N.A.Baskakov, A.N.Kononov, A.M.Shcherbak, N.Z.Gadjiyeva, B.A.Serebnikov kabi rus tilshunos olimlarining sa'y-harakatlari natijasida turkiy tillarning ilmiy tarixiy grammatikalari va ular asosida qo'llanmalar ham yaratilgan

Sibir, Ural, Oltoy hamda O'rta va Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida yashaydigan turkiy xalq va elatlarning tillari bilan bir qatorda ularning etnografiyasini o'rganish, mazkur tillarni qadimgi yozma manbalar asosida qiyoslab tadqiq qilish XVIII-XIX asrlarda, ayniqsa, qizg'in tusga kirdi.

Xususan, XVIII asr boshlarida yashab o'tgan shved zobiti Tabbert-Stralenberg Paltava guberniyasi va Sibir hududlarida istiqomat qilgan turkiy xalqlar tilidagi bir-biriga aloqadorlik, yaqinlik xususiyatlariga qiziqqan. 1709-yilda Poltava jangida Shvetsiya Rossiyadan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng, Stralenberg asirga olingan shved askarlari orasida edi va G'arbiy Sibirga surgun qilindi. O'n yildan ortiq surgunda bo'lgan Stralenberg Sibir bo'yicha turli tadqiqot ishlari, ayniqsa, o'zi tayyorlagan Sibir va O'rta Osiyo xaritasi bilan e'tiborni jalb qildi. Shu bilan birga, u Rossiya tomonidan Sibirga tadqiqot olib borish uchun yuborilgan D.G.Messerschmidtning yordamchisi etib tayinlandi. Sibirda to'plagan ma'lumotlari va kuzatishlari bilan o'z yurtiga qaytgach, u turk tiliga "Osiyo va Yevropaning Shimoliy va Sharqiy qismlari" deb tarjima qilingan kitobini nashr ettirdi. Ushbu kitobda rus tarixi va madaniyati haqida berilgan ma'lumotlardan tashqari, ushbu geografik hududda joylashgan xalqlar va ularning tillari ham

⁶ Xudoyberganova Z.N. O'zbek va turk tillaridagi tasdiq va inkor gaplarda semantik-formal nomuvofiqlik // ZfWT. Vol 11, №3, 2019, – B.8.

muhokama qilinadi. Stralenberg asarining 13-bobida turklardan qolgan qabr toshlar va bitiklar tilga olinsa-da, ularning chizma va o'ymakorligini ham o'z ichiga olganligi asarni turkologiya nuqtayi nazaridan muhim qiladigan xususiyatlardan biridir. Bu yozuvlar bugungi kunda ilmiy jamoatchilikda Yenisey yozuvlari deb yuritiladi. Stralenberg va uning ijodi Yenisey bitiklari haqida ilk ma'lumot berish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Stralenberg tadqiqot ishining ahamiyati yuqoridagilar bilan cheklanib qolmasdan, unda turkiy tillar ichida yoqut va chuvash tillari ham tilga olinib, bu tillarga mansub so'zlar ro'yxati berilgan. Bu Stralenberg qanchalik yaxshi kuzatish olib borganligining isboti. Chunki turkologiya fanining asoschilaridan biri Vilgelm Radlovning 1888-nashr etilgan "Turkiy lahjalar lug'ati tajribasidan" asari ham na yoqut va na chuvash tilini o'z ichiga olgan edi.

Yuqorida aytganimizdek, Stralenberg Messershimdtga Sibirdagi tadqiqot ishlarida yordam beradi. Stralenberg o'z ishida ushbu materialni Messershimdt bilan to'plaganligini, u ushbu mamlakatlarda uzoqroq muddat bo'lganini va bu masalalar bo'yicha ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lganini va ushbu materiallarni nashr etishga qaror qilganini aytadi. Xulosa qilib aytganda, Stralenbergning Messershimdt bilan aloqasi uning ishini ilmiy tus olishiga muhim turtki vazifasini bajaradi.

D.G.Messershimdt (1685-1735) rus podshosi Pyotr I buyrug'i va yangi tashkil etilgan Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan 1720-1727-yillar oralig'ida Sibirda tadqiqot olib borish vazifasini amalga oshirdi. Messershimdt sinchkov olim bo'lib ishlagan holda, tadqiqot safari davomida kundalik qaydlarni olib bordi. Ushbu eslatmalarda u XVIII asrdagi Sibirdagi vaziyatni to'liq aks ettirgan edi. Biroq u olgan yozuvlar Stralenbergning eslatmalari kabi darhol nashr etilmadi. Ushbu eslatmalar oradan 240 yil o'tib, 1962-yilda Berlinda uch jildda nashr etildi. Messershimdt tomonidan to'plangan materialga botanika, zoologiya, mineralogiya, tibbiyot, grammatika, tarix, arxeologiya va etnografiyaga oid ma'lumotlar o'rin olgan edi. Uning qaydlarining turkologiya nuqtayi nazaridan ahamiyati shundaki, Yenisey bitiklari haqidagi ilk ma'lumotlar aynan shu qaydlarda berilgan. Yenisey

bitiklari haqida ma'lumot bergan shaxs sifatida yuqorida Stralenberg nomi tilga olingan. Stralenberg o'z eslatmalarini sayohatdan so'ng darhol nashr etishi unga bu nomni berdi. Darhaqiqat, Messerschmidt esa bitiklarning rejasini ilmiy jihatdan chizib, ular haqida batafsil ma'lumot bergan.

Yunon va ba'zi sharq tillarini o'rgangan fin tilshunosi M.A.Kastren (1813-1852) o'zining deyarli butun qisqa umrini shu tillarni o'rganishga bag'ishlagan. Biz ilgari ismlarini tilga olgan Stralenberg va Messerschmidt tilshunos (filolog) emas, biri ofitser, ikkinchisi shifokor holatida tadqiqot ishlarini amalga oshirgan bo'lsa, Kastren tilshunos olim sifatida ilmiy safarlari davomida bu tillarni ular so'zlashadigan joylarda o'rgangan, o'z tadqiqot ishlarida jamlagan va xalq og'zaki ijodidan ko'plab materiallar to'plagan. U Sibirga safari chog'ida turkiy tillarga ham katta e'tibor qaratgan. Qizil, Sagay, Beltir, Kacha, Qo'ybal, Soyot va Karagaslar haqida ma'lumotlar to'plagan. Uning 1888-yilda nashr etilgan kitobi qorag'oz va qo'ybal shevalari bo'yicha birinchi grammatika kitobi edi.

Kastrenning 1850-yilda nashr etilgan va turk tiliga tarjima qilingan "Oltoy tillarida olmosh qo'shimchalari" (Über die Personalsuffixe in den altaischen Sprachen, Helsingfors, 1850.) nomli asari ham turkiyshunoslik uchun juda muhim. Doktorlik dissertatsiyasi bo'lgan ushbu tadqiqotida u barcha Ural-oltoy tillarini oltoy tillari deb ataydi. Ishning asosiy maqsadi esa ushbu til oilasiga kiruvchi tillarda olmosh qo'shimchalari jihatidan ma'lum bir o'xshashlik mavjudligini aniqlash. Kastren bu maqsadiga erishadi, lekin ural-oltoy tillarining qarindoshligi haqida aniq xulosa chiqarmaydi. U hatto bu tillarni qarindosh deb hisoblash mumkin emasligini da'vo qiladi. Ural-oltoy tillarida olmosh qo'shimchalari ustida ishlaganligi bilan mashhur bo'lgan Kastren bu tillar o'rtasida o'xshashlik topsa-da, bir-biriga qarindosh ekanligiga ishonmaydi.

Mashhur tarixchi hamda etnograf olim hisoblangan G.F.Myuller esa 1733-1743-yillar oralig'ida Sibir ekspeditsiyasida bevosita ishtirok etib, ushbu hududning tarixi, etnografiyasi va hududda yashovchi elatlar tillarining o'ziga xos lingvistik xususiyatlari haqida atroflicha manba va materiallar to'pladi. Yig'ilgan materiallarga tayangan holda esa "Tatar tili va boshqa Sibir dialektlari so'zlar

to‘plami yoki leksikoni” deb nomlangan lug‘at tuzib, ushbu lug‘atda asosan Sibir hamda boshqa turkiy xalq, elat va qabilalarning nomlari, tillari haqida batafsil ma’lumot berib o‘tadi. G.F.Myuller lug‘at (so‘zlik) ida boshqird tili, chulim tatarlari tili, teleut tili, shor tili, Abakandagi xakas, Sibir buxoroliklari va yoqut tiliga mansub so‘zlar o‘rin olgan⁷. Jumladan, lug‘atda yuzdan ortiq so‘zni o‘ziga qamrab olgan turkiy so‘zlarning qiyosiy jadvali berilgan bo‘lib, birgina o‘zbekcha “qor” so‘zining 12 turkiy tildagi qo‘llaniladigan variantlari keltirilib o‘tilgan: *boshqird, turin, tobol, chat, tomsk, teleut, kuznetsk, buxor* elatlarida bir xil “kar” holatida qo‘llanilgan bo‘lsa, *xakas* tilida “xar”, *yoqut* tilida esa “charr” kabi holatlarda ishlatilgan.

Turkiy tillarni qiyosiy jihatdan tadqiq etuvchi g‘arb va rus turkiyshunosi hisoblangan Vasiliy Vasiliyevich Radlov XIX asrda o‘zining hozirgi kunga qadar turkiy tilshunoslikda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan lug‘ati “Опыт словаря тюрских наречий”, ya’ni “Turkiy lahjalar lug‘ati tajribasidan” asarini yaratish ustida ish boshlagan. Ushbu asarning so‘zboshisida esa turkiy xalq va elatlarining til va lahjalarini o‘rganishga 1859-yildan boshlab astoydil kirishganligini yozib o‘tgan. Shundan so‘ng V.V.Radlov uzoq yillar davomida turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodini o‘rganish bilan bir qatorda, o‘rganilgan tillarning leksikasiga oid ham atroflicha materiallar to‘plagan. Materiallar asosida esa Sankt-Peterburg matbaasida 1888-1911-yillar oralig‘ida o‘zining to‘rt jildlik sakkiz qismdan tashkil topgan yuqorida nomi ta’kidlangan “Lug‘at” ini nashr ettiradi. Mazkur asar turkiy tillar leksikasi ko‘lami va ilmiyligi tomonidan V.V.Radlovning muvaffaqiyatli asarlaridan biri sifatida baholangan. Binobarin, “Lug‘at” hozirgi kunda ham o‘zining nodir qiymatini yo‘qotmagan.

Turkiy tillarni qiyoslab o‘rganish sohasida V.V.Radlovning “Lug‘at” idan biroz avval 1868-1877-yillarda Sankt-Peterburgda L.Budagovning ikki jildlik “Turk-tatar lahjalari qiyosiy lug‘ati” deb nomlangan yirik asari nashr qilingan edi⁸. Shuningdek, N.F.Katanovning 1903-yilda Qozonda nashr etilgan “Uryanxay tili

⁷ Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009, – Б.10.

⁸ Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009, – Б.11.

sohasida izlanishlar tajribasidan” asari ham turkiyshunoslik sohasida katta ahamiyatga ega.

Rossiyada turkiy xalqlar va ularning tillarini o‘rganish bilan shug‘ullanish yuqorida ta’kidlanganidek, Rossiya Fanlar akademiyasi yuzaga kelgan vaqtlardan oq boshlandi. XIX asrning boshlarida Moskva, Qozon, Xarkov, Peterburg universitetlarida maxsus sharq tillarini, xususan, turkiy tillar oilasini o‘rganuvchi bir qator kafedralar tashkil etildi. 1854-1855-yillarda esa Peterburg universiteti qoshida sharq tillari fakulteti ochildi. Buning natijasi o‘laroq turkiy tillarni o‘rganish, turkiy yozma yodnomalarni o‘qish, tahlil etish, ularni ommaga e‘lon qilish va bu ishlar asosida ma’lum bir turkiy tilning tarixiy taraqqiyotini aniqlash bo‘yicha ma’lum darajada keng qamrovli ishlar olib borildi. Xususan, Iosif Giganov tomonidan turkiy tillar oilasiga mansub tatar tilining birinchi grammatikasi ishlab chiqilib, nashr etildi. Turkiyshunos olim L.Kazembek turkiy tillar grammatikasini, O. Betling esa yoqut tili grammatikasi haqida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirdi. I.N.Verezin eski o‘zbek tili davriga oid yodnomalarning xrestomatiyasini tuzish bilan shug‘ullandi.

Shuningdek, rus tilshunos olimi N.I.Ilminskiy “Boburnoma” va XVI asr eski o‘zbek adabiy tili, G.Vamberi mazkur davr yodnomalaridan biri sanalgan “Shayboniynoma”ning o‘ziga xos til xususiyatlariga oid bir qator izlanishlar va ilmiy tekshirish ishlarini amalga oshirdi. Binobarin, O‘rta Osiyo turkiy tillarining tarixiy taraqqiyot bosqichini, qadimgi uyg‘ur va run yodnomalarini, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini o‘rganish va bu izlanishlar natijasida turkiy tillarning qiyosiy lug‘atlarini tuzishda yuqorida ta’kinlanganidek turkiyshunos olim V.V.Radlovning xizmatlari bugungi kunda ham ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Qadimgi turkiy yodnomalarni tadqiq etish, til tarixini va turkiy tillari oilasiga oid tillarni bir-biriga solishtirib o‘rganishda esa N.F.Katanov, S.E.Malov, P.M.Melioranskiy kabi rus tilshunos olimlarining sa’y-harakatlari ham kattadir.

B.A.Serebnikov, N.Z.Gadjiyevalar aynan turkiy tillarga oilasiga mansub tillarning tovushlar tizimi, morfologik va sintaktik shakllarini qiyosiy-diaxron aspektida o‘rganib, bevosita sodda gaplarning tarixiy taraqqiyoti masalalariga

alohida to‘xtalib o‘tadi. Bunda sodda gaplarning tarixiy tiplari, ularning retrospektiv plandagi o‘zgarishi va rivoji masalalari diqqat markazida turadi⁹.

Turkiy tillarning o‘rganilishiga doir tadqiqot ishlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularni bir-biriga solishtirib o‘rganish, asosan, diaxron aspektda amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, bir til oilasiga mansub tillarni bir-biriga taqqoslab o‘rganish borasidagi tadqiqotlar, asosan, leksik, morfologik va sintaktik sathlarda amalga oshiriladi. Bu sathlarni har tomonlama tadqiqqa olingan tillar o‘rtasida solishtirib o‘rganishning ahamiyatli jihati ular o‘rtasidagi umumiy o‘xshashliklar va xususiy farqliklarni aniqlash va tillarning imkoniyatlarini kengroq ochib berishdir. Shuni e‘tirof etish kerakki, jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham turkiy tillarning, xususan, o‘zbek va turk tillarining fonetik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik tabiatini tadqiq etishga doir bir qator dissertatsiyalar himoya qilingan hamda bu mavzularga oid ko‘plab manbalar chop etilgan.

Binobarin, K.Grenbekning tadqiqot ishi turkiy tillar va turkiy tillar shevalariga doir materiallar doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur ish so‘z turkumlari, so‘z birikmlari bilan birgalikda sodda gaplarning ayrim o‘ziga xos jihatlarini keng ko‘lamda tadqiq etishga qaratilgan¹⁰. K.Grenbekning amalga oshirgan tadqiqot ishining asosiy tomoni shundaki, u turkiy tillardagi so‘z birikmalariga alohida urg‘u berib, teng bog‘lanish asosida yuzaga keladigan so‘z birikmalari haqida ham kengroq to‘xtalib o‘tgan. Muallif teng bog‘lanishga asoslangan birikmalar qatoriga, ilova birikmalardan tashqari, so‘zlarning sanoq ohangiga ko‘ra birikishini ham ko‘rsatib o‘tgan¹¹.

N.K.Dmitriyevning izlanishlari ham turkiy tillardagi sodda gap sintaksisiga oid bo‘lib, unda mazkur oilaga kiruvchi turkman, ozarbayjon, turk, boshqird, qrim-tatar, bolqor, gagauz, qo‘miq va chuvash kabi tillarning sintaktik, morfologik hamda leksik xususiyatlariga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi. O‘zbek, qozoq,

⁹ Худайбергенова З.Н. Ўзбек ва турк тилларидаги монотаксемаларнинг илмий талқини. Фил. фан. док. дис. – Тошкент, 2007, – Б. 15.

¹⁰ Худайбергенова З.Н. Ўзбек ва турк тилларидаги монотаксемаларнинг илмий талқини. Фил. фан. док. дис. – Тошкент, 2007, – Б. 15.

¹¹ Grönbech K. Der türkische Sprachbau, 1, – Kopenhagen, 1936, – B.42.

qoraqalpoq tillari manbalari asosida sodda gap va uning turlarini o'rganishga bag'ishlangan A.N.Nurmaxanovning monografiyasi ham mazkur tillardagi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, ya'ni darak, so'roq, buyruq va istak gaplarning o'ziga xosliklarini tadqiq etishga qaratilgan¹².

O'zbek va turk tillari rivojidadagi struktur-semantik o'zgarishlar o'zbek tilshunosligida ham qator tadqiqot ishlarining obykti sifatida hozirgi kunga qadar o'rganib kelinmoqda. Mazkur ikki tilni solishtirib tadqiq etishga bag'ishlangan dissertatsiyalarning ko'pchiligi tillardagi leksik va frazeologik sathlarning umumiy va xususiy jihatlarini, leksema va iboralarning ma'no taraqqiyotidagi farqlarini aniqlashga qaratilgan. Xususan, Sh.Usmonovning "O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida frazeologik birliklarning leksik – semantik va grammatik – qurilish jihatlarini ikki qardosh til misolida qiyoslangan va shu asosida ularning mushtarak hamda xususiy jihatlarini batafsil ochib berilgan¹³. Tadqiqot ishida o'zbek va turk tillariga mansub somatik, ya'ni inson ta'na a'zolari nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklarning miqdori hamda ularning tarkibida faol ishtirok etgan somalarni aniqlash, ularni struktur – sintaktik tomondan tasniflash, har ikki tilda mavjud bo'lgan frazemalarni muqobil va nomuqobil iboralar holatida shakllantirib, ular orasidagi ma'no va shakl jihatidan o'xshash va farqliliklarni aniqlab umumlashtirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, dissertatsiyada gapga teng bo'lgan frazeologik birliklarni tuzilishiga ko'ra sodda gapli iboralar va qo'shma gapli iboralar holatida guruhlantirilib, ularning o'ziga xos sintaktik xususiyatlari ochib berilgan.

"O'zbek va turk tillarida ko'ruv leksemalarining semantikasi" mavzusidagi Z.Siddiqovning tadqiqot ishida esa o'zbek va turk tillarida o'zaro muqobil sanalgan **qaramoq**, **boqmoq** fe'llarining umumiy va bir-biridan farqli ma'nolarini aniqlash asosiy maqsad qilib olingan. Mazkur nomzodlik dissertatsiyasida ko'ruv leksemalarining semantikasi tavsifiy bayon usuli asosida o'rganib chiqilgan.

¹² Худайбергенова З.Н. Ўзбек ва турк тилларидаги монотаксемаларнинг илмий талқини. Фил. фан. док. дис. – Тошкент, 2007, – Б. 15.

Shuningdek, J. Shabanovning “Turk va o‘zbek tillarida faol harakat fe’llari semantikasi” nomli dissertatsiyasida esa **ketmoq, kelmoq, kirmoq, chiqmoq, boqmoq** va **yurmoq** fe’llarining valentliklari an’anaviy usullar va leksikologiyaning bir qancha tahlil metodlari yordamida tadqiqqa tortilib, qiyosiy o‘rganilgan¹⁴. Yuqoridagi fe’llarning har ikkala tildagi areallari va ifoda semalarini aniqlash, ularning semantikasidagi mushtarak va farqli jihatlarining voqealanishini ko‘rsatish, muqobil leksik variantlarini o‘rganish, ushbu fe’llarning ma’no imkoniyatlarini kengroq ochib berish maqsad qilib olingan. Bundan tashqari, mazkur fe’llarning tarixiy taraqqiyot tadriji, hozirgi holatiga kelguniga qadar sodir bo‘lgan shakl va ma’no ko‘lamidagi o‘zgarishlar ham yorqinroq yoritib berilgan.

Bir til oilasiga mansub bo‘lgan qarindosh tillarni faqatgina semantik jihatdan tadqiq etish bilan kifoyalanish yetarli emas, albatta. Tildagi o‘zgarishlar va rivojlanishlar, birinchi navbatda, tilning leksik sathida o‘z ifodasini topsa-da, biroq nutq tizimi uchun grammatik qonuniyatlar, ya’ni morfologik kategoriya va so‘z shakllarining shakli-vazifaviy imkoniyatlaridagi o‘zgarishlarni ochib berish ham muhim ahamiyatga egaligini ko‘zdan qochirmasligimiz kerak. Shu bois keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida qarindosh bo‘lgan tillarning grammatik: morfologik va sintaktik jihatlarini o‘rganishga doir tadqiqot ishlari ham yuzaga kelgan.

Z. Xudoyberganovanning “O‘zbek va turk tillarida fe’lning o‘tgan zamon shakllari tizimi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ikki qarindosh tildagi o‘tgan zamon fe’l shakllarining tadrijiy taraqqiyotida oxirgi yillarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, ular o‘rtasidagi morfologik jihatdan o‘xshashlik va farqlari batafsil bir qator misollar yordamida tahlilga tortilgan¹⁵. Tadqiqotning maqsad va vazifalari esa hozirgi o‘zbek va turkiy adabiy tillaridagi o‘tgan zamon fe’l kategoriyalarining semantik, grammatik va uslubiy tomonlarini taqqoslab o‘rganish, ular o‘rtasidagi tafovutli va umumiy xususiyatlarini aniqlash, o‘tgan zamon fe’l shakllarining qo‘llanilish doirasini ifodalash, hozirgi shakliga kelguniga qadar fonetik, semantik

¹⁴ Шабанов Ж.К. Турк ва ўзбек тилларида фаол ҳаракат феълларининг семантикаси. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Тошкент, 2003, – Б. 5.

¹⁵ Худайбергенова З.Н. Ўзбек ва турк тилларида феълнинг ўтган зamon шакллари тизими. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Тошкент, 1999, – Б. 6.

va grammatik o'zgarishlarga uchragan o'rinlarini tahlil qilish kabi qator masalalarni hal etishga qaratilgan.

Shu jumladan, M.Abdurahmonovanning "O'zbek va turk tillaridagi ot kategoriyalarining qiyosiy talqini" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida o'zbek va turk tillaridagi ot kategoriyalari bo'lgan egalik, kelishik va son, ya'ni ko'plik shakllarining struktur-semantik hamda uslubiy xususiyatlarini solishtirib tadqiq etish maqsad qilib olingan¹⁶. Shu maqsadda o'rganilayotgan tillardagi ot so'z turkumi kategoriyalarining ma'noviy – uslubiy va shakliy – vazifaviy tomonlarini solishtirish asosida ularning o'xshash va noo'xshash kategorial belgilari aniqlangan, ot so'z turkumidagi so'zlarning birlik va ko'plik shakllarining qo'llanilish modellari hamda ularning ma'no va uslubiy jihatdan imkoniyatlari bir-biriga taqqoslab o'rganilgan. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, o'zbek va turk tillaridagi egalik va kelishik shakllarining paradigmatic va sintagmatic qamrovi imkoniyatlari belgilab berilgan, tillardagi egalik, kelishik, son kategoriyalarining muqobil va nomuqobil ko'rinishlari batafsil tavsiflangan.

"O'zbek va turk tillaridagi monotaksemlarning ilmiy talqini" mavzusidagi Z.Xudoyberganovanning ilmiy tadqiqot ishida esa o'zbek va turk tillaridagi monotaksema (sodda gap)larni qiyosiy tadqiq etishning umumnazariy va tipologik asoslarini ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan¹⁷. Dissertatsiyada esa mazkur tillardagi monotaksemlarning tuzilish va qo'llanilishidagi umumiy va xususiy qonuniyatlar ochib berilgan, solishtirilayotgan tillardagi ifoda maqsadiga hamda gap bo'laklarining ishtirokiga ko'ra turlarini yuzaga keltiruvchi vositalarning universal va relevant jihatlari belgilab berilgan, taqqoslanayotgan tillardagi sodda gaplar bilan birgalikda gap bo'laklarini qiyosiy aspektda o'rganib chiqishning modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishida tillarni solishtirib tadqiq etish uchun ishlab chiqilgan modelda o'zbek hamda turk tillarida mavjud

¹⁶ Абдурахмонова М.Т. Ўзбек ва турк тилларидаги от категорияларининг қиёсий талқини. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Тошкент, 2004, – Б. 6.

¹⁷ Худайбергенова З.Н. Ўзбек ва турк тилларидаги монотаксемаларнинг илмий талқини. Фил. фан. док. дис. – Тошкент, 2007, – Б. 5.

bo'lgan monotaksema, ya'ni sodda gaplarni besh jihatdan taqqoslab o'rganish asosida tahlil qilish taklif etilgan.

Xususan, Mustafa Chetinning "Hozirgi o'zbek va turk tillarida so'z birikmalari sintaktik derivatsiyasi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida hozirgi o'zbek va turk tillarida ot va hokim unsuri fe'l bo'lgan so'z birikmalarining sintaktik derivatsiyasining muhim qonun-qoidalarini o'rganish asosiy maqsad qilib olingan¹⁸. Tadqiqot ishi ikki qardosh tilda ham derivatsion qoidalarga asoslangan holda otli so'z birikmalarni nisbiy nopredikativ sintaktik qurilma sifatida talqin etish, fe'lli so'z birikmalarning sintaktik derivatsiyasini o'rganish va ularni predikativli sintaktik qurilmalar sifatida asoslash, har ikki tilda mavjud bo'lgan otli va fe'lli so'z birikmalari derivatsion modellarning nutqiy voqealanishini izohlash kabi bir qator masalalarni hal qilishga qaratilgan. O'zbek va turk tillaridagi otli hamda fe'lli so'z birikmalari sintaktik derivatsiyasidagi bir-biriga o'xshash mushtarak va bir-biridan farqlanuvchi tafovutli jihatlari atroflicha yoritib o'tilgan.

O'zbek va turk tillarini qiyoslab o'rganishga doir bir qator ilmiy tadqiqot ishlari bilan birgalikda ko'plab olimlar, xususan, o'zbek tilshunoslari tomonidan ilmiy maqolalar ham yaratilgan bo'lib, ularning barchasi mazkur ikki qardosh tilning umumiy hamda xususiy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Binobarin, bu borada tilshunos Zilola Xudoyberganovanning ikki tilning morfologik, sintaktik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan ilmiy maqolalari e'tiborga molikdir. Jumladan, uning "O'zbek va turk tilshunosligida ega talqini" maqolasida o'zbek va turk tillarining sintaktik xususiyatlari, ega hamda uning o'zbek va turk tilshunosligida ifodalanishi solishtirilgan holda o'rganilgan. Negaki, o'zbek tilshunosligining rus tilshunosligi ta'sirida, turk tilshunosligining esa fransuz va nemis tilshunosligi bo'lgan g'arb tilshunosligi ta'sirida shakllanganligi gapning bosh bo'laklaridan biri hisoblangan eganing ifodalanishi borasida ikki tilda farqli yondashuvlar uchraydi. Shu bois maqolada turk tilshunosligida ega

¹⁸ Мустафа Четин. Ҳозирги ўзбек ва турк тилларида сўз бирикмалари синтактик деривацияси. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Самарқанд, 2002, – Б. 3.

vazifasini bajargan soʻzlar bilan soʻz birikmalarining leksik-semantik mazmuni hamda sintaktik vazifasi ochib berilgan. Shuningdek, oʻzbek tilshunosligida eganing tuzilishiga koʻra turlari ham tasniflangan, ega vazifasida kelgan soʻz turkumlarining ham grammatik xususiyatlari batafsil yoritib berilgan.

Zilola Xudoyberganovaning “Oʻzbek va turk tilshunosligida feʼl mayllarini tasniflash mezonlari” nomli maqolasida ikkala tildagi asosiy morfologik kategoriyalardan biri mayl haqida batafsil toʻxtalib oʻtilgan. Maqolada bu tillardagi soʻzlovchining obyektiv borliqqa boʻlgan modal munosabatini ifoda etuvchi feʼl shakllari – mayllar oʻzaro tadqiq etish maqsad qilingan¹⁹. Oʻzbek va turk tillari uchun umumiy boʻlgan feʼl mayllari bila bir qatorda qiyoslanayotgan ikkinchi tilda mavjud boʻlmagan mayl kategoriyalari ham izohlab berilgan. Ikki tildagi feʼl mayllarini tasniflab oʻrganishdagi farqli jihatlar koʻrsatib berilgan. Shu bilan birga oʻzbek va turk tilidagi xabar maylining boshqa feʼl mayllariga nisbatan qarama-qarshi qoʻyilganligi qayd etib oʻtilganligi natijasida bu ikki tilda zamon va mayl kategoriyalarining munosabati, ularning turlari, tuzilishi va soni jihatidan bir xillik mavjud emasligi, maʼlum bir feʼl shakli uchun butunlay farqli qarashlar bayon qilingani eʼtirof etilgan.

Tilshunos olimaning “Oʻzbek va turk tillaridagi tasdiq va inkor gaplarda semantik-formal nomuvofiqlik” deb nomlangan ilmiy maqolasida esa ikki qardosh tildagi tasdiq hamda inkor gaplarning mushtarak va tafovutli jihatlarini oʻrganish koʻzda tutilgan. Dastlab solishtirilayotgan tillardagi tasdiq va inkor mazmunini ifoda etishga xizmat qilgan til birliklarining taʼrifi hamda talqini masalasi atroflicha oʻrganilgan. Baʼzan esa har ikki tilda ham shakl jihatidan tasdiq gaplarning inkor maʼnosini ifodalashi va, aksincha, inkor gaplarning esa tasdiq maʼnosini anglatishi qayd etib oʻtilgan. Xususan, maqolada semantik-formal jihatdan tasdiq hamda inkor nomuvofiqlikni yuzaga keltirgan vositalar yoritib berilgan.

¹⁹ Xudaybergenova, Z. Oʻzbek va turk tilshunosligida feʼl mayllarini tasniflash mezonlari. – Uluslararası Türk lehçe araştırmalar dergisi [TÜRKLAD], 3. cilt, 2. sayı, 2019, 212-225. s., Türkiye

1.2. Turkiy tillar leksikasining leksikografik manbalarda namoyon bo‘lishi

Turkiy tillar oilasi jahon tillari tizimidagi eng qadimgi til oilalaridan biri bo‘lib, 30 dan ortiq tillarni o‘z ichiga oladi. Ularning barchasi bitta bobo tildan – qadimgi turkiy tildan kelib chiqqan bo‘lishiga qaramay, har biri o‘ziga xos rivojlanish bosqichiga ega. Turkiy tillar oilasiga kiruvchi o‘zbek, turkman, turk, qozoq, qirg‘iz, yoqut, chuvash, boshqird, ozarbayjon, xakas kabi tillar ushbu tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning turmush tarzi, jamiyat va siyosiy taraqqiyot, shuningdek, tabiiy-geografik va ijtimoiy sharoit ta‘sirida turli lingvistik o‘zgarishlarga uchragan. Aynan mana shunday o‘zgarishlar natijasida turkiy tillarda shakl jihatdan bir xil bo‘lgan so‘zlarning ma‘nolarida o‘zgarishlar yuz bergan, ayrimlari esa qarama-qarshi ma‘no kasb etgan.

Barchamizga ma‘lumki, o‘zbek tilining ham, shu jumladan, turk tilining ham ildizlari qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Mazkur ikki til ham kelib chiqishi jihatidan bir bobo tildan tarqalgan bo‘lsa-da, ikkovining keyingi davrdagi tarixiy taraqqiyoti, takomili, rivoji bir-biridan farqli ravishda o‘zgacha kechgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili tarixan Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda amalda bo‘lgan “Chig‘atoy turkchasi” hamda unda keyingi davrlar yozma tili bo‘lgan eski o‘zbek tili asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, hozirgi turkiy adabiy tili esa aynan Anado‘lida amal qilgan o‘guz guruhiga mansub bo‘lgan “Usmonli turkchasi” asosida yuzaga kelgan.

O‘zbek va turk tili bir til oilasiga mansub bo‘lishiga qaramay ular o‘rtasida o‘xshash xususiyatlar bilan birga, bir qator farqli jihatlar ham mavjud. Bu ikki til o‘rtasidagi eng muhim farqlardan biri shundaki, yuqori nazarda tutilganidek, o‘zbek adabiy tili turkiy tillarning qarluq guruhiga oid bo‘lsa, turkiy adabiy til esa bu oilaning o‘g‘uz guruhiga mansubdir. Ikki qardosh til bir til oilasining boshqa-boshqa guruhlariga tegishli bo‘lsa-da, ammo bu til shevalarida bir guruhga mansublik holatlarini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, o‘zbek tilining Xorazm shevalari aynan o‘g‘uz lahjasiga kirishi, uning turkiy til bilan naqadar yaqinligi va qarluq, qipchoq lahjasini shakllantiruvchi Toshkent, Farg‘ona, Samarqand

shevalari vakillariga nisbatan Xorazm sheva vakillari turkchani tez va oson tushuna olishini ko'rsatadi. Ikki qardosh til o'rtasidagi bu kabi farqli xususiyatlarning ayrimlari azaldan mavjud bo'lgan bo'lsa, ayrimlari esa tilning ichki taraqqiyoti tufayli keyingi davrlarda yuzaga kela boshlagan.

Turkiy tillarni ilmiy jihatdan tadqiq etish esa nisbatan ancha keyin XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi yarmida hind-yevropa, fin-ugor kabi boshqa til oilalari grammatikalari manbayi asosida vujudga kela boshlagan bo'lsa-da, turkiy xalqlar va ularning tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish XI asrning oxirlariga borib taqaladi. Bu jarayon bevosita XI asrda yashab o'tgan va turkiy xalqlar hayoti va tillarini o'rgangan Mahmud Koshg'ariy nomi bilan bog'liq. Uning "Devoni lug'atit-turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asari turkologiyadagi ilk filologik tadqiqot va turkiy so'zlar etimologiyasi keltirilgan birinchi qiyosiy lug'atdir. Aynan Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asari turkiy tillar va lahjalarining fonetik, morfologik, leksik-semantik sathdagi farqlarini ochib berishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. "Devon" XI asrdagi turkiy xalqlar hayoti va madaniyatiga oid turli xil predmet nomlari, diniy va etnik marosimlar, oziq-ovqat, urug'chilik, chorvachilik, uy va yovvoyi hayvonlar nomlari, kasalliklar va dori-darmon nomlari, umuman olganda, ijtimoiy hayotning turli xil sohalariga oid tushunchalar, shuningdek, tarixiy va afsonaviy qahramonlarning nomlari haqida batafsil ma'lumot beruvchi yagona qomusiy manba sanaladi. Bundan tashqari, mazkur asarda etnonimlar, ya'ni qabila va urug' nomlari va toponimlarga oid lingvistik ma'lumotlar ham keng yoritib berilgan.

Mahmud Koshg'ariy "Devon" ni yaratish jarayonida o'sha davrdagi turkiy tillarga oid so'zlarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligi bois umumiy turkiy tillarni o'rganish, mavjud sheva va lahjalarning grammatikasini tuzish, ularning o'xshash va bir-biridan farqli xususiyatlarini yoritib berishga qo'shgan xizmatlari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Koshg'ariy etnolingvistika, etimologiya va tabiiy fanlar, jumladan, geografik terminlarni o'z asarida qo'llab terminologiya sohasiga ham sezilarli darajada hissa qo'shgan. Shu bois ham,

Mahmud Koshg'ariyning asari o'zi ta'kidlaganidek: "... oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartibda" tuzilgan.

Eng asosiysi esa Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asari XI asrda mavjuda bo'lgan turkiy tillarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlarini ochib berishda nodir manba bo'lib xizmat qiladi. Asar mundarijasiga asosan 2 qism: muqaddima va lug'atdan iborat bo'lib, uning lug'at qismi o'z navbatida 8 bo'limni o'z ichiga oladi. Asarning muqaddima qismida muallifning devonni yozishdan maqsadi, turkiy tilning mavqeyi, turkiy qabila va urug'lari, turkiy til xususiyatlari, dialektlarning bir-biridan farqli jihatlari, lug'at tuzish va lug'atga so'zlarni joylashtirish prinsiplari, shuningdek, so'z yasalishi va ayrim grammatik qoidalar atroflicha yoritilib berilgan bo'lsa, lug'at qismida esa so'zlarning izohiga o'tiladi. Koshg'ariy lug'at qismini tuzishda aynan arab lug'atchiligi yo'lini tanlaydi, ya'ni dastlab ismlar, so'ngra fe'llarni keltirib o'tadi. Lug'at qismida o'sha zamondagi turkiy tilning barcha sohalariga oid faol iste'moldagi so'zlar berilgan, iste'moldan chiqqan, amalda qo'llanilmayotgan so'zlar ifodalanmagan. Lug'atda avval turkiy so'z, keyin uning arabcha tarjimasini keltirilib, fonetik va dialektik variantlari va ularning aynan qaysi shevalarda uchrashi ham izohlab o'tilgan.

Binobarin, "Devon"dagi qadimgi turkiy tillarning fonetikasiga oid qarashlar ham hozirgi kunda ilmiy-amaliy jihatdan ahamiyatlidir. Fonema (tovush) larning tahlili ancha batafsil yoritilib o'tilgan: unli va undosh tovushlar, cho'ziq va qisqa unililar, tovushlarning urug' va qabila tillaridagi orfoepiya va orfografiyasi, mavjud fonetik hodisalar atroflicha izohlangan. Mahmud Koshg'ariy o'sha davr fonetikasiga doir qimmatli fikrlarni bayon qilib, shu davr alifbosi to'g'risida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan: "Turkiy tillarda qo'llaniladigan asosiy harflar soni 18 tadir. Holbuki, tildagi tovushlar 18 ta emas, ko'pdir. Bu 18 harf yetishmaydi. Bulardan boshqa tilda mavjud bo'lgan tovushlarni berish uchun yana 7 ta tovush ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo'yib yoziladi"²⁰.

Shuningdek, asarda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga doir turlari (omonim, sinonim, antonim, paronim), so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari va

²⁰ Saidov Y. O'zbek adabiy tili tarixi. – Buxoro, 2019, – B.66.

ayrim soʻzlarning etimologiyasiga toʻxtalib oʻtadi. Morfologiya sohasida ham bir qator ishlarni amalga oshirib, soʻz turkumlarini, davr anʻanasiga muvofiq, 3 ta soʻz turkumiga: *ism, feʻl, bogʻlovchilarga* boʻlib, turkiy soʻzlarning tuzilish anʻanalarini, yasalish va turlanish yoʻllarini ham koʻrsatib oʻtadi. “Devon” da 7500 dan ortiq turkiy soʻz va iboralarning maʼnolari izohlab berilgan boʻlib, 250 dan ziyod maqol va matallar, koʻplab sheʼriy parchalar ham kiritilgan. Sheʼriy parchalarning koʻp qismi turkiy xalqlar ogʻzaki ijodiga xos toʻrtliklardan tashkil topgan. Asar ham Koshgʻariy davri adabiy tili, ham turkiy shevalarni qamrab olgan boʻlsa-da, umumturkiy adabiy tilga katta ahamiyat berilgan.

Mazkur kitobga jamlangan maʼlumotlar VIII-XI asrlar turkiy adabiy tili bilan birgalikda xalq ogʻzaki ijodi va turli lahjalarning boy manbayi hisoblanadi. “Devoni lugʻatit-turk” fonetik va morfologik hodisalar va dialektik shakllarning bir qator xususiyatlari haqida keng tasavvur beradigan erta davr turkiy adabiy til va dialektikasining yagona yodgorligi boʻlishi bilan birga hozirgi kun tilshunoslari, adabiyotshunoslari va folklorchilari uchun beqiyos qadr-qimmatga ega lingvoqomusiy asardir. Mahmud Koshgʻariyning ushbu asari bugungi kunga qadar jahon va oʻzbek tilshunos olimlari va turkologlari uchun dasturulamal vazifasini bajarib kelmoqda. Rus tilshunos olimi V.I. Belyaev taʼkidlashicha: “Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan... Muallif bergan maʼlumotlar... arxeologik kashfiyotlar bu maʼlumotlarning aksariyatini isbot etmoqda”²¹.

Mahmud Koshgʻariy oʻz davrida mavjud boʻlgan dialektlarning leksik xususiyatlarini ham toʻliq koʻrsatib berishga harakat qilgan. Muallif mavjud soʻzlarni izohlashda, oʻrni bilan ularning qaysi dialektga tegishli ekanligi, ulardagi oʻziga xos maʼno xususiyatlari hamda boshqa muhim jihatlari haqida ham batafsil toʻxtalib oʻtadi. Bu esa mavjud soʻzning dialektal xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Olim maʼlum bir dialektga xos soʻzlarni alohida ajratib koʻrsatib oʻtadi. Jumladan, Mahmud Koshgʻariy oʻgʻuzlar foydalanadigan soʻzlar sifatida

²¹ Saidov Y. Oʻzbek adabiy tili tarixi. – Buxoro, 2019, – B.57.

pamuq “momiq, paxta” (I.360), *töläk* “tinch va og‘ir kishi” (I.368), *sindu* “qaychi” (I.395), *qarınchaq* “chumoli” (I.460), *sechä* “chumchuq” (III.238); chigillar qo‘llaydigan so‘zlar sifatida *quchg‘undi* “piyoz” (I.454), *ud* “sigir” (I.80), *ajun* “dunyo” (I.106), *saman* “somon” (I.392); qipchoqcha so‘zlar sifatida ökil “ko‘p” (I.103), *aba* “ayiq” (I.113), *sulaq* “qora jigar” (I.390); arg‘ucha so‘zlar sifatida *qiz* kishi “baxil odam” (I.315), *chigit* “paxta urug‘i, chigit” (I.337), *tudrich* “go‘ng” (I.422), *bashtar* “o‘roq” (I.424) kabilarni aniq ko‘rsatib o‘tadi²². Mazkur lahjalarga tegishli ayrim so‘zlarni, xususan, *pamuk*, *karınca*, *saman*, *serçe* so‘zlarini hozirgi turk adabiy tilida uchratishimiz mumkin. Ushbu so‘zlardan pamuk, saman so‘zlari o‘z holda yetib kelgan bo‘lsa, chumoli ma’nosidagi *qarınchaq* hozirgi turk tiliga *karınca* shaklida, chumchuq ma’nosini ifodalovchi *sechä* so‘zi *serçe* tarzida yetib kelgan. Shuningdek, *chigit*, *somon* so‘zlari hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lsa, *qarindja* (chumoli) shakli esa Xorazm shevasida qo‘llanilmoqda.

Jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida til xalq hayoti, madaniyati bilan uzviy bog‘likda shakllanib kelgan. Til – bu etnos tarixining xilma-xilligi, so‘z boyligini tashuvchi va odamlar hayotidagi barcha o‘zgarishlarni o‘zida ifodalovchi ijtimoiy jarayon. Na fonetika, na tilning grammatikasi bizga odamlarning yashash sharoitlarini lug‘at singari to‘liq tasavvur eta olish imkonini bera olmaydi²³. Shuning uchun ham til taraqqiyotining deyarli barcha bosqichlarida uning leksikonini aks ettiruvchi lug‘atlar yaratish va uning leksik tarkibini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilib kelingan. Xususan, turkiy tilshunoslikda ham turkiy tillar oilasiga mansub so‘zlarning leksik xususiyatlarini ochib berishga, lug‘at tarkibini boshqa tillar bilan solishtirib o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator lug‘atlar yaratilgan.

Shulardan biri XIV asrda yaratilgan “At-tuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya”, ya’ni “Turkiy tillar haqida noyob tuhfa” asaridir. Asar 3 bo‘lim: kirish, lug‘atlar izohi va grammatik qonuniyatlarga oid alohida bo‘limlardan tashkil topgan bo‘lib, aynan uning lug‘at qismida o‘sha davrda turkiy tillarda mavjud

²² Saidov Y. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Buxoro, 2019, – B.64.

²³ Амонтурдиев Н.Р. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Термиз, 2021, – Б. 23.

bo'lgan 3000 ta so'zning ma'nosini atroflicha izohlab berilgan. Lug'at qismida keltirilgan asosiy so'zlar esa mamluklar davrida shakllangan qipchoq tiliga oid. Darhaqiqat, "At-tuhfa" da turkiy tillar oilasiga kiruvchi qarluq, tatar, turkman tillari haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan bo'lsa-da, asosiy so'zlar qipchoq tiliga oidligini ko'rishimiz mumkin. Bu haqida asar muallifining o'zi shunday deb yozadi: "Men bu asarda qipchoq tiliga asoslandim. Chunki eng ko'p qo'llaniladigan ilg'or til qipchoq tilidir. Turkman tilini bu ishda bayon qilmadim. Faqat zarurat bo'lgandagina ko'rsatib o'tdim"²⁴.

Asarning lug'ati tarkibidagi so'zlar qaysi tilga ko'proq yaqin kelishi hozirgi kunda ham tilshunoslar e'tiborini jalb etib kelmoqda. Ayrim tilshunoslar ularni qipchoq tiliga yaqin turadi deyishsa, ayrimlari esa o'g'uz tiliga oid so'zlarga mos keladi deb ta'kidlashadi. Binobarin, qipchoq tilida yaratilgan yodgorliklarda mavjud so'zlarni dialektlarga ko'ra 3 guruhga: sof qipchoq so'zlari, sof o'g'uz so'zlari va qipchoq-o'g'uz aralash so'zlari kabi guruhlariga bo'linishi esa asardagi so'zlar har ikkala tilga yaqinligini va ularning xususiyatlarini ifodalashini isbotlaydi.

"At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'atit turkiya" asari shunday bir buyuk asarki, turkiy tillar oilasiga mansub tillarning, xususan, o'zbek tilining o'guz va qipchoq lahjalaridagi qo'llaniladigan so'zlarni solishtirib tahlil etish hamda semantikasini ochishda, shuningdek, hozirgi turk adabiy tilida foydalaniladigan ayrim so'zlarning tarixiy taraqqiyot bosqichini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asardagi mavjud so'zlarni esa ikki guruhga: birinchisi, hozirgi o'zbek va turkiy adabiy tilida qo'llaniladigan va ikkinchisi hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'moldan chiqib ketgan so'zlarga bo'lish mumkin. Asardagi **tängri** (Tangri), **qizil** (qizil), **qara** (qora), **burun** (burun), **qulaq** (quloq), **arслан** (arслан), **aniqladi** (aniqladi), **körgäzdi** (ko'rgazdi, ko'rsatdi), **qiz** (qiz), **savuuq** (sovuq)²⁵ kabi so'zlarni hozirgi o'zbek adabiy tilida va ayrimlarini hozirgi turkiy adabiy tilida qo'llaniluvchi leksik birliklar sifatida ko'rsatish mumkin.

²⁴ Ат-тухфат уз-закияту фил луғатит-туркия. – Тошкент, Фан, 1968, – Б 277.

²⁵ Saidov Y. O'zbek adabiy tili tarixi. – Buxoro, 2019, – B.81.

Asarda mavjud bo‘lgan **tamaqsav** (ochko‘z), **kāshāl** (sochi to‘kilgan odam), **taz** (kal), **sangrav** (kar, soqov), **muñ** (befahm), **sug‘an** (piyoz), **baqcha** (bo‘ston), **qapu** (eshik, darvoza), tilmach (tarjimon), **quna//duna** (ikki yoshli ho‘kiz bolasi), **uchmaq** (jannat), **tamu** (do‘zax), **buz** (qirov), **kāshir** (sabzi), **yazīq** (kamchilik, ayb), **tabu** (xizmatchi), **igi** (yaxshilik), **shag‘ir** (may), **bursh** (qarz), **susmor** (to‘qmoq) kabi so‘zlar esa aynan hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydigan, iste‘moldan chiqqan so‘zlar guruhini tashkil etadi. Ammo bu so‘zlarning ayrimlari hozirgi turkiy adabiy tilida aynan yoki ayrim tovush o‘zgarishlari asosida qo‘llaniladi. Jumladan, piyoz ma’nosini ifodalovchi sug‘an so‘zi hozirda **sog‘an** tarzida, qarz ma’nosini beruvchi bursh so‘zi **borç** shaklida, eshik, darvoza ma’nolarini anglatuvchi qapu so‘zi **kapı** (hozirgi turkiy adabiy tilida q tovushi mavjud emas) holatida, guruch ma’nosini ifodalovchi birinch so‘zi esa **pirinç** shaklida ifodalanadi. Shuningdek, asarda qirov ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan **buz** so‘zi esa bugungi turk adabiy tilida muz tushunchasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Asarda ikki yoshli qo‘y ma’nosini ifodalashda qo‘llanilgan қўй (38) so‘zi hozirgi turk tilida umuman qo‘y ma’nosini anglatadigan **koyun** shaklida qo‘llaniladi.

Turkiy tillarning leksikasi va grammatikasiga oid o‘zidan bir qator qimmatli ma’lumotlar va manbalar qoldirgan Abu Hayyon o‘zining asarlaridan birida quyidagi fikrlarni aytib o‘tadi: “Har bir tilni bilish, uch narsani o‘zlashtirish bilan hosil qilinadi. Birinchisi: har bir so‘z ma’nosini aniqlab bilish. Bu qism “lug‘atshunoslik” deb ataladi. Ikkinchisi: so‘zlarning ayrim-ayrim hollardagi xususiyatlarini o‘rganish. Bu qism “ilmi sarf” deb yuritiladi. Uchinchisi so‘zlarning bir-biriga bog‘lanishiga doir xususiyatlarini o‘rganish. Bu qism arabcha “ilmi nahv” deyiladi.”²⁶ Bundan anglashiladiki, ikki tilni taqqoslab tadqiq etishda, hozirgi holatiga kelguniga qadar bo‘lgan tarixiy taraqqiyotini belgilashda, “ilmi sarf” (morfologiya) hamda “ilmi nahv” (sintaksis)ni o‘rganishda lug‘atshunoslik, ya’ni tillarning leksikoni birlamchi omildir. Shu bois ham o‘rta

²⁶ Saidov Y. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Buxoro, 2019, – B.78.

asrlarda va undan keyingi davrlarda ham turkiy tillar oilasidagi tillarni bir-biriga va mazkur tillarni boshqa til oilasidagi tillar, jumladan, arab, fors tillariga solishtirilgan holda bir qancha lugʻatlar tuzilgan. Bu lugʻatlarda mavjud tillarning nafaqat leksik tahlili, balki fonetik, grammatik analizi ham atroflicha yoritilgan. Shulardan biri Mahmud az-Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” deb nomlangan arabcha-forscha-turkcha lugʻatdir. Asar oʻsha davr arab tilining amalda mavjud boʻlgan barcha soʻz va iboralarni oʻzida aks ettirgan. Bu soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi va etimologiyasi tegishli darajada batafsil sharhlangan. Mazkur asardagi soʻzlar arabcha, forscha va turkiychada oʻzaro jadval asosida bir-biriga solishtirilgan. Asardagi ayrim arabiy soʻzlarga nazar tashlaydigan boʻlsak, ularning baʼzilari turkiy tildagi, baʼzilari ham turkiy, ham forsiy tildagi muqobili yoʻqligini va mazkur tillarda ham xuddi shunday nomlar bilan atalganligini koʻzga tashlanadi. Lugʻatda ismlar esa tematik tamoyil asosida vaqt nomlari, osmon jismlari nomlari, tabiat hodisalari nomlari, metal va minerallar nomlari, aloqa yoʻllari nomlari, suv bilan bogʻliq boʻlgan nomlar, oʻsimlik nomlari kabi guruhlarga boʻlinib, maʼnolari izohlangan.

Shuningdek, Jamoliddin Abu Muhammad Abdulahad Turkiyning “Kitobul bulgʻatul-mishtaqori lugʻatit turk val qifchoq” (Turkiy va qipchoq tilini bilishni istaganlar uchun qoʻllanma, XIV) lugʻati ham turkiy tilli xalqlar tarixi, madaniyati, urf-odatlarini oʻrganishda muhim manbalardan biri sanaladi²⁷. Ushbu lugʻat juda kam nusxada, qoʻlyozma shakli Parij milliy kutubxonasida saqlanadi. Keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, asarning arabcha matni qora, turkiy soʻzlar esa qizil siyohda yozilgan. Asarning dastlabki ikki bobi diniy tushunchalar: Xudo, osmon, yer, uning osti va ustida mavjud boʻlgan mavjudotlar tavsifiga bagʻishlangan. Yuqorida keltirilgan lugʻatlarda boʻlgani kabi ushbu asarda ham milliy madaniy tushunchalar emas, diniy eʼtiqod bilan bogʻliq qarashlar, tasavvurlar ustunlik qiladi.

Tilning, shu jumladan, oʻzbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tadqiq etishda boshqa qardosh turkiy tillarning manbalari va materiallari katta ahamiyat

²⁷ Амонтурдиев Н.Р. Сурхондарё этрографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Термиз, 2021, - Б. 33.

kasb etadi. Negaki tarixiy taraqqiyot jarayonida bir turkiy tilda arxaiklashgan, tamomila iste'moldan chiqqan shakl boshqa turkiy tillarda saqlanib qolingan bo'lishi mumkin. Mazkur saqlanib qolingan shaklga asoslangan holda uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini va yo'lini aniqlash imkoni mavjud bo'ladi. Aniq bir til tarixini boshqa bir qardosh tillar tarix bilan solishtirib o'rganish qiyosiy-tarixiy grammatikaning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Jahon tillarini bir-biriga qiyoslab o'rganish va tadqiq qilish XVIII asrning birinchi yarmidan yuzaga kela boshladi. Yer yuzidagi o'zaro qarindosh tillarni, ya'ni genetik tarafdin bir bobo tildan tarqalgan bir-biriga bog'liq tillarni fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini qiyoslab tadqiq qilish, bir jihatdan, har bir tilning qaysi bobo tildan tarqalganini va qaysi tillar bilan o'xshash mushtarak xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashga urinishni yuzaga keltirgan bo'lsa, ikkinchi jihatdan, ularning tarixiy taraqqiyot bosqichini va hozirgi holatiga kelguniga qadar ro'y bergan o'zgarishlarni belgilash, shuningdek, komparativistika, ya'ni qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi.

2. Bir til oilasiga mansub turkiy tillarning rivojlanish bosqichlari va qonuniyatlarini o'rganish, ularni umumiyashtirish hamda solishtirib tadqiq etish asosan qiyosiy-tarixiy metod asosida amalga oshiriladi. Bu esa mazkur til oilasiga mansub barcha tillar uchun asos til, ya'ni qadimgi turkiy tildan alohida ajralib chiqqan, mustaqil qardosh tillarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq va atroflicha o'rganishga xizmat qiladi.

3. O'zbek tili va turk tillarini solishtirib o'rganishga doir bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu ikki qardosh tilni leksik-semantik, funksional, grammatik va sistem-struktur jihatdan chuqurroq tadqiq qilish hamda hozirgi kun nuqtayi nazaridan qiyoslab o'rganish tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

4. Tillarni, xususan, o'zbek va turk tillarini qiyoslab o'rganishda tilning leksik fondi va u asosida yuzaga kelgan lug'atlar muhim ahamiyat kasb etadi. Til

tarixidan ma'lumki, tilshunoslik tarixi leksikografiyaning yuzaga kelishi va shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Negaki, tilning rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy aloqalarning kengayishi natijasida yuzaga kelgan tildagi o'zgarishlar, eng avvalo, tilning leksik fondida namoyon bo'ladi va lug'atlarda o'z ifodasini topadi. O'zbek tilshunosligi tarixida ham tillar bir-biriga solishtirilgan holda bir qator lug'atlar yaratilgan bo'lib, ularning orasida Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarida alohida ahamiyatga ega.

II BOB. O‘ZBEK VA TURK TILLARI LEKSIKASINING FONETIK, MORFOLOGIK O‘ZGARISHLARI

2.1. O‘zbek va turk tillari leksikasidagi fonetik farqlar

Qiyosiy tilshunoslikda qiyoslanayotgan tillarning tovushlar tizimi – fonetik qurilishi qiyoslashning bosh mezoni bo‘lmasa ham, uning eng muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Chunki kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqa-aralashuvining asosi bo‘lgan so‘z nutq tovushlaridan tarkib topadi va ma‘no kasb etadi. Til vositasida har qanday ijtimoiy aloqa nutq jarayonida namoyon bo‘ladi²⁸. Mazkur jarayon esa aloqa-aralashuv vakillari hisoblangan turli til egalarida turlicha bo‘ladi. Negaki har bir til egasining tovushlarni talaffuz etishi, nutq artikulyatsiyasi, ya‘ni nutq tovushlarining yuzaga kelish jarayoni tomonidan har xil yuzaga chiqadi. Bu esa shaxsning fizik, fiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda psixik jihatlari bilan ham bog‘liq omil hisoblanadi.

Tillarning tarixiy rivojidadagi va ikki til qiyosidagi asosiy farqlar dastlab ularning fonetik-fonologik sathida namoyon bo‘ladi. Shu jumladan, qiyoslanayotgan ikki til: o‘zbek va turk tillari o‘rtasida fonetik jihatdan bir qator farqli xususiyatlar mavjud bo‘lib, ularning eng asosiy jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Eng avvalo, o‘zbek va turk tillari fonemalar, ya‘ni tovushlar miqdori jihatidan bir xil (ikki til alifbosida ham 29 ta fonema mavjud) bo‘lsa-da, unli fonema miqdori va xususiyatlari jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Negaki, o‘zbek adabiy tilida olti unli fonema qabul qilingan, turkiy adabiy tilida esa ularning soni sakkiztadir. Bu borada shuni ta‘kidlash joizki, o‘zbek shevalarida bir qator unli fonemlar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlarida unlilarning miqdori o‘ndan ziyoddir. Hozirgi o‘zbek adabiy tili alifbosida oltita unli tovush qabul qilingan bo‘lishiga qaramay, talaffuzda va shevalarda qolgan unlilarning o‘rni ancha sezilib turadi. Binobarin, *qara*, *qari*, *qattiq* kabi so‘zlarda o‘zbek adabiy tilida old qator

²⁸ Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. –Тошкент: Фан, 2009, – Б.25.

unli hisoblangan a, i unililari talaffuzda orqa qator unli sifatida aytiladi: *qara, qari, qattiq* kabi bir qancha soʻzlarda orqa qator unli sifatida talaffuz qilinadi. Tilak, bilak kabi soʻzlarda esa a tovushi aynan oʻz holicha, yaʼni old qator unli sifatida yumshoq talaffuz etiladi: *tilâk, bilâk*. Shu bilan birga *qoʻl, qoʻr* soʻzlaridagi oʻ tovushi bilan *koʻl, koʻr* soʻzlaridagi oʻ tovushi talaffuz qilinishi bilan bir-biridan farq qiladi. Dastlabki soʻzlarda bu tovush orqa qator qattiq (*qol, qor*) unli sifatida aytilsa, keying soʻzlar juftligida esa old qator yumshoq (*qöl, kör*) unli sifatida talaffuz etiladi²⁹. Mazkur holat esa turk adabiy tilida mavjud unli fonemalarning ayrimlari oʻzbek alifbosida mavjud boʻlmasa-da, talaffuzda va shevalarda saqlanib qolinganini koʻrsatadi.

Shuningdek, bu ikki adabiy til **singarmonizm** qonuniyatlari (unlilar uygʻunlashuvi) jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Koʻp boʻgʻinli soʻzlar tarkibidagi unli tovushlarning bir-biriga uygʻunlashuvi turkiy tillarda tarixiy hodisa boʻlib, tarixiy manbalarga koʻra qadimgi turkiy tilda ham soʻzning birinchi boʻginidagi unlilarning sifatiga koʻra keyingi boʻgʻindagi unlilar asli qanday boʻlishiga qaramasdan oʻz qiyofasini oʻzgartirgan, sifat jihatdan birinchi boʻgʻindagi unli tovushga moslashgan³⁰. Bu hodisa esa unli tovushlar uygʻunligi, yaʼni singarmonizm, turk tilida esa *Ünlü Uyumu* deb yuritiladi. Biroq hozirgi oʻzbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyatiga koʻp oʻrinda amal qilinmaydi (ayrim shevalardan tashqari), ammo singarmonizm hodisasi hozirgi turkiy adabiy tilida anchagina yetakchi oʻrinda turadi. Negaki turk tilidagi 8 ta unli fonema ikki guruhga: qalin (*kalin ünlüler: a, ı, o, u*) va ingichka (*ince ünlüler: e, i, ö, ü*) unlilarga boʻlinganligi unlilar moslashuvining ustuvor ekanligini koʻrsatadi. Aynan turk tili misolida singarmonizmning ikkita koʻrinishini ham koʻrishimiz mumkin. Tanglay va lab uygʻunligi turk tilida *büyük ünlü uyumu* (katta unli uygʻunligi) hamda *küçük ünlü uyumu* (kichik unli uygʻunligi) nomlari bilan yuritiladi. Yana bir muhim jihati shundaki, turk tilida singarmonizm hodisasi unlilar bilan bir qatorda undoshlar tizimida ham amal qiladi.

²⁹ Содиков К, Хамидов Х, Худойберганова З, Аминов Л. Турк тили [Матн]: ўқув қўлланма. – Тошкент, – Б. 8

³⁰ Абдурашулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009, – Б.35.

Singarmonizmning birinchi turi – *büyük ünlü uyumu* turkiy adabiy tilning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bir soʻzdagi va soʻz bilan qoʻshimchadagi unllarning qalinlik-ingichkalik jihatidan bir-biriga uygʻun boʻlishi, yaʼni soʻzning birinchi boʻgʻinidagi unli qalin unli (*a, ı, o, u*) boʻlsa, keyingi bogʻinlaridagi unllilar ham qalin boʻladi: *boyunduruk, burun, kırlangiç, dalga; balım, avım, parasız, dalgalı, bađlı* kabi yoki aksincha, ingichka unli (*e, i, ö, ü*) boʻlsa, keyingi boʻgʻinidagi unllilar ham shunga binoan ingichka boʻlishi (*vergi, gelincik, sözlük, gözlük; evim, elim, deđerli, ilgeksiz*) *büyük ünlü uyumu* ni yuzaga keltiradi. Turk tilidagi singlarmonizmning bu turi haqida quyidagi jadvalda batafsil keltirilgan:

1-jadval

Büyük ünlü uyumu		
<i>Kalınlık uyumu (qalinligiga koʻra uygʻunlashishi)</i>		
Birinchi boʻgʻinda	Keyingi bogʻinlarda	Misollar
a dan keyin	a, ı yoki ı, a	Akşam (oqshom), altın (oltin)
ı dan keyin	a, ı yoki ı, a	Karanlık (qorongʻu), ılık (iliq)
o dan keyin	a, u yoki u, a	Ođlan (bola), dođu (sharq)
u dan keyin	a, u yoki u, a	Dudak (dudoq, lab), uyku (uyqu)
<i>İncelik uyumu (yumshoqligiga koʻra uygʻunlashishi)</i>		
Birinchi boʻgʻinda	Keyingi bogʻinlarda	Misollar
e dan keyin	e, i yoki i, e	Kelebek (kapalak), deneyim (tajriba)
i dan keyin	e, i yoki i, e	Çiftçi (dehqon), bilezik (bilaguzuk)
ö dan keyin	e, ü yoki ü, e	Önem (muhim), görüntü (koʻrinish)
ü dan keyin	e, ü yoki ü, e	Yüzük (uzuk), ünlem (undov)

1-jadval: turk tilida singlarmonizm (tanglay uygʻunligi)

Küçük ünlü uyumu. Turk tili fonetikasida kichik unli uyg'unligi (lab uyg'unligi) deb nomlangan singarmonizmning ushbu turining ikki xil xususiyati bor:

a) agar bir soʻzning birinchi boʻgʻinida *düz ünlü* (tekis unli – a,e,i,i) boʻlsa, undan keyin kelgan boʻgʻinlarda ham shunga mos ravishda tekis unli ishtirok etadi. Masalan: *şimdiden, eskiden, ayakkabı, kırlangıç, anlama, dinleme, gelecek* kabi;

b) agar bir soʻzning birinchi boʻgʻinida *yuvarlak ünlü* (yumaloq unli – o, ö, u, ü) qatnashgan boʻlsa, soʻzning undan keyin kelgan birinchi boʻgʻinida *dar yuvarlak ünlü*, yaʼni tor yumaloq unli (u, ü) yoki geniş düz ünlü, yaʼni keng tekis unli (a,e) keladi: *okuma, boyunuzun, sözlük, özlemek, görüşmek, burun*. Aniqroq aytganda, mazkur qonun-qoida asosan soʻzning oxirgi boʻgʻinida kelgan unliga bogʻliq boʻladi. Agar oxirgi boʻgʻinda kelgan unli lablangan boʻlsa, qoʻshimchada ishtirok etgan unli ham lablanadi. Agar oxirgi unli lablanmagan boʻlsa, qoʻshimchadagi unli ham lablanmagan unli boʻladi: *evin, öncelik, okulun, gözlük, bahçenin, öğretmenin*.

Yuqorida koʻrib turganingizdek, unlilar garmoniyasi turk tilining asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi va tilning ohangdorligini taʼminlashga xizmat qiladi. Ammo hozirgi oʻzbek adabiy tilida singarmonizmning mavjud emasligi, uning turk tili bilan farqli xususiyatlari borligini hamda oʻzbek adabiy tilining singarmonizmlashmagan oʻzbek dialektlari asosida tarkib topganligini ham koʻrsatadi.

Ikki qardosh tilning yana bir muhim farqi shundaki, hoziri oʻzbek adabiy tili imlosida bevosita **morfologik tamoyil** ustunlik qilsa, hozirgi turkiy adabiy tilida esa **fonetik prinsip** yetakchilik qiladi³¹. Misol uchun, orfoepik nuqtayi nazardan *bordi, keldi, ketti, aytti, yetti, qochti* deb talaffuz qilsak-da, orfografik jihatdan bu soʻzlardagi oʻtgan zamon -di qoʻshimchasi bir xil shaklda yoziladi: *bordi, keldi, ketdi, aytdi, yetdi, qochdi* kabi. Ammo turkiy adabiy tilida esa eski oʻzbek tilida

³¹ Содиков К, Хамидов Х, Худойберганова З, Аминов Л. Турк тили [Матн]: ўқув қўлланма. – Тошкент, – Б.

mavjud bo'lgani kabi qanday talaffuz qilinsa, yozuvda ham xuddi shunday *vardi, geldi, gitti, yetti, kaçtı* kabi yozilishi bevosita yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Bulardan tashqari, o'zbek va turk tillari leksikasida bir qator fonetik jihatdan farqliliklar mavjud. Misol uchun, hozirgi turkiy adabiy tili alifbosida o'zbek tilida bor bo'lganidek, *q va x* undoshlari mavjud emas. Ya'ni turk tili leksikasida *q* tovushi bilan ifodalanadigan biror-bir so'z yo'q, o'zbek tilidagi chuqur til orqa undoshi *x* turk tilida bo'g'iz undoshi bo'lgan *h* bilan ifodalanadi va bu so'zlar yumshoq holatda talaffuz etiladi: *xabar – haber*.

So'z boshida o'zbek tilida jarangsiz til orqa tovushi *k* bilan ifodalangan so'zlar turk tilida jarangli *g* tovushi shaklida aytiladi va shu tarzda yoziladi: *kun – gün, ko 'k – gök, kuz – güz, ko 'z – göz, ko 'l – göl, kel – gel, ket – git* kabi;

O'zbek so'zlardagi so'z boshida kelgan *m* tovushi o'rnida esa ko'pincha turk tilida *b* undoshi qo'llaniladi. Jumladan, *men – ben, minmoq – binmek, ming – bin, million – billion* kabi bir qator so'zlarda aynan yozuvda ham, talaffuzda ham *b* tovushiga aylanganini ko'rishimiz mumkin;

Shuningdek, o'zbek tilida jarangsiz til oldi undoshi *t* qo'llanilgan so'zlarning turkiy adabiy tilda jarangli til oldi undoshi *d* holida ifodalanishi ham ko'zga tashlanadi: *til – dil, tor – dar, tog' – dağ, to 'g'ri – doğru, tish – diş, tuzdi – düzdü, to 'qqiz – dokuz* kabi.

O'zbek tilida mavjud til orqa jarangli sonor tovushi bo'lgan *ng* undoshining o'rnida esa turk adabiy tilida *n* tovushi qo'llaniladi. Misol uchun, *ko 'ngil – gönül, dengiz – deniz, sening – senin, uning – onun, ming – bin, kelsangiz – gelseniz* kabi so'zlarda *ng* tovushining o'rniga *n* tovushi ifodalanayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ammo bu sonor tovush *ng* turk tilida umuman iste'moldan chiqib ketdi degani emas. Mazkur tovush ayrim turk shevalarida saqlab qolingan.

Ikki qardosh til leksikasidagi fonetik tafovutlarni qo'sh undosh bilan ifodalanadigan so'zlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbek adabiy tilida qo'sh undosh bilan aytiladigan ayrim so'zlar, jumladan, son so'z turkumiga oid leksemalar turk tilida qo'sh undosh tarzida emas, bir undosh holatida talaffuz

etiladi va shunday yoziladi: *ikki – iki, yetti – yedi, sakkiz – sekiz, to‘qqiz – dokuz, o‘ttiz – otuz* kabi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilida oxirida undosh bilan ifodalangan so‘zlarning oxirgi tovushi turkchada tushib qolish o‘rinlari ham mavjud. Jumladan, *sariq – sari, achchiq – aci, qattiq – katı* kabi so‘zlar oxiridagi q chuqur til orqa undoshining turkcha so‘zlarda tushib qolishini turk alifbosida q undoshining mavjud emasligi bilan ham, shuningdek, tarixiy taraqqiyot natijasi sifatida ham baholashimiz mumkin. Aynan qadimgi turkiy tilda eshik ma’nosini ifodalangan *kapık* so‘zining hozirgi turkiy adabiy tilda *kapı* shaklida qo‘llanilishi tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan deb hisoblasak bo‘ladi.

Ikki til leksikasining fonetik farqlaridan yana biri shuki, ayrim so‘zlar, jumladan, *bo‘lmoq* fe’li turk tilida birinchi tovush b undoshi tushirilgan holda *olmak* shaklida aytilishi va shu kabi yozilishidir. O‘zbek tilidagi *hovuch* so‘zi ham turkchada *avuç* tarzida ifodalanishi ham yuqoridagi fikrning tasdig‘idir: *bir hovuch bodom yedim – bir avuç badem yedim*.

Shuningdek, o‘zbek tilida g‘ tovushi bilan boshlanadigan bir qator so‘zlar mavjud bo‘lsa-da, turk tilida biror bir so‘z g‘ tovushi bilan boshlanmaydi hamda bu tovush qaysi unlilar bilan yonma-yon kelishiga qarab g‘ yoki y holatida talaffuz etiladi yoki umuman talaffuzda tushib qoladi. Jumladan, *a, ı, o, u, ö* unlisidan keyin kelgan g‘ tovushi talaffuzda ba’zan bilinar-bilinmas aytilsa, ba’zan talaffuz etilmaydi: *ağaç* (daraxt) – [a: aç], *öğretmen* (o‘qituvchi) – [ö: retmen] kabi. Biroq *e, i, ü* harflaridan so‘ng kelsa, y holida talaffuz etiladi: *iğne* (igna) – [iyne], *düğün* (to‘y) – [duyun].

Bir til oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek va turk tillari leksikasida fonetik tomondan o‘xshashliklar bilan bir qatorda yuqoridagi kabi bir qancha tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi farqliliklar ikki tilning tarixiy taraqqiyot bosqichi va o‘zaro ichki fonetik xususiyatlari bilan bo‘g‘liq. Har ikkala tilning o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirilgan so‘zlar misolida ham yorqinroq kuzatishimiz mumkin:

Qadimgi turkiy Tilda	Hozirgi turk adabiy tilida	Hozirgi o‘zbek adabiy tilida
eb-ew edgü adıġ yebäg quduġ-quduġ tewey qon-qoy qatun terin-derin öküz awuç yaġmur ögrät köläkä ikiz	ev [ew] iyi ayı eġer kuyu deve [dewe] koyun kadın derin öküz avuç [awuç] yaġmur [ya:mur] öġret [öyret] gölge ikiz	uy [üy] ezgu [ezgü] ayik [ayıq] egar [egär] kuduk [quduq] tuya [tüyä] kuy [qoy] xotin [xatin] teran [terän] xo‘kiz [hökiz] xovuch [häwiç] yomg‘ir [yamġır] o‘rgat [örgät] ko‘lanka [kölänkä] egiz [egiz, egizak]

2-jadval: ayrim qadimgi turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek va turk tilidagi shakli

2.2. O‘zbek va turk tillari leksikasidagi morfologik farqlar xususida

O‘zbek va turk tili ko‘p tomonlama, jumladan, morfologik jihatdan bir-biriga o‘xshash til hisoblanishiga qaramasdan ushbu ikki til leksikasida bir qancha morfologik farqliliklar ham mavjud. Turk tilshunosligida so‘z turkumlari morfologiya bilan sinonim bo‘lgan bir atama sifatida qaraladi, chunki ushbu tilshunoslik bo‘limi shakllar tizimi, morfologik kategoriyalar, so‘zlarning grammatik turkumlarga bo‘linishi, so‘z shaklining yasalish yo‘llari va vositalarini o‘rganuvchi morfologiya bilan vazifadosh hisoblanadi. Morfologiya “so‘z turkumlari” dan ancha keng ma’nodagi grammatik tushuncha bo‘lib, unda so‘zning

yasalishi, uning o'zagi, negizi va oladigan qo'shimchalariga doir qator mavzular ko'rib chiqiladi.

So'z yasovchi qo'shimchalar yangi leksik ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalardir. Masalan, *ishla, ishchi, ishchan, ishli, ishsiz* kabi so'zlarda *ish* o'zagidan *-la, -chi, -chan, -li, -siz* so'z yasovchi qo'shimchalari yordamida *ot, sifat, fe'l* turkumlariga oid yangi so'zlar yasalgan. Shakl yasovchi qo'shimchalar yangi so'z yasamaydigan, so'zlarning grammatik formalarini shakllantiradigan va turli grammatik ma'nolarni anglatadigan qo'shimchalardir. Masalan, *talabalarimizning* so'zida *-lar, -imiz, -ning* qo'shimchalari, *kelmading* so'zida *-ma, -di, -ng* qo'shimchalari qatnashgan bo'lib, ulardagi *-lar* ko'plik ma'nosini, *-imiz* I shaxs ko'plik ma'nosini, *-ning* qaratqich kelishigi ma'nosini, *-ma* fe'lning inkor ma'nosini, *-di* fe'lning o'tgan zamon ma'nosini, *-ng* fe'lning shaxs-son (II shaxs) ma'nosini ifodalaydi.

O'zbek tilida qo'shimchalar, asosan, so'z oxirida qo'shilishiga qaramasdan ayrim so'z yasovchi old qo'shimchalarning faol qo'llanilish holatlari ham kuzatiladi. Masalan, otdan sifat yasovchi ushbu qo'shimchalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: *no+o'rin, be+farq, ba+obro', ser+daromad, ba+havo*. Turk tilida esa bunday holatlar uchramaydi. Boshqa tillarda, xususan, o'zbek tilida kam bo'lsa-da, kuzatiladigan old qo'shimchalar ushbu tilda mavjud emas. Garchi *ap-açık, büs-bütün, çepe-çevre, düm-düz, tam-takır* kabi ayrim so'zlarda old qo'shimcha tasavvurini beruvchi birliklar mavjud. Lekin bular old qo'shimcha emas, balki tegishli so'zlarning ma'nosini kuchaytirish uchun keltirilgan tovush birikmalaridir.

Otlar bir qancha tillarda bo'lgani kabi turk tilida ham so'z turkumlari orasida eng yirigi hisoblanadi. Turk tilida so'z yasalish xususiyati eng ko'p otlarga xosdir. Buni fe'l+ot, ot+fe'l shaklidagi so'z yasalishlarida ham yaqqol kuzatish mumkin: *tamir+ci (usta), ecza+cı (dorixonachi), düşün+ce (tushuncha), kaç+ak (qochoq), böl+ge (hudud), sil+gi (o'chirg'ich), bas+kın (bosqin)* kabi.

Ma'lumki, o'zbek morfologiyasida so'z turkumlari 3 ga bo'linadi: *mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar va alohida olingan so'zlar*. Shu o'rinda, mustaqil so'zlar

o‘zbek tilshunosligida 6 qismga bo‘linadi: *ot, sifat, son, olmosh, ravish* va *fe’l*. Turk tilshunosligida esa so‘zlar ma’no va vazifasiga ko‘ra, asosan, uch guruhga bo‘linadi: *ismlar, fe’llar* va *yordamchi so‘zlar*. Shu o‘rinda, ismlarning o‘zi ham to‘rt kichik guruhni o‘z ichiga oladi: *ot (isim), sifat (sifat), olmosh (zamid), ravish (zarf)*. Bu uch yirik turkumdan otlar va fe’llar ma’no anglatuvchi so‘z turkumi hisoblanadi. O‘zbek morfologiyasida so‘zlar umumiy yoki farqli belgilari umumlashtirilgan holda turkumlarga ajratib o‘rganiladi. So‘z leksikologiyada leksik birlik sifatida, morfologiyada esa grammatik birlik sifatida o‘rganiladi. So‘zning borliqdagi narsa, belgi harakat va voqea-hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalashi uning leksik ma’nosi hisoblanadi. Leksik ma’no so‘zning lug‘aviy (asos, o‘zak, negiz) qismi orqali anglashiladi. So‘zning biror turkumga mansubligini ko‘rsatuvchi umumiy kategorial ma’no va so‘zning ma’lum bir grammatik shaklini ifodalaydigan ma’no grammatik ma’no deyiladi³².

Turk tilining morfologiyasiga kelsak, u o‘zbek tili singari *agglyutinativ til*, ya’ni so‘z oxiriga qo‘shimcha qo‘shish yo‘li bilan so‘z yasaluvchi til bo‘lganligi sababli so‘z yasalishi va uning o‘zgarishida o‘zak, negiz, qo‘shimcha va ularning birlashishi boshqa tillardan ko‘ra ancha farqli hamda o‘ziga xosdir. Turk tilida so‘z o‘zagining o‘zgarmasligi ushbu tilning muhim morfologik xususiyatidir. O‘zakning o‘zgarmasligi natijasida so‘z yuz yillar o‘tsa-da, o‘z ma’nosini saqlab qoladi. Buni besh-olti asr oldin turkiy tilda yozilgan asarning hozirgi vaqtda ham qiyinchiliksiz o‘qib, tushunilishi mumkinligida ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari turk tilida so‘z turkumlari orasida bog‘liqlik, sezuvchanlik mavjud bo‘lib, so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansub ekanligini faqat gap ichida egallab turgan o‘rniga ko‘ra aniqlash mumkin. O‘zbek tilida ham ayrim turli so‘z turkumlariga oid bo‘lgan shakldosh so‘zlar mavjud bo‘lib, ular gapdagi vazifasiga ko‘ra qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanligi aniqlanadi. Lekin ushbu holatning turk tili morfologiyasida ko‘p kuzatilishi o‘zbek morfologiyasi va turk morfologiyasi o‘rtasidagi farqlarga bir misol bo‘la oladi. Turk tilida bir so‘z bir nechta so‘z turkumiga mansub bo‘la olishini quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin. Tilda

³² Hozirgi o‘zbek adabiy tili// Namangan. –T., 2022. – B.15.

sifat deb hisoblangan *iyi* (yaxshi), *kötü* (yomon), *güzel* (go‘zal, chiroyli, ajoyib), *çirkin* (xunuk, chirkin), *büyük* (katta, buyuk), *küçük* (kichik) so‘zlari nutqda bajaradigan vazifasiga ko‘ra *ot*, *ravish*, *undov* so‘z bo‘lishi ham mumkin. Gap ichida bir otdan oldin kelmagan va uning belgisini bildirmagan so‘zni sifat deb atab bo‘lmaydi. Masalan, *iyi* so‘zining sifat bo‘lishi uchun uning *iyi gun* (yaxshi kun) ko‘rinishida birikma ichida bir otning belgisini bildirib, uni aniqlab kelishi kerak bo‘ladi. Masalan, turkcha *güzel* (go‘zal) so‘zining qaysi so‘z turkumiga mansubligini aniqlash uchun uni birikma yoki gap ichida ko‘rib chiqish kerak: *dün ziyafette bir güzelle tanıştım* – (Kecha ziyofatda bir go‘zal (qiz, ayol) bilan tanishdim). *O geçmişte güzel günleri yaşamış* (*güzel* – sifat) – (U ilgari go‘zal (yaxshi, baxtli) kunlarni boshidan kechirgan). *Ayşe Rusça’yı güzel konuşuyor* (*güzel* – ravish) – (Oysha ruschada yaxshi gapiradi).

Turk tilida ismlarni ma’no va vazifalaridan tashqari nomlari, so‘z tarkibi, boshqacha aytganda, ularni morfologik jihatdan mavjud farqlariga ko‘ra tasniflash orqali to‘rt guruhga bo‘lish mumkin. Bular:

1. Sodda ismlar.
2. Yasama ismlar.
3. Qoliplashgan ismlar.
4. Qo‘shma ismlar.

Ism yasovchi qo‘shimchalar ma’no jihatidan ma’lum vazifalarni bajarganligi sababli, o‘zak va yangi hosil bo‘lgan ism o‘rtasidagi semantik munosabat qo‘shimchada mavjud vazifa bilan davom etadi. Biroq olingan so‘z eskisidan farqli ravishda yangi ma’noga ega bo‘ladi. Yasama ismlar ism asosli so‘zlardan yoki fe’llardan ism hosil qiluvchi qo‘shimchalar yordamida yasaladi. Turk tilida shunday shakllangan ismlar va shu tarzda ism hosil qiluvchi ko‘plab qo‘shimchalar mavjud³³. Ushbu guruhdagi ismlar *-ca*, *-ce*, *-cu*, *-cü*, *-cak*, *cek*, *-ci*, *ci*, *-cü*, *cu*, *-cik*, *-cık*, *-cil*, *-cil*, *-daş*, *-dirik*, *-dırık*, *-duruk*, *-dürük* *-agı*, *-a/ak*, *-ak*, *-lık*, *-lik*, *-luk*, *-lük* kabi turli qo‘shimchalar yordamida yasalib, turli ismlar hosil qiladi: *karaca*, *sivilce*, *Sapanca*, *Yenice*, *oyuncak*, *işçi*, *eczacı*, *dalgacı*, *inatçı*, *demirci*, *bademcik*,

³³ Korkmaz Z. Türkiye Türkçesi Grameri // Turk Dil Kurumu yayınları. Ankara. –T., 2009. – 395 b.

tomurcuk, balikçı, güvercin, ııldak, çekirdek, yoldaş, boyunduruk, topaç, buzağı, topalak, yaşıt, atak, yazlık, yolluk, gürültü, tıktırtı kabi.

*Genç kızlığa hazırlanışında, geçişinde, dahası da var, **anaçlığını** buluşunda her şey her şey, içgüdülerine kalmıştı.*

*Evin erkek çocukları taşlığa inmiş **topaç** çeviriyorlardı. **Adamcağıza** bir durgunluktu çöktü.*

Türk tilining qo‘shimcha qo‘shish va so‘z qo‘shishdan tashqari so‘z yasash usullaridan yana biri qoliplashishdir. Qoliplashish ma‘lum qoidalarga bog‘liq bo‘lgan til hodisasi emas. Masalan, ba‘zida lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha so‘z yasovchi qo‘shimcha sifatida qo‘llanishi yoki so‘z yasovchi qo‘shimcha o‘zi birlashgan so‘z bilan yangi grammatik shakl hosil qilish holatlari kuzatiladi. Shu jumladan, eski davrlardan o‘tib kelgan ayrim qo‘shimchalar o‘z funksiyasini yo‘qotgan arxaik shakllar sifatida davom etayotganini ham ta‘kidlash joiz. Shu boisdan qoliplashish hodisasi har qanday so‘zga qo‘shilgan lug‘aviy shakl yasovchi yoki so‘z yasovchi qo‘shimchanning qo‘shimcha qo‘shish yo‘li bilan yasalgan so‘zlardan farqli ravishda asos va qo‘shimcha o‘rtasidagi bog‘liqlikni yo‘qotib qoliplashib qolishi hisoblanadi: *yüz+de* (foiz), *göz+de* (aziz, suyukli), *sevgi+li* kabi so‘zlarda qo‘shimchalar o‘zining ma‘nosini yo‘qotgan holda qoliplashib qolgan. Qoliplashish hodisasining asosiy sababi doimiy o‘zgarish holatida bo‘lgan turk tili o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, ayrim grammatik elementlarning qo‘llanishi nuqtai nazaridan har doim ham o‘z tuzilishiga qat‘iy amal qilmaydigan moslashuvchanlikka egaligidadir.

Türk tili va shevalarida *-di, -dı, -du, -dü*, o‘tgan zamon qo‘shimchasidan yasalgan otlar kam uchraydi. Bular, asosan, ma‘noning o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan qo‘shma ot tipidagi stereotiplardir. *İmambayıldı* “zaytun yog‘li baqlajon do‘lmasi”, *külbastı* “pishirilgan suyaksiz go‘sh”, *şıpsevdi, zipçıktı* “hurmatsez, odobsiz” shular jumlasidandir. Ismlarda bunday qoliplashish hodisasi o‘zbek grammatikasida ko‘p kuzatilmaydi va bu ham turk tili va o‘zbek tili morfologiyasidagi farqlardan biri hisoblanadi.

Turk va o‘zbek tillarida sifatlarning bir xil ma’no ifoda etishiga qaramasdan diqqat qaratilishi kerak bo‘lgan ba’zi jihatlar ham yo‘q emas. Turk tilida sifatlari izohlanar ekan gapda otlarni aniqlab kelishi va otlarning ma’lum bir xususiyatini ifoda etishi aytiladi. Bu jihatdan o‘zbek tili bilan bir xil bo‘lishiga qaramasdan boshqa tomondan guruhlashda farqliliklar ham kuzatiladi. Masalan, turk olimasi Zeynep Korkmaz o‘zining “Turkiye Türkçesi Grameri” (“Turkiya turkchasi grammatikasi”) asarida shunday yozadi: “...ba’zi morfologiyaga oid kitoblarda sifatlari ham ot yoki “Attributiv va aniqlovchi ot” ekanligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, sifatlari ot so‘z turkumiga oid bo‘lgani uchun ular, albatta, ma’lum ma’noda ot sanaladi. Biroq ularning “ot” yoki “sifat” deb nomlanishi qo‘llanish usuliga bog‘liq bo‘lganligi sababli ular o‘rtasida muhim farq bor³⁴”.

Turk va o‘zbek morfologiyasidagi farqliliklar haqida gapirar ekanmiz, quyidagi jihatlar ham alohida e’tibor tortadi. O‘zbek tilidagi son so‘z turkumi turk tilida *son sifatsoshi* (*sayı sıfatı*) deb ataladi va **bir** so‘zi son sifatsoshi vazifasida asliy sifatlardan oldin kelsa-da, noaniq sifatsosh vazifasida kelganda asliy sifatlardan keyin o‘rin egallaydi:

Kendisini tanımadığım, orta boylu, güzel *bir* hanım (*o‘zi notanish, o‘rta bo‘yli, go‘zal bir xonim*).

Çalışkan, becerikli *bir* öğrenci (*harakatchan, qobiliyatli bir o‘quvchi*) kabi.

Otlari va sifatlari orasidagi o‘tish xususiyatiga ko‘ra, otlari boshqa ot oldida sifatslovchi vazifasida ham qo‘llanishi mumkin, lekin nisbiy sifats vazifasini bajaruvchi ot boshqa sifatlari kabi o‘zi bog‘langan otga xos biror sifatsni ko‘rsatishi shart. Sifats ifodalash uchun mos bo‘lmagan otlari sifatsdosh sifatsida qo‘llanilmaydi. Xususan, *-mak, -iş -uş, -gi -gu* kabi qo‘shimchalar orqali yasalgan otlari turk tilida sifatsdosh sifatsida qo‘llana olmaydi.

Otlari oldida sifatslovchi vazifasida qo‘llangan boshqa ot ba’zan *-dan, -den* chiqish kelishigi qo‘shimchasi (*çıkma durumu eki*) bilan ham bir tarkibda uchraydi: *açıktan savunma* (ochiq mudofaa), *ateşten gömlek* (olovdan tikilgan ko‘ylak), *ottan kulübe* (o‘tdan qilingan kulba), Ayşe terasta *tahtadan* iskemlede gözleri

³⁴ Korkmaz Z. Türkiye Türkçesi Grameri // Turk Dil Kurumu yayınları. Ankara. –T., 2009. – 395 b.

yeşilliklerde dinlenir kabilar. O‘zbek tilidan farqli ravishda turk tilidagi sifatlar o‘z ichida 3 qismga bo‘linadi:

I. Kelib chiqishiga ko‘ra.

II. Tuzilishiga ko‘ra.

III. Vazifasiga ko‘ra.

I. Sifatlar kelib chiqishiga ko‘ra tasniflanganda uch qismga bo‘linadi:

1. Turkcha asosli sifatlar.

2. Boshqa tildan kirgan sifatlar.

3. Kelib chiqishi aralash bo‘lgan sifatlar.

1. Borliq va predmet bir nechta sifatlovchi va aniqlovchi xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, sifatlar soni otlar sonidan ancha ko‘p, shuningdek, kelib chiqishi turkcha bo‘lgan sifatlar ham ancha ko‘p. Ulardan ba‘zilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri asosga aylangan sodda so‘zlardir. Lekin ularning ko‘pchiligi tuzilishiga ko‘ra yasama va qo‘shma sifatlar hisoblanadi.

2. Turk tiliga boshqa tillardan kirib o‘rnashib qolgan sifatlar tarixiy davrlarda madaniy aloqalar va umumiy islom sivilizatsiyasi natijasida *arab* va *fors* tillaridan yoki bugungi kungacha davom etayotgan turli munosabatlar va ta’sirlar orqali *fransuz*, *yunon*, *italyan*, *ingliz*, *ispan* kabi g‘arb tillaridan o‘tgan bo‘lib, ularning soni ham ancha yuqori hisoblanadi.

3. Kelib chiqishi aralash bo‘lgan sifatlar, odatda, arabcha ismga forscha qo‘shimcha qo‘shilishi bilan, forscha ismga arabcha qo‘shimcha qo‘shilishi yoki arab va forschacha ismga turkcha sifat yasovchi qo‘shimchani qo‘shilishi orqali yasalgan. Bularning ba‘zilari bugungi kunda faqat yozma asarlarda qolgan sifatlardir, ba‘zilari esa yangi turkcha ekvivalentlari bilan almashtirilgan sifatlar hisoblanadi. Ularning ko‘pchiligi bugungi kunda ham turkchalashgan shakl sifatida qo‘llanilmoqda.

II. Turk tilida sifatlar tuzilishiga ko‘ra 5 ga bo‘linadi:

1. Sodda.

2. Yasama.

3. Qo‘shma.

4. Kuchaytiruv sifatlari.

5. Soʻz birikmasidan hosil boʻlgan sifatlari.

1. *Sodda*. Bu turkumdagilar hech qanday yasovchi qoʻshimchasi boʻlmagan, tublashgan sodda sifatlardir: *acı* (badem), *ak* (saç), *cimri* (adam), *çıplak* (omuz), *çirkin* (surat), *dar* (etek), *derin* (nefes), *dinç* (yapı), *güzel* (yüz), *hazır* (elbise), *ince* (bel), *kuru* (nane), *küçük* (ev), *sıcak* (su), *uzun* (iş), *yeni* (haber) sifatlovchilaridagi aniqlovchi sifatlari bilan *bu* (gidiş), *şu* (işler), *o* (saygısızlık), *bir* (yıl), *iki* (ay), *üçer* (kişi), *hangi* (şiir) kabi sifatlovchilardagi aniqlovchi sifatlari ham shu jumlasidandir.

2. *Yasama sifatlari*. Otdan ot, sifati yoki otdan feʼl yasaydigan baʼzi qoʻshimchalar yordamida yasalgan sifatlari yasama sifatlari hisoblanadi. Ushbu sifati yasovchi qoʻshimchalarning baʼzilari koʻp funksional boʻlsa-da, ularning baʼzilari kamroq funksional yoki qadimgi davrlardagi shakllarning qoldiqlari sifati qolgan. Sifati hosil qiluvchi asosiy qoʻshimchalar: *-il, -ıl, -ul, -ül, -lik, -lık, -luk, -lük, -ci, -cı, -cu, -cü, -sız, -süz, -süz, -suz, -ca, -cık, -cuk, -cıl, -cul, -sı, -su, -(ı)msı, -(ı)msu, -(ı)mtırak, -şın, -man, -rak, -şar, -ar, -(ı)ncı, -(u)ncu, -sal, -î, -(a)k, --(ı)k, -(u)k, -gan, -agan, -ağan, -gın, -gun, -ma, -(ı)nç, -dık, -duk, -maz, -acak, -ıcı*.

3. Qoʻshma sifatlari bir nechta soʻzlarning qoʻshilib bir maʼno hosil qilish, maʼnosini saqlab qolish yoki oʻzgartirish natijasida hosil boʻlgan sifatlardir.

4. *Kuchaytiruv sifatlari* maʼnosi kuchaygan sifatlardir. Bu sifatlarni yasash uchun unli bilan tugagan sifati birinchi boʻgʻini oxiriga *m, p, r, s* undoshlaridan birini qoʻshish orqali hosil qilingan boʻgʻin soʻzning boshiga qoʻshiladi: *bembeyaz, kapkara, kaskati, kıpkızıl, koskocaman, sapsarı, simsıkı, tertemiz, upuzun, yemyeşil, yepyeni, yusyuvarylak* kabi. Birinchi boʻgʻini undosh bilan tugagan sifatlari uchun birinchi boʻgʻin oxiridagi undoshni *m, p, r, s* undoshlaridan biri bilan almashtirib, tuzilgan boʻgʻin soʻzning boshiga qoʻshiladi: *apaydınlık, apayrı, bomboş, dapdar, dümdüz, düpedüz, dosdoğru, ipince, kıpkırmızı, sapasağlam, simsıcak, simsıkı, sırlıklam, yamyassı* kabi.

5. Sifatlarning aksariyati tuzilish jihatdan maʼlum qoidalar doirasida birikuvchi turli soʻz birikmalaridan tuzilgan. Sifatlarni hosil qiluvchi asosiy soʻz birikmalari sifati soʻz birikmasi (*Sifati tamlaması*), otli soʻz birikmasi (*ad tamlaması*), sifati-feʼl

soʻz birikmasi (*Sifat-Fiil grubu*), takroriy birikmalar (*Tekrar grubu*) kabi bir qancha birikmalardan iborat.

III. Sifatlar vazifasiga koʻra ikki katta guruhga boʻlinadi:

1. Sifatlovchilar.

2. Aniqlovchilar.

Sifatlovchi sifatleri jonli va jonsiz mavjudotlarning rang, shakl, taʼm, hid, masofa, odat, qobiliyat va mahorat kabi turli tashqi va ichki xususiyatlarini ifodalovchi sifatlardir. Shaxs va narsalar bir-biriga oʻxshash yoki farq qiladigan koʻplab xususiyatlarga ega ekanligi sababli ularni tavsiflovchi koʻplab sifatlar ham mavjud. Darhaqiqat, shaxs yoki narsaning koʻp xususiyatga ega boʻlishi sifat ifodalovchi sifatlar sonini borliqdagi xususiyatlar sonidan bir necha barobar koʻpaytirgan. Shuning uchun sifatlovchi sifatleri toʻliq va har tomonlama tasniflash oson emas.

Aniqlovchi sifatlar sifatlovchilardan farqli oʻlaroq, shaxs yoki narsani sifatlovchi emas, balki koʻrsatish, aniqlash vazifasini bajaradigan sifatlardir. Bu funktsiya otlarga ishora qilish, raqam yoki miqdorni koʻrsatish sifatida ifodalanishi mumkin. Shunga koʻra, turk tilida aniqlovchi sifatlar sonli sifatlar, soʻroq sifatleri va noaniq sifatlar kabi bir qancha kichik guruhlarga boʻlinadi.

Yuqorida keltirib oʻtilgan maʼlumotlarga koʻra turk tilidagi sifat soʻz turkumi bilan oʻzbek morfologiyasidagi sifat soʻz turkumi oʻrtasida qanchalik farq borligini yaqqol koʻrish mumkin. Umumiy mazmun jihatdan bir-biriga yaqindek koʻringan soʻzlarga morfologik va grammatik jihatdan nazar tashlansa, bir qancha farqlarni koʻrish mumkin boʻladi. Morfologik sistemaning til birligi soʻz shakli ekani, morfologiya soʻz shakllari haqidagi taʼlimot ekani tilshunoslikka oid adabiyotlarda toʻgʻri qayd etilgan. Lekin bu til birligi va uning tarkibiy qismlariga xos xususiyatlar oʻzbek tilshunosligida toʻla va toʻgʻri yoritilgan deya olmaymiz. Bular haqidagi qarashlarning toʻliq emasligi, bor fikrlarning bir-biriga mos kelavermasligi, hatto bir-biriga zidligining oʻziyoq fikrimizni tasdiqlaydi. Oʻzbek tili morfologiyasiga oid ishlarda soʻz shaklining affikslar va yordamchi (koʻmakchi)lar bilan yasalishi, affikslar yordamida yasaluvchi soʻz shakllari

“sintetik shakl”, ko‘makchilar yordamida yasaladigan so‘z shakllari “analitik shakl” deb yuritilishi ma’lum. So‘z shaklining bu ikki turi mohiyatan bir-biridan butunlay farqlanadi. Bu farqli xususiyatlarni aniq tasavvur etish uchun ularning har birini, ular asosida yuz beradigan hodisalarni alohida-alohida tadqiq etish lozim³⁵. Shu o‘rinda, tadqiqotimiz davomida o‘zbek morfologiyasidagi ushbu xususiyatlar turk tili morfologiyasida kuzatilmasligini ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, o‘zbek tilida ravishlar affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi. Affiksatsiya usuli bilan ravish yasalişhida ot, sifat, olmosh kabi so‘z turkumlari yasash asosi vazifasida keladi. Affiksatsiya usuli bilan ravishlar quyidagi affikslar bilan yasaladi: *-ta, -chasiga, -larcha, -lab, -dek, -ona, -(s)iga, -an* kabi qo‘shimchalar yordamida yasaladi. Kompozitsiya usuli bilan ham qo‘shma ravishlar yasaladi. Tarkibidagi qismlarning qanday so‘zlardan bo‘lishiga qarab qo‘shma ravish quyidagicha hosil qilinadi: *har* belgilash olmoshi bilan o‘rin yoki payt ma’nosini bildiruvchi so‘zlarning birikuvidan, bir so‘zi bilan o‘rin, payt va miqdor bildiruvchi so‘zlarning birikuvidan, ayni bir otni, sonni orasiga *-ma, ba-* elementini qo‘shib takrorlash bilan, shuningdek, ayni bir sifatni chiqish va bosh kelishikda takrorlash bilan, ayni bir ot va sifatni chiqish va jo‘nalish kelishiklarida takrorlash bilan, o‘z olmoshi takrorini egalik va chiqish kelishigi affikslari bilan ishlatishdan ravishlar yasaladi³⁶. Turk tili grammatikasida ham ravish so‘z turkumi yasalişhi bo‘yicha ba’zi o‘xshashlik jihatlar mavjud, lekin ayrim o‘ziga xos farqliliklar ham yo‘q emas.

Kelib chiqishi arabcha bo‘lgan *zarf* (ravish) so‘zi turk tilida so‘z turkumi ma’nosini ifodalaydi. *Zarf* (ravish)lar fe‘l, sifat, sifatdosh va ravish vazifasidagi so‘zlardan oldin kelib, zamon, o‘rin, yo‘nalish, sifat, holat kabi turli jihatlarini ko‘rsatish, ko‘plik yoki miqdorni ifodalash, kuchaytirish orqali ma’noni yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiluvchi so‘zlardir. Turk tilida aslida *zarf* (ravish) bo‘lgan so‘zlar juda kam. *Zarflar*, odatda, ot, sifat va olmosh kabi boshqa so‘z turkumlaridan olingan so‘zlar bilan ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan, bular aslida

³⁵ Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalişhining nazariy masalalari. Fan. 2010. – B.180.

³⁶ Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // – T., 2009. – B.72.

oddiy shakldagi otlardir. Shuning uchun ularni otlardan ajratish mumkin emas. Ot yoki sifat soʻz turkumidagi soʻzlarga qoʻshimcha sifat beradigan narsa ularning tilda qoʻllanish usuli va zimmasiga yuklatilgan vazifalardir. Ammo shuni taʼkidlash kerakki, har bir ot zarf (ravish) boʻla olmaydi. Ot ergash gap sifatida qaralishi uchun u qoʻshimchani taʼrifida biz keltirgan belgilarga ega boʻlishi kerak. Yaʼni vaqt, oʻrin, tomon, holat, koʻplik, ijobiylik, soʻroq kabi sifatlarga ega boʻlgan otlargina zarf boʻla oladi. Mavhum otlar va atoqli otlar, odatda, zarf sifatida ishlatilmaydi. Bular faqat koʻmakchilar bilan qoʻshilib, koʻmakchili birikma hosil qiladi yoki zarf (ravish) yasovchi qoʻshimchani olib zarf vazifasida kelishi mumkin: *tatlilikla söyle, suyunca git, aklınca yorumla, Ayse için getir, Ali gibi giyin* kabi.

Turk tilida zarf (ravish)lar ham xuddi sifatlar kabi uch asosiy qismga boʻlinadi:

- 1) kelib chiqishiga koʻra.
- 2) tuzilishiga koʻra.
- 3) vazifasiga koʻra

Ravishlar kelib chiqishiga koʻra oʻz ichida ikkiga ayriladi: a) asosi boshqa tildan kirib kelgan ravishlar; b) asosi turkcha boʻlgan ravishlar.

Asosi boshqa tildan kirib kelgan ravishlar oʻz ichida 3 turga boʻlinadi.

Ularning soni unchalik koʻp boʻlmasa-da, *aynen, bazen, daima, evvela, hala, gayri, hazır, hayran hayran, ilelebet, manidar, nihayet, rahat, tuhaf tuhaf* kabi arabcha ravishlar hisoblanadi. Bularidan baʼzilari aslida ravishlar boʻlsa, baʼzilari turk tilida ravish sifatida ham qoʻllanishi mumkin boʻlgan sifat va otlardir.

Ikkinchi turga esa *bari, beraber, beyhude, çabuk, hemen, hemen hemen, henüz* kabi oz sonli fors tilidan oʻzlashgan ravishlar kiradi.

Belki, sabahları, geçen hafta, geç vakit, her fırsatta, hemencecik, ezbere, ezberinden, ezbercesine, farkına varmadan, hayretle, hiç durmadan, manidar, pürheyecan rahmetle misollarida esa arab va fors tilidan olingan soʻzlarga turkcha soʻzlar yoki qoʻshimchalar qoʻshish orqali kelib chiqishi aralash boʻlgan ravishlar hosil qilinadi.

Asosi turkcha bo'lgan ravishlar. Turk tilida turli tuzilish va vazifaviy xususiyatga ega bo'lgan ravishlar anchagina ko'p. Quyida ularning tuzilishi va funksiyalariga e'tibor qaratsak: *açık açık, açıkça, akşamdan, akşamüstü, artık, baştan, yeni baştan, bildir, birden, birazdan, boşuna, çoktan, derken, dünden, dışarı, dünden beri, ertesi gün, eskiden, geceleri, gezerken, ileri, iyiden iyiye, ikindi üstü, ister istemez, -den sonra, öylece, öylesine, öldüresiye, sessizce, hiçkıra hiçkıra, kırgın kırgın, pırıl pırıl, vızır vızır, uzun uzadı* va shu kabi boshqa ravishlar kelib chiqishi turkcha bo'lgan ravishlar hisoblanadi.

I. Tuzilishiga ko'ra zarf (ravish)lar o'z ichida bir necha qismga bo'linadi, bular: a) sodda; b) yasama; c) qo'shma; d) so'z birikmasi shaklidagi zarflar.

Sodda ravishlar xoh turkiy bo'lsin, xoh chetdan kirgan bo'lsin, asosdagi bir so'zdan tashkil topgan ravishlardir. Ulardan ba'zilar haqiqiy ravishlar hisoblansa, ba'zilar boshqa so'z turkumlaridan olingan va ravish sifatida ishlatiladigan so'zlardir.

Turk tilida yasama ravishlar soni bir nechtdan oshmaydi. Aslida, ular boshqa turkumdagi so'zlar bo'lib, keyinchalik qoliplash va turkum o'zgarishi orqali yasama ravishlarga aylangan. Yasama ravishlar ikki asosiy guruhni tashkil qiladi:

- a) otdan yasalgan ravishlar;
- b) fe'ldan yasalgan ravishlar.

Ushbu ikki guruh ham, shuningdek, qabul qiladigan qo'shimchalariga ko'ra ba'zi kichik guruhlariga ayriladi.

Ravishlarning ayrimlari tuzilish jihatdan qo'shma so'zlardir. Bular, odatda, ikkita alohida so'zdan iborat bo'lib, bitta tushunchaga mos keladigan so'zlardir. Bunday tuzilishga ega qo'shma ravishlarda ravish hosil qiluvchi har ikki so'z o'z ma'nosini saqlab qolgan holda eskisidan farqli yangi tushunchaga mos keladi yoki birikma jarayonida birikma hosil qiluvchi so'zlardan biri yoki ikkalasi ham ma'no o'zgarishiga uchrab, eskisidan mutlaqo yangi ma'no hosil qilgan: *alabilidigine, alelacele, ara sıra, başlı başına, behemahal, bermutat, birdenbire, biraz, bir gün, bugün, er geç, firdolayı, gelişigüzel, giderayak, gitgide, gözalabilidigine,*

haddizatında, harikulade, her daim, her gün, her halde, her halükarda, hıncahınç, karma-karışık, neredeyse, pekala, uzunboylu, yan yana, yüzükoyun, yüzüüstü.

So‘z birikmasi shaklidagi ravishlar. Ayrim ravishlar tuzilish jihatdan so‘z birikmalariga asoslanadi. Ravish yasovchi so‘z turkumlari takroriy birikma, o‘tli birikma, sifatdoshli so‘z birikmasi, yuklamali birikma, bog‘lovchili birikma, ravishdosh-fe‘lli birikma shaklida bo‘ladi.

Turk tili morfologiyasiga oid yuqoridagi xususiyatlar o‘zbek morfologiyasi bilan birmuncha farqliliklar ko‘rsatmoqda. Kelib chiqishi bir bobo tilga borib taqaladigan ushbu ikki tilning zamon va makon jihatidan yillar va asrlar davomida bir-biridan unchalik ham uzoqlashmagan deb aytilishiga qaramasdan, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ushbu ikki til grammatikasida, xususan, bir qancha morfologik farqlar yuzaga kelganini ham ta’kidlash joiz. O‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlarini o‘rganish jarayoni va turk tilshunosligidagi so‘z turkumlarini o‘rganish sistemasi bir-biridan bir qancha o‘rinlarda farq qiladi, buni yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlar asosida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. So‘z shaklini yasovchi birliklar, qo‘shimchalar asosida yasalgan so‘z shakllari hamda shu kabi til hodisalarini o‘rganuvchi o‘zbek tilshunosligi, ya’ni uning morfologiyasida “So‘z shaklining tarkibi”, “Shakl yasalish asosi” kabi tushunchalar shu vaqtga qadar o‘z aksini topmagan. Vaholanki, bu tushunchalar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmay turib, so‘z shakli bilan bog‘liq hodisalarni, ulardan har birining mohiyatini to‘la va to‘g‘ri yoritib bo‘lmaydi. Turk tilshunosligida esa buni qisman bo‘lsa ham kuzatishimiz mumkin. Avvalo aytish kerakki, shakl yasalish hodisasi faqat ot va fe‘l turkumlarida mavjud. Har ikki so‘z turkumidagi so‘z shakllari shakl yasalish asosi va shakl yasovchidan tarkib topadi. Shu bilan birga, shakl yasalish asosining qanday til birligidan bo‘lishi, so‘z shaklida shakl yasovchining miqdori va shu kabilarda ot va fe‘l turkumiga mansub so‘z shakllari o‘zaro farqli xususiyatlarga ega. Shu bois ularning har birini alohida-alohida o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi³⁷. Ayni shu jihatlar, ya’ni so‘zlarning, asosan, ot va fe‘l so‘z turkumlarining asosiy ma’noviy birlik sifatida olinishi turk

³⁷ Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // – T., 2009. – B.181.

tili morfologiyasidagi soʻz turkumlarini oʻrganish sistemasi bilan bir xil boʻlishi mumkin, lekin ushbu ikki turkumning chuqur oʻrganilishida bir qancha farqliliklar mavjudligi ham ahamiyatga molikdir.

Bob boʻyicha xulosalar

1. Turkiy tillarda, xususan, oʻzbek va turk tillarida fonetik, leksik, grammatik kabi turli xil til sathlari va qonuniyatlaridagi umumiy oʻxshashlik, oʻzaro yaqinlik, shuningdek, bir-biriga oʻxshamagan farqliliklar, mazkur tillarning genetik va tipologik qarindoshligini koʻrsatuvchi hodisalar tillarni solishtirib oʻrganishda asosiy tomon ekanligini koʻrsatadi.

2. Tillarni solishtirib oʻrganishda qiyoslanayotgan tillarning tovushlar tizimi, yaʼni fonetik qurilishi qiyoslashning asosiy mezonini boʻlmasa-da, uning eng muhim obyektlaridan biri hisoblanadi, negaki insonlar orasidagi ijtimoiy aloqa-aralashuvi munosabatlarining asosi hisoblangan soʻz nutq tovushlaridan tarkib topadi va maʼno kasb etishga xizmat qiladi.

3. Oʻzbek va turk tili leksikasining morfologik xususiyatiga toʻxtaladigan boʻlsak, birinchi navbatda, ikki til ham agglyutinativ til ekanligi, aniqrogʻi har bir grammatik maʼno soʻzga grammatik shakl qoʻshilishi orqali ifodalanishi qiyoslanayotgan tillar oʻrtasida morfologik jihatdan bir qator mushtarak tomonlar borligini koʻrsatadi.

4. Oʻzbek va turk tillari morfologik nutqayi nazardan bir-biriga oʻxshashiga qaramasdan ikki qardosh til leksikasida oʻziga xos farqli jihatlarni kuzatishimiz mumkin. Bu esa, eng avvalo, grammatik shakl, yaʼni qoʻshimchalarda namoyon boʻladi. Negaki turk tili unlilar uygʻunlashuvi xususiyatiga ega boʻlganligi bois soʻzga qoʻshilayotgan har bir qoʻshimcha oʻzak-negizning tabiatiga bogʻliq holda fonetik variaantlardan tashkil topadi. Har bir grammatik shaklning asosan toʻrt xil (*im, -im, -um, -üm*), baʼzan ikki xil (*-lar, -ler*) koʻrinishi mavjud boʻlgan holda turk tili oʻzbek tilidan farq qiladi. Oʻzbek tilida esa bu qonuniyat deyarli uchramaydi.

5. Ikki til leksikasidagi morfologik tafovutlarni soʻz turkumlari doirasida ham kuzatishimiz mumkin. oʻzbek tilida soʻz turkumlari uch guruh: mustaqil soʻzlar, yordamchi soʻzlar va alohida olingan soʻzlarga boʻlingan holda turk tilida ular ismlar, yordamchilar va feʼllarga ajratilgan holda tasnifladi. Yana bir ahamiyatli tarafi shundaki, turk tilida bir soʻz bir nechta soʻz turkumiga mansub boʻladi va soʻzning qaysi turkumda ekanligini aynan gap ichida oydinlashadi.

III BOB. O‘ZBEK VA TURK TILI LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK TARAQQIYOTI

3.1. O‘zbek va turk tillari leksikasidagi semantik o‘zgarishlar

Ma'lumki, leksik semantika so'zlarni hozirgi an'anaviy tilshunoslikdan mutlaqo farqli tarzda ko'rib chiqadi, ularni bir butunning bir qismi sifatida, til tizimi doirasida, yaxlit holda tekshiradi. Har bir belgi strukturaviy, izohli va generativ semantikada qandaydir ma'no xususiyatlarini o'z ichiga oladi deb qabul qilinadi. Leksik semantika sohasida so'zlarning leksikalararo semantik aloqalar doirasidagi sifatlarini ifodalovchi so'z, asosan, so'z ma'nosini ko'rsatishga qaratilgan. Bu spetsifikatsiya jarayonida sinonimiya, antonimiya va giponimiya kabi ma'noning paradigma munosabatlari, tanlanish chegaralari kabi sintagmatik munosabatlar, lug'atdagi tuzilmalar kabi taksonomik ierarxiyalar, ma'no o'zgarishi, metafora va metonimiya kabi kengaytma munosabatlari tahlil predmeti bo'ladi. Bir tilning taraqqiy etishida uning leksik zaxirasi boshqa sohalarga nisbatan anchayin tezroq ravishda yangilanishlarga, boyishlarga yuz tutadi. Bularning sabablaridan biri shundaki, jamiyatda bo'lib turadigan turli xil o'zgarishlar natijasida yuzaga chiqadigan hodisalar o'ziga xos ma'lum atamalarning til leksikasiga qo'shilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday obyektiv sabablar asosida tilda yangidan yangi leksemalar paydo bo'lib boradi, lug'at tarkibi ham shu asosda boyib boradi. O'zbek tili leksikasining taraqqiyot jarayoni ma'lum lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi, yangi-yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bunda lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi, yo'q bo'lishiga nisbatan yangilarining paydo bo'lishi asosiy tendensiya, taraqqiyotni belgilovchi hodisa hisoblanadi. Semantik taraqqiyot ham tilning tabiatidan kelib chiqadigan qonuniy hodisa, ya'ni bu hodisa tilning ixchamlikka, soddalikka, qulaylikka intilish kabi xususiyatlari bilan bog'liq. Hayotda paydo bo'ladigan yangi-yangi hodisalar, tushunchalarni ifodalash uchun doim yangi so'zlar yaratilavermasligi ma'lum. Aks holda, tildagi so'zlar

miqdorining qay darajada ko‘payib ketishi va bularning fikr almashinuvda qanchalik qiyinchiliklarga olib kelishini tasavvur etish qiyin emas³⁸.

Leksikalararo munosabatlarni ochish jarayonida so‘z semantikasi tadqiqotlari turli semantik nazariyalardan foydalanadi. Semantik tadqiqotlarda til obyekti diaxronik nuqtayi nazardan muhokama qilinadi. Bu tadqiqotlar, asosan, tarixiy jarayondagi ma’no o‘zgarishlariga qaratilgan. Ushbu usul yordamida eng qadimgi semantik tadqiqotlar ham ishlab chiqarilgan. Ayrim struktural-semantik tadqiqotlar tarixiy jarayondagi leksik o‘zgarishlarni aniqlash, tasniflash va tushuntirish bilan cheklandi. Davr oxirlariga kelib, nazariy etimologiya, ritorika ta’limoti va lug‘at yaratish sohalari – yana diaxronik tarzda – “so‘z ma’nosi” tushunchasi orqali vujudga keldi. Asosan, struktural va neostruktural semantika fanlarida ma’no mazmuni va shakllanishiga oid nazariyalar ilgari surishga harakat qilingan. Bu jarayonda eng keng tarqalgan tahlil usullaridan biri semantik xususiyatlar tahlilidir. Bu usul orqali so‘z, ma’no chegaralari bir vaqtning o‘zida turli mezonlar bo‘yicha aniqlana boshlandi. Shu tariqa, sinonim, yaqin ma’no, yondosh ma’no, so‘zlarning bir-biri bilan sintagmatik munosabati kabi ma’no darajalari, subyektlar semantikaning qo‘llanish sohasiga kirib kelgan. Bu davrda birinchi o‘ringa chiqqan semantik xususiyat tahlili metodi leksik to‘plamlar orasidagi o‘xshashlik va farqlar asosida tadqiqot obyektiga e’tibor qaratadi. Unda aytilishicha, ma’lum bir so‘z qatoridagi turli elementni topish uchun boshqa elementlarning umumiy belgilari bilan bir qatorda ketma-ketlikka kiritib bo‘lmaydigan elementning turli belgilari ham ochib berilishi kerak.

Turk tili lahjalari va ularning leksik-semantik xususiyatlari bo‘yicha ilk to‘plamlar va tadqiqotlar XIX asrning ikkinchi yarmida 1867-yilga to‘g‘ri keladi. Biroq 1867-1940-yillar oralig‘idagi 70-75 yillik davrni o‘z ichiga olgan bu tadqiqotlar, asosan, sharq olimlari tomonidan ilgari surilgan dastlabki to‘plam va baholardir. 1940-yillarda boshlangan va bugungi kungacha davom etayotgan kompilyatsiya va tadqiqotlar odatda mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlardir. Bularni matn tuzish, kompilyatsiya-tadqiqot, muayyan til predmeti

³⁸ Nurmamatova D. O‘zbek tilining semantik taraqqiyoti masalasi // uzresearchers. T., 2022. – B.47.

bilan shugʻullanish yoki soʻz boyligini ochish, yaʼni lugʻat tayyorlash kabi bir necha xil guruhlariga boʻlish mumkin. Rivojlanayotgan texnologiyalar yordamida olib borilgan turli tadqiqotlar bilan turk tili lahjalari haqida keng koʻlamda tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu tariqa turk tilidagi dialektlar, tilning leksik-semantik xususiyatlarini tasniflashga urinishlar amalga oshirildi. Biroq bu kabi samarali izlanishlarga qaramay, dialekt, leksik-semantik tadqiqotlar sohasida kutilgan natijalarga erishilmadi, deb qaraladi. Bugungi kunda Turkiya hududida matn jamlash ishlari amalga oshirilmagan hududlar hali ham mavjud, baʼzi hududlarda matn jamlash va turkchada ularni umumiy baholaydigan birlashtiruvchi morfologik va semantik grammatikasining toʻla-toʻkis ishlab chiqilmaganligi kabi holatlarga ham duch kelish mumkin. Hozirgacha olib borilgan izlanishlar, asosan, matnlari tuzilgan viloyat yoki shaharlar lahjalarining leksik-semantik jihatlarini ochib berish va shu matnlar asosida dialekt tadqiqotlarini oʻtkazishga qaratilgan. Til xususiyatlarining geografik taqsimotiga asoslangan bu umumiy tasniflardan tashqari, koʻlami torroq boʻlgan va turli viloyatlar shevalarining leksik-semantik xususiyatlariga eʼtibor qaratuvchi shevashunoslik ham mavjud. Bunday xarakterdagi tadqiqotlarga tor doiradagi tasniflar ham kiritilgan. Turk olimasi Zaynab Korkmaz “Janubi-Gʻarbiy Anadolu dialektlari” nomli kitobida Gʻarbiy Anadolu dialektlarini beshta kichik dialekt mintaqasiga ajratgan holda uning leksik-semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilib anchayin samarali tadqiqot amalga oshirgan. Ahmet B.Erjilasunning “Sharqiy Anadolu dialektlarining tasnifi” nomli maqolasida ham shu kabi muhim maʼlumotlarni koʻrishimiz mumkin. Bundan tashqari Leyla Karahan tomonidan mavjud boʻlgan barcha nashrlar va matnlarga asoslangan Anadolu dialektlarining oʻziga xos leksik-semantik xususiyatlari va geografiyasi oʻrtasidagi bogʻliqlik boʻyicha keng koʻlamli tadqiqot ishi amalga oshirilgan.

Bilamizki, turk tili va oʻzbek tili bir til oilasiga mansub, shu sababli ushbu ikki til orasida leksik-semantik oʻxshashliklar ham talaygina. Shumerlar tarixi haqida tadqiqotlar olib borgan bir qancha tilshunos olimlar ushbu tilni turkcha, majorcha kabi *Ural-Oldoy* tillari bilan bogʻliqligi bor deb qarashadi. Lekin turk tili

asosdan keyin qo‘shimcha qabul qiluvchi til bo‘lgani holda, shumerchada old qo‘shimchalar ham mavjud bo‘lib, qo‘shimchalarning asosdan oldin ham qo‘shilish holatlari kuzatiladi. Shunga qaramasdan turkcha va shumercha orasidagi bog‘liqlik birmuncha jiddiy hisoblanadi va ayni bu mavzuda tadqiqotlarning davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir. Turk tilshunos olimlaridan Osman Nedim Tuna eski turkcha bilan shumercha orasidagi 168 so‘zning bir-biriga yaqin ekanligini aniqlagan bo‘lib, ushbu so‘zlar nafaqat shumerchanning turkcha bilan, balki o‘zbekcha bilan ham juda yaqin ekanligini ko‘rish mumkin. Bulardan ba’zilar quyidagilar:

Shumercha	Eski turkcha
mae (men)	men (men)
zae (sen)	sen (sen)
di (gapirmoq)	ti (demoq)
dingir (tangri)	tengri (tangri)
dug (to‘kmoq)	tök (to‘kmoq)
iduga (hid)	yıdıg (hid)
kur (o‘lka)	kuru (hudud, yer)
kur (qo‘riqlamoq)	korı (qo‘riqlamoq)
nig (narsa)	neng (narsa)
sag (yaxshi)	sag (sog‘lom)
tibira (temir)	temir (temir)
ud (vaqt)	öd (vaqt)
gishik (eshik)	eshik (eshik)
gish (o‘rmon)	yish (o‘rmon)
shurim (yarim)	yarım (yarim)

Osman Nedim Tunaning fikriga ko‘ra, buncha so‘zlarning ham fonetik, ham leksik-semantik jihatdan bir-biriga o‘xshash yoki juda yaqin bo‘lishi imkonsiz.

Tadqiqotchi olim Kovanning fikriga ko'ra, *undosh+unli+undosh* qolipida bo'lishi sharti bilan uchta so'zning, J.Greenbergga ko'ra esa uch yoki to'rtta so'zning fonetik va leksik jihatdan o'xshash bo'lishi bu ikki til orasida aloqa borligining isboti hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, turkiy tillar, xususan, o'zbek tili va shumercha o'rtasida ham leksik-semantik bog'liqlik mavjud bo'lganini aytishimiz mumkin.

Turk tili va o'zbek tillarida bir nechta mazmunga ega bo'lgan minglab so'zlar mavjud. Bu so'zlar ba'zan keng, ba'zan esa tor umumiy ma'no komponentlariga ega. Umumiy ma'no komponentlariga ega bo'lgan katta sinflardan tabiiy ravishda tuzilgan guruhlar so'zlar o'rtasida ma'no munosabatlarini yaratadi. Masalan, turk tilida *dar, bol, geniş* sifatlari yoki *gülmek, gülümsemek, sırtmak, kahkaha atmak, tebessüm etmek* fe'llari o'rtasida umumiy semantik maydonga ega bo'lgan munosabat mavjud. Bu turdagi ma'no munosabatlari adabiyotlarda "semantik munosabat", "leksik munosabat", "ma'no munosabati" atamaları bilan uchraydi.

Kelib chiqishi bir bobo tilga borib taqaladigan ushbu ikki tilda bir-biriga leksik-semantik jihatdan o'xshash bo'lgan, lekin vaqt chig'irig'i davomida turli o'zgarishlarga uchragan so'zlarni ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan, o'zbekchada *yomg'ir* so'zi, turk tilida *yağmur* deyiladi. Aslida eski turkchada ham *yağmur* shakli qo'llanilgan bo'lib, vaqt o'tishi mobaynida ushbu so'z metateza hodisasiga uchrab, o'zbek tilida *yomg'ir* shaklida qo'llana boshlangan. Bundan tashqari, o'zbek tilidagi *gul, bog'* kabi so'zlar turk tilida *çiçek, bahçe* deb ataladi. Aslini olganda bu so'zlar ham o'zbek tilida mavjud bo'lib asosiy ishlatiladigan so'zlarning sinonimi sifatida qaraladi. Bundan tashqari, yana shunday so'zlar borki, fonetik va morfologik jihatdan ikki til orasida bir-biriga o'xshash bo'lishiga qaramasdan, semantik jihatdan tamoman farqli hisoblanadi. Masalan, turkcha *duymak* fe'li bilan o'zbekcha *tuymoq* fe'lini oladigan bo'lsak, ushbu ikki fe'l bir-biriga juda o'xshash, ammo mazmun jihatdan ikki tilda ayri-ayri ma'no ifodalaydi. Turkcha *duymak* – *eshitmoq*, o'zbekcha *tuymoq* – *his qilmoq* degan ma'nolarda qo'llanadi va biz bunday misollardan bir qancha keltirishimiz mumkin. Bu ham

ushbu ikki qardosh til o'rtasidagi vaqt mobaynida o'zgarishga yuz tutgan leksik-semantik farqlarga misol bo'la oladi.

O'zbek va turk tillaridagi so'zlarning leksik-semantik kelib chiqishi va o'zgarishlari haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, *Tangri* so'ziga to'xtalib o'tishimiz lozim. *Tangri* so'zi O'zbek tilining izohli lug'atida "*Oллоh, Xudo, Parvardigor*" deb ochiqlanar ekan, kelib chiqishi mo'g'ul tilidagi "tenger" so'zidan ekanligiga ishorat berilgan. Holbuki bu so'z sof turkiy so'z. Bu so'zning tilimiz tarixidagi asl ma'nosi *osmon* degan ma'noni anglatadi. Buni ko'kturk matnlaridagi so'zning birlamchi ma'nosidan bilib olsak bo'ladi (*Tengri teg tengridä bolmiş türk bilgä qağan*). Xo'sh, qanday qilib *osmon* ma'nosidagi so'z yaratgan, *iloh* ma'nosiga aylanib qolgan bo'lishi mumkin? Ibtidoiy davr insonlari qor, yomg'ir, chaqmoq, momaqaldiraq, quyoshning chiqib botishi, qorong'u bo'lib oy-u yulduzlarning chaqnashi kabi holatlarni aniq tushunib yeta olishmagan. Bu esa natijada osmon hammadan kuchli bir zotning makoni degan tushuncha paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Shu sababli dunyo tillarida osmon ma'nosidagi turli so'zlar "*tangri*" yoki "*tangrining makoni*" ma'nosida ham kela boshlaydi. Demak, tangri so'zi, avvalo, "*osmon*", keyichalik esa "*yaratuvchi, iloh*" ma'nosiga ega bo'lgan. Shu bois ham turkiy xalqlarda *ko'ktangri* tushunchasi yuzaga kelgan va "tangri"ning osmon ma'nosi unutilgan. Natijada endi osmon ma'nosida qo'llash uchun boshqa so'zlarga ehtiyoj tug'ilgan va ushbu ma'noda "*ko'k*" so'zi ishlatila boshlangan. Ko'kda yaratuvchi bir tangri borligi e'tiqodidan hozirgacha yetib kelgan ba'zi an'analar, tushuncha va xatti-harakatlarning ildizi ham tangri so'zining mana shu tarixiy kelib chiqishiga borib taqaladi.

Yuqorida aytilganidek, tangri so'zi osmon ma'nosini yo'qotib, ilohga o'zgargach, tilda "osmon" ma'nosida keluvchi boshqa so'zga ehtiyoj sezilishi tabiiy. Bu vazifani esa "ko'k" so'zi bajarib bergan. Ko'k tub ma'noda rang bildiradi, "moviy" degani. Osmon, ko'pincha, moviy tusda bo'lganidan ko'k so'zi "*osmon*"ning o'zi ma'nosini anglata boshlaydi. Shu o'rinda, tilimizda "*ko'k*" so'zi bilan "*yashil*" so'zini o'zaro o'rin almashtirib ishlatilishini ham aytish kerak. Bunga sabab bo'lgan omillardan biri osmonning har doim ham "ko'k" rangda

bo'lmastir. Chunki yomg'irli, bulutli havolarda osmon kulrang yoki zangori tusga kirishi mumkin. Asl rangi yashil bo'lgan o'simlikni ko'kat (ko'k o'tdan keladi) deymiz, ko'k choy deymiz. Turkiy xalqlarda "ko'k bo'ri" tushunchasini bilamiz. Bu yerdagi ko'k sifati moviyni emas, kulrangni ifoda etadi. Demak, bu so'z aslan moviy ma'nosida ishlatilar ekan, "tangri"dagi ma'no o'zgarishi sabab uning bo'shlig'ini to'ldirib moviy rangdagi osmonga aylangan. Bundan tashqari, rang nomlarining hozirga qadar boshqa ma'nolarni ifodalaganligini ham ko'rishimiz mumkin. Rang nomlari ko'plab ramziy ma'nolarni anglatishini bilamiz. Bular orasida *ko'k, oq, qora, qizil* ranglariga ko'proq ma'no berilganligi e'tiborni tortadi. Ranglarning ramziy ma'nolari orasida eng eskisi rang orqali tomonlarni ifodalashdir. Tilimiz tarixida *ko'k* sharqni, *qora* shimolni, *oq* g'arbni, *qizil* esa janubni ifoda etgan. Markaz esa *sariq* rangi bilan ifoda etilgan. Buning kelib chiqishi turkiy xalqlarning harbiy tizimi bilan ham bog'liq. Bunda qo'shinlarni turli qismlarga ajratish rang nomi bilan atab, boshqarishga qo'l kelgan. Zamon osha rang nomiga bir ism qo'shib *joy* va *qavm nomlari* yasash ham udumga aylangan. Shundan kelib chiqib, ayniqsa, tarixiy joy va qavm nomlarida ranglar uning tomonini ifodalashini tushunishimiz mumkin. *Qoradaryo, Oqqo'rg'on, Ko'ksaroy* kabi geografik otlar, *Oqqo'yunli, Qoraqo'yunli, Qora turkashlar* kabi qavm nomlarida ularning rangini emas joylashgan o'rnini tushunish kerak. Turkiy qavmlar Kichik Osiyoga kelganda o'z atrofidagi dengizlarni ham shu tushunchaga mos ravishda atay boshlaganlar. *Qora dengiz, Oq dengiz, Qizil dengiz, Ko'k dengiz (Kaspiy)*. Oltin O'rda davlati ikkiga ajralganda ham yangi nomlari *Oq O'rda* va *Ko'k O'rda* bo'lgan edi. Demak, Amir Temurning mashhur ikki *Oqsaroy* va *Ko'ksaroyi* ham saroy rangi sababli nomlanmagan, balki joylashgan joyiga qarab nomlangan deyishimiz mumkin. Ko'rinib turibdiki, ayrim joy nomlari va atoqli otlardagi rang ifodalovchi so'zlar uning rangini emas, aksincha, uning joylashuviga ishora qiladi.

Dunyoning ko'plab tillarida *egizak* ma'nosida keluvchi so'zlarning ikki sonidan yasalgan so'z ekanini ko'ramiz (inglizcha *twin*, forsha دو قلو, tojikcha *dugona*...). Shu qatori tilimizdagi *egizak* so'zi ham ikki soniga borib taqaladi.

Turklarda ham ushbu egizak soʻzi *ikiz* deya qoʻllaniladi, yaʼni soʻzning oʻzagi ikki soʻzining asl holi boʻlgan *iki / eki* soʻzidir. Soʻzning oʻzagidan keyingi -z tovushi esa eski turkchadagi *koʻplik qoʻshimchasi* hisoblanadi. Ushbu qoʻshimcha hozirgi turk tilida hatto boshqa sonlarga qoʻshilib bir paytda nechta bola tugʻilganini ham ifoda etadi. *Üçüz* “ayni paytda tugʻilgan uch bola”, *dördüz, beşiz* kabi. Bunga koʻra, soʻzni *egi-z-ak* deb ajratsak boʻladi. Soʻz oxiridagi -ak qoʻshimchasi esa eski turkchadagi *kichraytirish* qoʻshimchasidir. Hozirda tilimizda eng faol qoʻllanadigan kichraytirish qoʻshimchalari *-kina (-gina, -qina), -cha* hisoblanadi.

Uloq deb echki bolasiga aytiladi. Soʻzning eski turkiy tildagi shakli *oğlaq*, yaʼni *oʻgʻlaq*. Yuqorida egizak soʻzi haqida aytar ekanmiz, soʻzning aslida “*bolacha*” maʼnosini bildirishi haqida ishora berdik. Chunki soʻz oğil+aq shaklida yasalgan, oğil (oʻgʻil) soʻzining tub maʼnosi esa farzand degani. Zero, koʻkturk harfli yodgorliklarda *urü oğil* – “oʻgʻil bola”, *qiz oğil* – “qiz bola” deganidir. Biroq keyinchalik bu soʻz *oʻgʻil bola* maʼnosida umumiy lashib bordi. Natijada tilda endi “*farzand*” maʼnosida keluvchi soʻzga ehtiyoj sezildi. Oʻzbek tilida bu vazifani *bala* (bola) soʻzi oʻtab berdi. Aslida bola soʻzining maʼnosi “*qush bolasi*” ekani “Devonu lugʻatit-turk”da ham koʻrsatilgan. “*Polapon*” soʻzi ham “bola”ning asl maʼnosidan qolgan. Hayvon bolalarining shirinligi turkiy xalqlarni oʻz bolalarini ham hayvon bolalarining otlari bilan erkalashiga sabab boʻlgani maʼlum. Onalar bolalarini “*qoʻzichogʻim*”, “*boʻtalogʻim*” kabi soʻzlar bilan hozirda ham erkalaydi. Demak, maʼlum davr oraligʻida “qush bolasi” maʼnosidagi “bola” ham erkalash uchun ishlatilar edi. Biroq keyinchalik ushbu soʻz tilimizda “farzand” maʼnosida umumiy lashdi.

Bayroq har bir millatning eng muhim ramzlaridan biridir. Davlat paydo boʻlibdiki, bayroq bordir. Bayroqning mohiyatini, uning milliy gʻurur masalasi ekanligini har birimiz yaxshi bilamiz. Eski turkiy tilda, jumladan, Mahmud Qoshgʻariyning Devonida *batraq* (*uchiga ipak parchasi osilgan nayza, tugʻ. Jang kuni otliq, suvoriylarning turgan joyini koʻrsatib turuvchi belgi*) deb berilgan. *batraq/batruq*, nayzali bayroq, ushbu soʻz eski turkiy tilda *batur* – nayza sanchimoq, botirmoq soʻziga **k** +(g)**ak** qoʻshimchasi qoʻshib yasalgan. Eski turkiy

tilda soʻz oʻrtasidagi **-d** lar keyinchalik **-y** ga aylangan (*adık > ayık; adak > ayak; adırmağ > ayırmağ* kabi). Natijada *batrak/ badrak/ batruk* soʻzlari *bayraq* (bayroq) shakliga oʻzgargan. Ingliz olimi G.Klauson bu soʻzning Eroniy tillardan biriga oid boʻlishi mumkinligi haqida fikr yuritadi. Turk olimi Semih Tezjan esa soʻgʻdchadagi (Sans patākā) “bayrak” soʻziga bogʻlaydi. Ammo ilmiy izlanishlar bu soʻzning turkiy ekanligi haqidagi fikrlarni qoʻllab quvvatlamoqda. Ushbu soʻz Usmonlilar Saltanati va Usmonlicha orqali arabcha (Livan, Liviya, Misr, Sudan, Suriya, Yaman)ga va kurdcha, zazacha, forschaga hamda Bolqon davlatlari boʻlgan Serbiya, Romaniya (Ruminya), Bulgʻoriston (Bolgariya), Arnavut (Albaniya) tillariga ham oʻtgan. Yana bir manbada shu fikrlar keltirilgan: “*Bayroq* soʻzi asli nayza maʼnosida kelgan “*batrak*”dir. Oʻgʻuzlar *batrak* shaklida ishlatgan bu soʻz uygʻurlarda, qarluqlarda *botirmoq, sanchimoq* maʼnosida ishlatilgan *batruq* soʻzi edi. Eski Turkiy xalqlarda tuproqqa sanchib qoʻyilgan nayzaning uchiga oʻsha urugʻ, xonadonning ramzini va rangini ifoda qiluvchi matolar ilinib qoʻyilar edi. Nayzaning uchiga oltin yoki qimmatbaho maʼdanlardan qilingan boʻri kallasi kabi xoqonlik ramzlari ham osib qoʻyilar edi”. Demak, “tuproqqa sanchilgan, botirib qoʻyilgan” maʼnosidagi *batrak/badrak* soʻzining maʼnosi keyinchalik “hilpirab turuvchi milliy ramz”, bayroq soʻziga almashgan.

Oʻzbek tilida kuyovlikka nomzod tomonidan kelin istashga boruvchi insonlarni **sovchi** deb ataymiz. Bundan tashqari, turklarda ham xuddi shu soʻzga oʻxshash *savci* atamasi mavjud boʻlib, ammo uning maʼnosi prokuror maʼnosida ishlatiladi. Morfologiyadan maʼlumki, *-chi* qoʻshimchasi otlarga qoʻshilib shaxs oti yasaydi. *-chi* qoʻshimchasi bor boʻlsa, demak, ilk boʻgʻindagi soʻz ot turkumiga oid ekan: **sov**. Biroq hozir lugʻat boyligimizda faol ravishda **sov** soʻzi yoʻq. Bu soʻz eng eski matnlarimizda **sab** sifatida yozilgan. Shu oʻrinda qadimgi davrdan hozirgacha boʻlgan oraliqda turkiy tildagi soʻz ichi va soʻz oxiridagi *-b* tovushlari asosan *-v* tovushiga aylanganini taʼkidlash lozim. Eski turkiy tilda *sub* hozirda *suv*, ilgari *sebmäk* hozirda *sevmak*, ilgari *yabüz* hozirda *yovuz, qabışmaq* oʻrnida *qovushmoq* kabi... Shu orqali soʻzning qadimgi turkiy tildagi shakli *sab* ekani ayon boʻlmoqda. Sab esa “*soʻz, xabar, iddao*” degani. *Sabçi* “xabarchi” degan

ma'noda. Shu sababli sovchi so'zi "*Tangridan xabarlarni yetkazuvchi*" ma'nosida, ya'ni "*rasul, payg'ambar*" ma'nosida qo'llanilgan. "Devon"da Mahmud Koshg'ariy buni ifoda etar ekan, ayni paytda "*kelin va kuyovlar orasidagi xat-xabarlarni eltuvchi kishi*" ma'nosini ham ko'rsatadi. Demak, qoraxoniylar davridayoq **sovchi** so'zining "*kelin kuyovdan xat-xabar yetkazuvchi*" ma'nosi bo'lgan. Hozirda esa o'zbek tilida faqatgina kuyovdan kelin tomonga "*xabar*", aniqrog'i "*talab, istak*" yetkazuvchiga aylangan. Ahamiyatlisi shuki, hozirgi turk tilida bu so'z 1932-yilgi til inqilobidan keyin qayta "tiriltirilgan". Usmonlilar davrida ishlatilgan "*muddayi umumiy*" (müdde-i umumî) o'rniga **savci** sifatida iste'molga kiritilgan va hozirda "*prokuror*" ma'nosida qo'llaniladi. Bunda *sav* so'zning "*iddao, da'vo*" ma'nosidan foydalanilganligi ko'rinib turibdi. Chunki **savci (prokuror)** "*da'volarni ko'rib chiquvchi kishi*"dir.

Hozirgi o'zbek tilida 4 faslning ismlaridan bahor asli fors tilidan kirib kelgan. Bahordan tashqari ko'klam ham deyilsa-da, qadimda tilimizda bu ot ham bo'lmagan. Fasl nomlari navbati bilan quyidagicha bo'lgan: *yaz, yay, kuz, qish*. Biz hozir yilning eng issiq fasli uchun ishlatuvchi *yoz* so'zining asl ma'nosi "*bahor*"dir. "Yoz" ma'nosida esa "*yay*" (yoy) so'zi ishlatilgan. "Devonu lug'atit-turk", "Qutadg'u bilig"da bu borada talaygina misollar bor:

Qışqa etin kelsä qalî qutluğ yay

(*qishga tayyorlan, kelsa agar qutlug' "yoy"*);

Yay qış bilä qarışti erdäm yasın qurışti

(*"yoy" qish bilan qarama-qarshi bo'ldi, fazilat yoyini qurishdi*)...

Buning kabi barcha o'rnaklarda "yoy" so'zi "qish"ning zid ma'nolisi bo'lib kelgan. Biroq lug'at qismida Mahmud Qoshg'ariy *yay* so'ziga "*bahor*", *yazga* esa "*yoz*" deb ma'no beradi. Berilgan misollar esa qishning ziddi doim *yoy* ekanini ko'rsatadi. Zero, xalqimizda "*Laylak keldi, yoz bo'ldi*" maqoli bor. Bundan ham *yoz*ning asli bahor ma'nosida ekani ma'lum bo'ladi. Balki turkiy qavmlarda ham eng qadimda ba'zi boshqa qavmlar singari asosan 2 fasl tushunchasi bo'lgandir: qish - yoz. Keyinchalik 4 fasl tushunchasi kelib chiqqach, *yoz* va *yoy* so'zlarida chalkashlik yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Fasl otlari tildagi eng eski so'zlardan

bo'lsa-da, ba'zilarining leksik-semantik xususiyatlari haqida to'xtalib o'tsak, *qish* so'zi yasama so'z bo'lib, "*azob chekmoq, qiynalmoq*" ma'nosidagi **qi-** fe'ldan kelib chiqqan bo'lib, ayni o'zakdan azob ma'nosida *qin, qirg'in qilmoq* va *qiynamoq* ma'nosida *qiymoq*, bu fe'ldan esa *qiyin* so'zi kelib chiqqan. Bu o'zakdan yasalashining sababi qish fasli barcha uchun mashaqqat, qiyinchilik fasli bo'lgan. Bahor kelgach esa barcha qiyinchiliklar "yoz"ilgan. Demak, bahor ma'nosidagi *yoz* so'zi "keng ochilmoq, yozilmoq" ma'nosidagi **ya-** fe'ldan kelib chiqqan. Bu fe'ldan esa *yozmoq, yoymoq* kabi fe'llar yasalib, hozirgacha yetib kelgan. "Yoz" fasli uchun ishlatilgan *yay* (yoy) esa "o't olmoq, yonmoq" ma'nosidagi **ya-** fe'ldan yasalgan. Bu yuqoridagi fe'ldan boshqa fe'l bo'lib, undan *yonmoq, yoqmoq, yorimoq* kabi fe'llar yasalib, hozirgacha qo'llaniladi.

Kecha ravish so'z turkumiga oid so'zdir. Turkiy tillarda ravish yasovchi alohida qo'shimcha yo'q, shu sababli, asosan, ravishdosh qo'shimchalari qoliplashgan holda ravishlar yuzaga keltiradi. Demak, kecha so'zi *kechmoq* fe'lga **-a** ravishdosh qo'shimchasi qo'shilishi bilan yuzaga kelgan. Bunday yasalish *yana* ("qaytmoq" ma'nosidagi *yanmaq* fe'lga **-a** ravishdoshi kelgan), *qayta* (qayt fe'li +a) so'zlarida ham bo'lgan. Zamoni ifodalovchi *erta* so'zi ham ayni qolipda yasalgan. *Ert* ham "*o'tmoq, oshmoq*" ma'nosidagi fe'l. Lekin *keçü* (kecha) so'zi turkiy tillarda *aldoqchi* so'zlar orasiga kiradi. Turk tilida *gece* "tun" degani, *dün* esa "kecha" degani. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek va turk tillaridagi so'zlarning kelib chiqishi, asosan, bir xil bo'lishiga qaramasdan, so'zlar o'zaro shakl jihatdan o'xshash bo'lsa-da, mazmunning tubdan farq qilish holatlariga ham duch kelishimiz mumkin.

Opa so'zi o'zbek tilida yakka yoki ba'zi so'zlarga qo'shilgan holda qarindosh-urug'chilik atamaları tarkibida keladi. Ushbu so'z turk tilida ham qarindosh-urug'chilik atamasi sifatida qo'llanilsa-da, vaqt o'tishi bilan o'zbek tiliga qaraganda ba'zi farqliliklar hosil qilgan. Bu so'zning ham *apa* hamda *opa* shakli bor. So'zning asli esa "apa"dir. Katta, ulug' degan ma'noni bildiradi. Quyidagilar ushbu so'zning umumiy ma'nolaridir: *Aba*: /~ebe, ~epe/ - ota; *bobo, dada, buvi, amaki, katta aka, katta opa, doya* (qadimda ayollarni tug'dirishda

yordam bergan qari ayol. Hozirda turklar doyaga *ebe* deyishadi) kabi ma'nolarga egadir. Ko'kturk bitiklarida *açum-apam* degan so'z ishlatiladi va *ota-bobom*, *ajdod* degan ma'noni bildiradi³⁹. Chig'atoycha (Eski O'zbekcha) matnlarda *aba* shaklida keladi va *ota*, *ajdod*, *katta amaki* degan ma'nolarni beradi⁴⁰. Bu so'z hozirgi o'zbek tilida to'g'ridan to'g'ri "katta" ma'nosida kelmaydi. Katta, buyuk ma'nosi faqatgina qarindosh-urug'chilik so'zlarida saqlanib qolgan. Umuman olganda, apa so'zi qarindosh-urug'chilik atamalarida faol qatnashadi: *Opoqi* – (< apa+qī, -qī so'z yasovchi qo'shimcha. Ma'nosi: dadaning otasi, ayrim joylarda yoshi katta ayol), *opoqaya* – (apa+aya, "ulug' ona", amakining xotini), *opoqbuvi* (apa+buvi, "katta buvi") – bu so'z ham amakining xotiniga nisbatan ishlatiladi. *Opoqdada-opoqdoda* (apa+dada, katta dada) aslida dadaning yoki onaning buvasi, *opoqada* – (apa+ada, katta ota). Otaning yoki onaning otasi ma'nosida keladigan buva, bobo, doda, opoqi so'zlarining o'rnida "katta" atamasi ham ishlatiladi. Opa – qiz farzand va yosh jihatdan katta farzandlar uchun ishlatiladi (bu so'z Toshkent, Toshkent viloyati va ayrim boshqa viloyatlarda ona o'rnida ham qo'llaniladi). Ushbu so'z boshqa viloyatlarda (Toshkent viloyati, Jizzax) "opcha" shaklida keladi. Bu ham o'zidan katta bo'lgan qiz tug'ishganga aytiladi. Xulosa qilib aytganda, apa so'zi qarindosh-urug'chilik otlari tarkibida kelib, so'zga katta, ulug' degan ma'nolarni yuklaydi. Turk tilida esa buning doya (qadimda ayollarni tug'dirishda yordam bergan qari ayol)ni ifodalash uchun *ebe* shakli ishlatiladi.

Ikki tildagi so'zlarni leksik semantik kelib chiqishi jihatidan izohlar ekanmiz, o'zbeklarda ovqat pishirish uchun mo'ljallangan, *qozon* so'zi haqida ham to'xtalib o'tsak. Ushbu so'z turkchada *tencere* deb ataladi, lekin *kazan* shakli ham bor faol qo'llanishda. Ushbu qozon va kazan so'zlari bir-biriga naqadar yaqin bo'lishiga qaramasdan, ular orasida birozgina farqlilik ham yo'q emas. Biz katta (masalan, to'ylarda osh tayyorlanadigan qozon, doshqozon) va kichik hajmli ovqat pishiriladigan narsaga qozon deb aytamiz, asosan. Turk tilida esa bu biroz farqlilik ko'rsatadi, ya'ni oddiy kichik qozon ma'nosida *tencere* ishlatilsa, ko'pchilikka

³⁹ Sir Gerard Clauson, *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish*, Oxford, 1972. – B.5.

⁴⁰ Suat Ünlü, *Çağatay Türkçesi Sözlüğü*, 2013. – B.45.

ovqat qilish uchun mo'ljallangan qozon, ya'ni biz bilgan doshqozon turkchada *kazan* deb ataladi. Bu ham ikki til orasidagi so'zlarning leksik semantik kelib chiqishidagi ayrim kichik farqliliklarga misol bo'la oladi.

Ikki qarindosh til leksikasi haqida fikr yuritilar ekan, undagi leksik parallelizm hodisasiga ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbek va jahon tilshunosligida ma'lum darajada bu til jarayonini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, umumiy kelib chiqishi bir xil so'zlarda yangi ma'nolar paydo bo'lishi yoki tillararo parallelizm kabi hodisaga oid tadqiqotlar Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov, Berdaq Yusufov kabi o'zbek tilshunos olimlari tomonidan olib borilgan. Jumladan, Y.Odilov o'zining doktorlik dissertatsiyasida tillararo o'xshashlikni quyidagicha izohlaydi: "Bu hodisa (tillararo leksik parallelizm) qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar o'rtasida sodir bo'ladi"⁴¹. Quyida o'zaro qarindosh tillar bo'lgan o'zbek va turk tillari misolida leksik parallelizm hodisasini ko'rib chiqamiz.

O'zbek tili yuqorida ta'kidlanganidek, turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga, turk tili esa bu tillar oilasining o'g'uz guruhiga kiradi. Bu ikki tilning fonetik va leksik tizimlari bir-biridan farq qilsa-da, lekin ular qadimgi turkiy tildan kelib chiqqanligi sababli o'zbek va turk tillari o'rtasida leksik va grammatik tizimda ma'lum o'xshashliklar, parallelizmlar mavjud. O'zbek va turk tillari o'rtasidagi leksik parallelizm hodisasi asosan ikki qarindosh tilda umumiy turkiy so'zning semantik o'zgarishi natijasida vujudga keladi. Ana shu omilga ko'ra leksik parallelizmlar ikki xil hosil bo'ladi. Birinchisi: qadimgi turkiy tildagi polisemantik so'zning bir ma'nosining o'zbek tiliga, ikkinchi ma'nosining turkiy tilga o'tishi natijasida vujudga kelgan leksik parallelizmlar. Ikkinchisi: qadimgi turkiy tilda bir xil so'z ma'nosining ikki turdosh tilda alohida o'ziga xos rivojlanishi natijasida yangi ma'no anglatgan leksik parallelizmlar. Misol uchun, qadimgi turkiy so'z **aba** ko'p ma'noli so'z bo'lib, quyidagi ma'nolarni bildirgan: 1) *ona*; 2) *ota*; 3) *uka*; 4) *ajdodlar*. Hozirgi kunga kelib mazkur so'zning "*ona*" ma'nosi o'zbek

⁴¹ Odilov Y. O'zbek tilida enantiosemiya [Matn] : filolog. fan. d-ri... dis.: 10.00.01. O'zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2016. – 245 b.

tilida, “*aka*” ma’nosi esa turk tilida qo‘llaniladi. Shuningdek, qadimgi turkiy tilda ayni bir ma’noda ifodalagan **dādā** so‘zining “*ota*” ma’nosi o‘zbek tiliga, “*bobo*” ma’nosi esa turk tiliga o‘tgan. Bundan ko‘rinadiki, tarixan polisemantik xususiyatga ega bo‘lgan *aba*, *dādā* so‘zlari tarixiy taraqqiyot natijasida ma’lum o‘zgarishlarga uchrab hozirgi o‘zbek va turk tillarida ikki xil ma’no kasb etgan. Bu kabi misollarni esa ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Endi **achinmoq** - **açınmak** so‘zlarini ko‘rib chiqaylik. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida achinmoq so‘zi “*afsuslanmoq*”, “*pushaymon bo‘lmoq*”, “*hamdard bo‘lmoq*” ma’nolarini bildiradi⁴². Hozirgi turkiy adabiy tilda esa biologiya va tibbiyotga oid atama bo‘lib, “*rivojlanmoq*”, “*kuchaymoq*”, “*olg‘a ketmoq*” ma’nosini ifodalash uchun qo‘llaniladi⁴³. Ayni paytda qadimgi turkiy tilda (V-XII asrlar) bir xil ma’noni anglatgan bu so‘z tarixiy taraqqiyot natijasida ikki qardosh tilda turlicha ma’nolarni ifodalagan leksik parallellikni vujudga keltirgan. Leksik parallellarni turli ma’nolarining paydo bo‘lishi esa o‘zbek va turk tillaridagi semantik o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, shakl jihatdan bir xil, ammo ma’no jihatdan bir-biridan tubdan farq qiluvchi leksik parallellar ham uchraydi. Misol uchun, **Omoch** - **Amaç**. Mazkur so‘z o‘zbek tilida *tuproqni shudgorlash uchun mo‘ljallangan shudgor tipidagi asbob* ma’nosini bildirsa,⁴⁴ hozirgi turkiy adabiy tilda esa *maqсад, niyat, intilish, turtki* ma’nolarini ifodalaydi⁴⁵. Farqlang: *Ho‘kiz kallasini egib, omochni tortishga urinar, qo‘shchi esa hadeb qistar edi* (M.Ismoiliiy, Farg‘ona tong otguncha). *Sen evlendin. Artık senin asl amacın bellidir. Benim hayatta sorumluluklarım, amaçlarım ve bir hedefim var!* (Uylandingiz. Endi asl maqsadingiz aniq. Mening hayotda o‘z burchlarim, maqsadlarim va bir niyatim bor).

⁴² Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б.

⁴³ Бердак Юсуф. Туркча-ўзбекча, ўзбекча-туркча “алдоқчи” сўзлар луғати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 415 б.

⁴⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006. – 673 б.

⁴⁵ Бердак Юсуф. Туркча-ўзбекча, ўзбекча-туркча “алдоқчи” сўзлар луғати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 415 б.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tillararo leksik parallellik universal lingvistik hodisa bo'lib, ular o'zaro bog'liq va qarindosh bo'lmagan tillar orasida paydo bo'ladi. O'zbek va turkiy tillar o'rtasidagi leksik parallelliklar ikki turdosh tildagi umumturkiy so'zning semantik o'zgarishlari natijasida vujudga kelgan. Leksik parallellarni o'rganish esa so'zlarning asl ma'nosini, har bir tilning o'ziga xos rivojlanish yo'lini, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilarning dunyoni qanday idrok etishini aniqlashga, tilshunoslik to'g'risida xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Bundan tashqari tilda ma'lum bir muddat qo'llanishda bo'lib, keyinchalik kam qo'llaniladiganlar sirasiga kirgan so'zlarning ma'nosi asta-sekinlik bilan unutilib, uning o'rnini chetdan kirgan so'zlar yoki olinma so'zlar to'ldira boshlaydi. Tilning sofligini, uning rang-barangligini saqlab qolish uchun, albatta, leksik-semantik o'zgarishlarga uchragan va shu kabi o'zgarishlarga uchrayotgan so'zlarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rinib turibdiki, o'zbek va turk tillarida leksik-semantik o'zgarishlarga uchragan va hozir ham shu jarayonda bo'lgan so'zlar talaygina. Zotan, ushbu ikki til bir bobo tildan kelib chiqqanligi sababli ular leksikasidagi ko'plab so'zlar bir-biriga o'xshash, shuning uchun so'zlarning leksik-semantik o'zgarishlarga uchrash holatlari ham ushbu tillarda mushtarak xususiyatlarga ega deya olamiz. O'zbek tili, asosan, Chig'atoy tilining davomchisi deb qaraladi, turk tili esa o'g'uz lahjasiga oid bo'lganligi sababli, shu jihatdan, bu tillar orasida leksik farqlarning ham ko'pligi tabiiy, albatta. Bir zamonlar ayni tilda gaplashgan, leksikasida deyarli farq bo'lmagan ushbu ikki qarindosh xalqning bir-biridan ayro tushishi, o'zbek xalqining o'z yaqin tarixida boshqa davlat tarkibiga kirganligi ham ikki turkiy tilning bir-biridan uzoqlashishidagi katta sabablardan biri hisoblanadi.

5.2. O'zbek va turk tillaridagi faol fe'llar semantikasi

Bir til oilasiga kiruvchi tillar o'rtasida fonetik hamda grammatik farqlarga nisbatan leksik va semantik farqlar anchagina kuchliroq namoyon bo'ladi. Negaki bu tillar yagona bir bobo tildan kelib chiqqan bo'lsa-da, mazkur til egalarining turli

geografik hududlarda istiqomat qilganligi, turli xil ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy taraqqiyot bosqichlarini kechirganligi bevosita tilda ham o'z aksini topadi. Har bir tilni xalq tarixining jonli ko'rsatkichi deb baholar ekanmiz, eng avvalo, xalq hayotidagi turli xil o'zgarishlarni o'zida namoyon qiluvchi tilning leksik qatlami muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bois ham tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida Ferdinand de Sossyur boshlab bergan sistem tilshunoslik, ya'ni sistem leksikologiyaning tahlil usullari va yo'llari orqali lug'aviy birliklar va ularning hodisalarini talqin qilishga bag'ishlangan qator ishlar paydo bo'ldi⁴⁶. Mazkur tadqiqot ishlarining ahamiyatli jihati shundaki, ularning aksariyatida leksik birlik hisoblangan fe'l so'z turkumiga oid so'zlarning ma'nosi, leksik valentliklari, sintaktik xususiyatlari kabi bir qator sistem yondashuvga xos bo'lgan belgilari tadqiq etilgan. Ushbu tadqiq usullari turkiy tilshunoslikda turk, tatar, qozoq kabi tillar misolida ochib berilishiga qaramay, til va nutq hodisalarining mohiyatini yoritib berishda ayrim kamchiliklar mavjud.

Turkiy tillar leksikasi va grammatikasi asosan diaxron planda o'rganilgan bo'lsa-da, ularni sinxron planda qiyosiy tadqiq etishni maqsad qilib olgan ilmiy izlanishlar ham amalga oshirilgan. Jumladan, xitoylik tadqiqotchi hisoblangan Feyda Umarbekning "O'zbek va uyg'ur tillaridagi o'tgan zamon fe'llarining badiiy nutqda ishlatilishi (tarjima asarlari misolida)" deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasi aynan sinxron planda amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot ishlaridan biri sanaladi. Mazkur tadqiqot ishida o'zbek va uyg'ur tillari misolida fe'l so'z turkumining o'tgan zamon shakllari o'zaro semantik jihatdan tasniflangan holda ularning badiiy nutqda qo'llanilish xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqotchi asosiy e'tiborni o'zbek va uyg'ur tillarida o'tgan zamon fe'llarini hosil qiluvchi sintetik va analitik vositalariga qaratgan tarzda, buni fe'lning asosiy leksik ma'nosiga bo'g'lab talqin etmaydi⁴⁷.

⁴⁶ Кўчкортойев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Т.: Фан, 1977. – 167 б.

⁴⁷ Шабанов Ж.К. Турк ва ўзбек тилларида фаол ҳаракат феълларининг семантикаси. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Тошкент, 2003, – Б. 9.

Turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillarda leksik tarafdin nisbatan umumiy bo'lgan o'zak so'z sifatida hozirgi turkiy tillarning aksariyatida ishlatiladigan faol harakat fe'llari mavjuddir. Fonetik hamda morfologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlar bilan bir qatorda o'ziga xos farqliliklarga ham ega bo'lgan fe'llarning ifoda semalaridagi mushtaraklik va tafovutlikni aniqlash, ularning semantik maydondagi valentliklari, shuningdek, sintaktik qonuniyatlarini yoritib berish natijasida ham turkiy tillarning o'tgan va keyingi taraqqiyotiga doir o'zgarishlarni belgilash mumkin bo'ladi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab, turkiy tillar leksikasini tematik-semantik tamoyil asosida tadqiq etish amalda keng qo'llana boshlandi⁴⁸. Mazkur yo'nalish ham o'zbek tilshunosligiga tatbiq etilib, ushbu sohada bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Chunonchi, o'zbek tili lug'aviy tizimlarini tadqiq etish bo'yicha o'zbek tili leksikasini umumiy tarzda tavsiflash, leksik qatlamlar hamda muayyan yozuvchi yoki shoirlar asarlarining leksikasi, nomlar, xususan, shaxs, mansab hamda unvon nomlarini o'rganishga qaratilgan keyingi yillarda qator tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, leksik birliklar turkiy tillarda diaxron tarzda tadqiq etilgan bo'lishiga qaramay, keyingi yillarda esa bir qator turkiy tillarda, jumladan, qozoq, tatar, turk tilshunosligida hozirgi qatlamga uyg'un leksemalarning ma'no ko'lamiga doir tadqiqot ishlariga e'tibor kuchaygan. Darhaqiqat, o'zbek tilshunosligida ham mazkur yo'nalishga oid ilmiy izlanishlar boshlanishiga qaramay, umumturkologik ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada emas. Xususan, o'zbek va turk tillariga oid leksemalarning semantik tadqiqiga oid ishlar soni sanoqli darajada.

Ikki qardosh tilga doir so'zlarning leksik-semantik o'zgarishlari haqida so'z yuritar ekanmiz, bu borada so'z turkumlarining leksik-semantik o'zgarishlari haqida amalga oshirilgan tadqiqot ishlariga to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bulardan biri turk tilida amalga oshirilga ko'p ma'noli fe'llarning

⁴⁸ Гаджиева Н.З, Коклянова А.А. Глаголы речи в тюрских языках // Историческое развитие лексики тюрских языков. – М., 1961. – С. 323-460.

chastotali lugʻatidir. Koʻp maʼnoli feʼllarni tanlashda turk tilining soʻz chastotasi lugʻati eʼtiborga olingan. Ushbu lugʻatdagi 534 ta yuqori chastotali koʻp maʼnoli feʼllar feʼl xususiyatlariga koʻra muhokama qilinadi va tekshiriladi. Feʼllarning ixtiyoriy salohiyati “Turkiy lugʻat”da (2005) lugʻaviy maʼnolari yordamida aniqlanadi va misol keltiriladi. Feʼllarning ixtiyoriy imkoniyatlari uch darajada tekshirilgan: mantiqiy, sintaktik va semantik. Feʼllarning turli maʼnolariga xos boʻlgan ixtiyoriy tuzilmalar turli ixtiyoriy doiralarda tasvirlangan. Koʻp maʼnoli feʼllarning oʻzgaruvchan tuzilmalari “bir maʼno uchun bir iroda ramkasi” tamoyili boʻyicha tuzilgan. Feʼlning turli ixtiyoriy ramkalari uning turli maʼnolarga ega ekanligini va uning maʼnosi xohishga koʻra oʻzgarishini koʻrsatadi. Feʼl ramkalariga qarab, feʼl qaysi vaziyatda qaysi semantik oʻzgarishlarni koʻrsatishini aniqlash mumkin.

Soʻnggi yillarda esa turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillarni struktur-semantik hamda semantik funksional asnoda solishtirib oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Mazkur holatning sababini esa K.M.Musayev quyidagi tarzda ifodalashga harakat qiladi: “Turkiy tillar oʻrtasida fonetik va grammatik farqlardan koʻra, koʻproq leksik hamda semantik jihatdan nomuvofiqlik koʻzga tashlanadi. Bu holat turkiy xalqlar va ularning tillari tarixini oʻrganishda birinchi darajali ahamiyatga molik boʻlgani uchun ham turkiy tillarning leksik va semantik munosabatlari masalasi tarixiy ahamiyatga ega”⁴⁹. Chindan ham, lugʻaviy birliklarning maʼno koʻlamini bir-biriga qarindosh boʻlgan tillar asosida tadqiq etish, eng avvalo, ularning mushtarak hamda tafovutli xususiyatlarini va ushbu xususiyatlarning sabablarini belgilashga imkor yaratsa, ikkinchidan, ushbu tillarning aloqa munosabati hamda taʼsiri, mazkur bogʻliqlikning koʻlami, darajasi va asosi kabi koʻplab muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Bu oʻrinda shuni taʼkidlash joizki, harakat feʼllarining ham maʼlum bir xalqning yashash tarzi, ijtimoiy faoliyati, jumladan, kunlik hayot tarzi, shugʻullanayotgan mashgʻuloti kabi bir qator etnik xususiyatlar bilan aloqadorligini nazarga tutgan holda mazkur ikki til vakillarining qarindosh tillar

⁴⁹ Мусаев К.М. Лексика тюрских языков в сравнительном освещении. – М.: Наука, 1975. – С. 4.

tizimidagi oʻrni, ularning bir-biri bilan aloqasi, fikrlash hamda dunyoqarashidagi mushtaraklik va oʻziga xos farqlilik tomonlarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi.

Binobarin, hozirgi oʻzbek adabiy tilida kelmoq, *ketmoq*, *kirmoq*, *yurmoq*, *bormoq*, *chiqmoq* kabi bir qator ayrim faol harakat feʼllari mavjudki, ularning fonetik hamda leksik variantlarini turkiy tillar oilasiga mansub boshqa qardosh tillarda ham uchratishimiz mumkin. Quyida mazkur feʼllarning fonetik va leksik variantlari hamda ifoda semalarini oʻzbek va turk tillari misolida koʻrib chiqamiz.

Xususan, oʻzbek tilida faol qoʻllaniladigan *ketmoq*, turk tilida esa *gitmek* feʼli harakat maʼnosini ifodalash uchun xizmat qiladigan leksemalardan biri sanalishi bilan birga bir qator ifoda semalariga egaligi bilan ikki tilda ham ajralib turadi. Chunonchi, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da ushbu leksemaning oʻn yettita ifoda semalari qayd etib oʻtilgan boʻlsa⁵⁰, turk tili lugʻatida esa uning yigirma bitta semalari keltirib oʻtilgan⁵¹. Bu holat esa oʻz-oʻzidan *ketmoq* hamda *gitmek* harakat feʼllarining qardosh ikki tilda ham harakat ifodalovchi muhim feʼllardan biri ekanligini koʻrsatadi. *Ketmoq* – *gitmek* leksemasining asosiy bosh semasi qiyoslanayotgan har ikki tilda umumiydir. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da uning bosh maʼnosi “*oʻz turgan joyini tark etmoq, boshqa joyga joʻnamoq, jilmoq*” tarzida ifodalangan: Unsin, bu oila qanday ketasanmi yo bu yerda qola turasanmi (Oybek)? Turk tili izohli lugʻatida esa *gitmek* “*bir joyga, yerga yoʻnalmoq*” holida ifodalangan: “*Aksarayʼdagi sokağa gittim,*” dedi Kara (Orhan Pamuk). – “*Oqsaroydagi koʻchaga ketdim*”, – dedi Kara.

Shuningdek, mazkur feʼlning “*biror maqsad bilan biror joyga yoʻl olmoq, joʻnamoq, bormoq*” semalari mavjud boʻlib, ushbu semalari ham har ikki tilga oid xususiyatdir. Misol uchun: *Biri*: “*Normat akam askarlikka ketyapti*”, – *desa*, *ikkinchisi*: “*Katta komandir boʻlgani boryapti*”, – *deydi (I.Rahim)*. Xususan, *O her gün okumaya gidiyor. – U har kuni oʻqishga boryapti* gapida ham biror-bir maqsad bilan yoʻl olganlik maʼnosi anglashilib turibdi.

⁵⁰ Oʻzbek tilining izohli lugʻati / E.Begmatov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev va b. tahriri ostida. 5-jildlik, 2-tom. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom, 2022. – B. 821-823.

⁵¹ Türkçe Sözlük 1-2, T.T.K. - Ankara, 1985, - 552 S.

Ketmoq hamda *gitmek* faol harakat fe'llari "*sarf bo'lmoq, ishlatilmoq*" ma'nolarida ham qo'llanilib, mazkur xususiyat ham o'zbek va turk tillariga xosdir: *Yo'l xarajatiga hammasi bo'lib ellik so'm ketdi; Bunu yapmak için fazla zaman gider. – Buni qilish uchun juda ko'p vaqt ketadi* gaplarida *ketmoq* fe'li *sarf bo'lmoq* ma'nolarini anglatgan. Quyidagi gaplarda esa ushbu fe'l *ishlatilmoq* ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilgan: *Ro'zg'orga ketadigan narsalar; Bu tatliya çok şeker gitti. – Bu shirinlikka juda ko'p shakar ketdi.*

Ikki qardosh tilda mavjud *ketmoq – gitmek* leksemasining har ikki tilda ham bir qator mushtarak ifoda semalari bor bo'lib, ulardan yana biri "*o'tmoq, sotmoq, pullanmoq*" semasidir: *Xullas, yer juda arzonga ketdi (Oybek). Bu ev az paraya gitti. – Bu uy oz pulga ketdi.*

Qiyoslanayotgan tillardagi mazkur fe'llar qo'llanilayotgan mazmuniga qarab "*davom etmoq, bormoq, bo'lmoq*" ma'nolarini bildirish uchun ham qo'llaniladi. Masalan, "*Agar bir yerning doli-guliga kelishini kutib o'tirsak, vaqtdan yutqazadiganga o'xshaymiz, havo shunday ketavermas*" gapida *ketmoq* fe'li bevosita *bo'lmoq* semasini ifodalashga xizmat qilgan (havo shunday bo'lavermaydi). *Derslerin nasıl gidiyor? – Darslaring qanday ketyapti?* gapida ham o'zbek tilida mavjud bo'lgani kabi "*davom etmoq*" ma'nosini anglatishga xizmat qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, o'zbek tilidagi "*Shimim tizzasidan ketdi*" yoki "*Aravaning tagidan dehqonning ayanchli tovushi eshitildi: - O'qi ketibdi, ish pachava*" gaplarida *ketmoq* leksemasi "*ishdan chiqmoq*", ya'ni *sinmoq, yorilmoq* yoki *yirtilmoq* kabi semalarni yuzaga keltirishda xizmat qilgan. Turk tilidagi "*Duvarın boyası gitmiş*". – *Devorning bo'yog'i ketibdi* gapida esa "*o'chmoq*" ma'nolarini anglatgan va bu kabi semalar har ikki tilda ham borligini keltirilgan gaplar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Ketmoq – gitmek leksemasining kiyim-kechak nomlarini anglatgan leksemalar bilan birga qo'llangan holda qiyoslanayotgan ikki tilda ham "*yarashib tushmoq*" yoki bo'lishsiz shaklda "*yarashib tushmaslik*" semasini anglatish uchun qo'llanilishini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: "*Bu kostyum senga juda*

ketibdi” gapida tasdiq, ya’ni yarashganlik ma’nosini bildirgan bo’lsa, *“Bu elbise ona gitmemiş”* (bu ko‘ylak unga ketmabdi) gapida esa inkor – yarashmaganlik ma’nosini anglatgan.

Bundan tashqari, *ketmoq* – *gitmek* fe’llari polisemantik xususiyatga ega bo‘lib, o‘z ma’nosida tashqari matn yoki gap ichida boshqa so‘zlar bilan birikkan holatda bir qator ko‘chma ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, *“olamdan o‘tmoq, o‘lmoq”* semalari ham aynan har ikki tilda uchraydigan xususiyatlaridan biridir: *Men o‘n beshga kirganda, ayam o‘ldi. Hali qirqqa bormagandi. Yosh ketdi (Oybek)*. Biroq to‘plangan misollar shuni ko‘rsatadiki, mazkur ma’noda o‘zbek tiliga qaraganda turk tilida faol va keng ko‘lamda qo‘llaniladi. *Sağlığına iyi bak, yoksa gidersin. – Sog‘ligingga yaxshilab qara, yo‘qsa ketasan (o‘lasan) yoki Adam gidiyor be... – Odam ketyapti-ku (o‘lyapti)* kabi misollar yuqoridagi fikrimizning tasdig‘idir.

Ba’zan turk tilidagi *gitmek* fe’lining ma’nosiga o‘zbek tilidagi *bormoq* leksemasining ma’nosi mos kelishi mumkin. Masalan, *Herkesin gideceği yeri orası. – har insonning boradigan joyi o‘sha yer*. Shuningdek, *gitmek* leksemasining *“yo‘q bo‘lmoq, ortmoq, yo‘qolmoq”* semalari ham turk tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir: *Her şey gitti, elimizde hiç bir şey kalmadı. – Hamma narsa ketdi, qo‘limizda hech nima qolmadi*.

Shuningdek, turk tilidagi *gitmek* fe’li *“rivojlanmoq, davom etmoq”* ma’nolarini anglatish uchun ham qo‘llaniladi. Ammo o‘zbek tili izohli lug‘atida *ketmoq* fe’lining yuqoridagi semasi qayd etilmaganligi qaramay, og‘zaki nutqda turk tilidagi kabi *“davom etmoq, taraqqiy etmoq”* semalarini ifodalash uchun qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin: *Ishlaringiz joyidami? Qanday ketyapti?*

O‘zbek tilidagi *ketmoq* fe’li mustaqil ma’no ifodalab, harakatni anglatishdan tashqari gap ichida *ko‘makchi fe’l* vazifasidan ham kelishi mumkin. Aynan o‘zbek tilida esa *ko‘makchi fe’l* vazifasida ishlatiladigan va turli xil ma’nolarni anglatuvchi mustaqil fe’llarning soni turk tiliga qaraganda anchagina. Jumladan, *boshlamoq, yotmoq, turmoq, o‘tirmoq, chiqmoq, olmoq, ko‘rmoq, ketmoq, bo‘lmoq, bitmoq, bitirmoq, bermoq, qolmoq, qo‘ymoq, yubormoq, tashlamoq,*

solmoq, tushmoq, o'lmoq, qaramoq, boqmoq, yozmoq kabi mustaqil ma'noni ifodalovchi fe'llar gapda faol ko'makchi fe'l vazifasida ham keladi. Turk tilida esa asosan *durmak, vermek, bilmek, gelmek, koymak, yazmak, kalmak, görmek, yatmak* va, shuningdek, *gitmek* fe'llari mustaqil ma'no ifodalash bilan bir qatorda ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llaniladi, ammo ularning soni o'zbek tilidagi kabi u qadar ko'p emas. Yuqoridagi fe'llardan *gelmek, koymak, kalmak, görmek, yatmak, gitmek* fe'llari ko'makchi fe'l vazifasida nisbatan kam ishlatilishi kuzatiladi⁵². Bundan shu fikrga kelishimiz mumkinki, *gitmek* fe'li ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanila olsa-da, boshqa ko'makchi fe'llar kabi faol ishlatilmaydi. *Hayat, tarihin – o asla deęiştirilmez sanılan müthiş cereyanı aktı gitti (Ö.S.). – Hayotning, tarixning – u aslo o'zgartirilmas hisoblangan jarayoni oqdi-ketdi.*

Ketmoq – gitmek fe'li ko'makchi fe'l vazifasini bajargan holatda ham o'zbek va turk tillarida o'xshash umumiy jihatlarga ega va ayni o'xshash ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. Misol uchun, o'zbek tilida *ketmoq* fe'li ravishdosh shaklining *-(i)b* affiksi shakliga qo'shib, harakat hamda holatning yuqori darajada, aniq va to'la bajarilganligini aks ettiradi⁵³: *Mashina birdan g'uvillab yurib ketdi.*

Turk tilida mavjud *gitmek* fe'li ham xuddi shu ma'nolarni ifodalash uchun ko'makchi fe'l vazifasida ishlatiladi. Shu bois ham mazkur fe'l "*bajarib tugallangan harakat*" tushunchasini anglatish xususiyati bilan ajralib turadi.

Ketmoq fe'li o'zbek tilida ko'makchi fe'l vazifasida kelganida harakat va ning davom etayotganligi ifodalash uchun ham qo'llanilishi mumkin: *Otabek*

Bundan tashqari, turk tilidagi *gitmek* leksemasi ham ko'makchi fe'l sifatida qo'llanilganda *davomiylik, odatiylik, muntazamlilik* ma'nolarini bildirishga xizmat qiladi: *İş böyle ola gidecek. – Ish shunday davom ettaveradi.* Ushbu gapda *gitmek* asosan *-(a)r* affiksli, ba'zan esa *-a* affiksli ravishdoshdan keyin keladi. O'zbek tilidagi *ketmoq* ko'makchi fe'li esa *-a* qo'shimchasi bila shakllangan ravishdosh bilan birikkanda, ish-harakat va holatning tez va kuchli tarzda boshlanganligini

⁵² Кононов А.Н. Грамматика турсикого языка. – М. – Л.: АН СССР, 1941. – С.122-124.

⁵³ Тожиёв А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. - Т.: Фан, 1966 - Б.18.

hamda davom etishini ifodalashga xizmat qiladi: *Samandarov... qo'lidagi qog'ozni berib, unga tushuntira ketdi (A. Qahhor)*. Turk tilida esa mazkur ma'noni ifodalash uchun *gitmek* fe'lining o'rniga *vermek* fe'li qo'llaniladi. Negaki o'z atash ma'nosini yo'qotib, ko'makchi fe'l vazifasida ishlatilgan *vermek* fe'li ish-harakat va holatning tez bajarilganligini bildiradi.

O'zbek va turk tillarida harakat ma'nosini ifodalashga xizmat qiladigan bir qator faol fe'llar mavjud bo'lib, ularda biri *kelmoq* va *gelmek* leksemalaridir. Ushbu fe'llar umumiy xususiyatga ega bo'lishi bilan bir qatorda, har ikkala til izohli lug'atida berilgan ma'nolarining miqdoriga ko'ra ular o'rtasida sezilarli darajada farqli jihatlar mavjud. Binobarin, o'zbek tilida *kelmoq* leksemasining o'n to'rtta ma'nosi, turk tilida uning o'ttiz sakkizta ma'nosi qayd etib o'tilgan. Shuningdek, "Turkcha-ruscha lug'at"da esa *gelmek* fe'lining yigirma sakkizta ma'nosi borligi misollar bilan batafsil ochib berilgan.

O'zbek tilida *kelmoq* leksemasining bosh ma'nosi "yurish, uchish yoki transport vositalari bilan so'zlovchi turgan tomonga, joyga yoki so'zlovchi ko'rsatgan, aytgan joyga yaqinlashmoq, yetmoq"⁵⁴ tarzida ifodalanadi: *Oq ot... kulrang shlyapa kiygan, qora ko'zoynak taqqan, gavdali bir kishi ariq ichidan Tal'at bilan yonma-yon kelardi (O'. Hoshimov)*.

Turk tilida *gelmek* fe'lining bosh semasi esa anchagina sodda ko'rinishda bo'lib, "biror joyga bormoq, ketmoq" shaklida ifodalansa-da, mazmun nuqtayi nazaridan o'zbek tilidagi *kelmoq* leksemasiga to'liq mos keladi: *Siyah sakalli adam yanuma geldi (E. Adivar)*. – *Qora soqolli odam yonimga keldi*.

Shuningdek, "chiqqan joyiga qaytib kelmoq, qaytmoq" ma'nosi ham o'zbek tilidagi *kelmoq* fe'li bosh ma'nosiga xos sema hisoblanadi: *Ha, aytganday qudangiznikiga yuborgan kishingiz keldimi? (A. Qodiriy)*. Turk tilida esa mazkur sema – "ortga qaytmoq" *gelmek* leksemasining alohida ma'nolaridan biri sifatida ifodalanadi: *Geçen sene geldim sen yaktun ablacığım, yine geldim, çünkü sana söz*

⁵⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati / E.Begmatov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev va b. tahriri ostida. 5-jildlik, 2-tom. – Toshkent, G'afur G'ulom, 2022. – 1035 b.

verdim (F. Eçinsu). – O'tgan yil keldim, sen yo'q eding, opajon, yana keldim, chunki senga so'z bergandim.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, fe'llar so'z turkumlari ichida eng yiriklaridan biri hisoblanadi va ayni damda ot so'z turkumi kabi qadimturkiy, chunki ular turkiy tillarning paydo bo'lishi davrlaridan boshlab o'zlarining grammatik qurilishi nuqtayi nazaridan eng taraqqiy qilgan so'z turkumlaridan biri bo'lgan⁵⁵. Tarixiy taraqqiyot natijasida grammatik qurilish jihatidan fe'llar sezilarli darajada o'zgarishlarga uchramagan bo'lsa-da, semantik tomondan o'ziga xos taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Shuningdek, ikki qardosh tilda ham qadimda bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgan fe'llar hozirda boshqa-boshqa ma'nolarni anglatish uchun qo'llanilmoqda yoki ma'lum bir fe'lning bir qardosh tilda semalari kamaygan bo'lsa, boshqa bir qardosh tilda u ifodalayotgan ma'no ko'lamlari soni ortgan. Bu esa tillar o'zgarmas holatda emas, aksincha doimiy o'zgarish jarayonida ekanligini ko'rsatadi.

Bob bo'yicha xulosalar

1. Tilning, xususan turkiy tillar hamda ayrim olingan har bir tilning leksik qatlami til qurilishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Turkiy tillar oilasiga guruhida mansub har bir tilning lug'at boyligi o'rganilayotgan tilning qay darajada ekanligi mavjud xalqning shakllanish jarayoni, turmush tarzi, o'ziga xos madaniyati va, shuningdek, rivojlanish tarixi bilan bog'liq bo'ladi.

2. Turkiy tillar guruhiga mansub tillarning o'z leksik qatlamini qadimgi turkiy tilga oid so'zlar hamda tub turkiy so'zlar tashkil qiladi. Mazkur so'zlar ayrim fonetik, morfologik, semantik farqliliklarni inobatga olmaganda barcha turkiy tillar, xususan, o'zbek va turk tillari uchun ham mushtarak hamda ularni bir-biriga qiyoslab o'rganish uchun asos bo'ladigan so'zlardir.

⁵⁵ Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009, – Б.130.

3. O‘zbek va turk tillari bir bobo tildan kelib chiqqan bo‘lishiga qaramay, hozirgi kunda ularning leksikasi, lug‘at tarkibida mavjud so‘zlar shakliy jihatdan ham, shuningdek, semantik tomondan ham o‘ziga xos farqliliklarga ega ekanligi ko‘rinib turadi. Bu esa har bir xalqning tarixiy taraqqiyot jarayoni va undagi iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Negaki tildagi mavjud o‘zgarishlar, eng avvalo, tilning lug‘at tarkibida namoyon bo‘ladi.

4. Fe‘l ma‘lum bir predmetning harakat va holatini ko‘rsatuvchi mustaqil so‘z turkumi hisoblanadi. Fe‘llar nafaqat barcha turkiy tillarda, balki butun dunyo tillarida kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti hamda hozirgi kundagi semantik-grammatik xususiyatlari tomonidan tadqiq etilishi kerak bo‘lgan eng murakkab tuzilishga ega so‘z turkumlaridan biridir.

5. Fe‘l so‘z turkumlari ichida eng yiriklaridan biri bo‘lib, otlar kabi o‘ziga xos ma‘no jihatdan semantik rang-baranglikka ega. Ikki qardosh til hisoblangan o‘zbek va turk tillaridagi mavjud fe‘llar struktur-semantik jihatdan ko‘p hollarda umumiylikka ega bo‘lsa-da, semalar miqdori jihatidan yoki ma‘no ko‘lami nuqtayi nazaridan bir qator farqliliklarga ham ega. Yuqorida ta‘kidlanganidek, birgina ketmoq fe‘lining o‘n yettita, turk tilidagi gitmek fe‘lining yigirma bitta semasi mavjudligi mazkur fikrimizning tasdig‘idir.

UMUMIY XULOSA

1. Bir til oilasiga mansub bo'lgan qardosh tillar, xususan, o'zbek va turk tillari leksikasini struktur-semantik jihatdan nazariy va amaliy solishtirib o'rganish tillarning kelib chiqishi, ildizi qaysi tilga borib taqalishi, tarixiy taraqqiyot natijasida tillarda yuzaga kelgan o'zgarishlar, shuningdek, qiyoslanayotgan tillarning fonetik, morfologik, leksik-semantik jihatdan mushtarak va o'ziga xos tafovutli jihatlarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Ikki qardosh tilning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganish, ko'rsatish ularni ayrim jihatlarga ko'ra umumiyashtirish va qiyoslab tadqiq etish asosan qiyosiy-tarixiy metoddan foydalangan holda amalga oshiriladi. Tillarni bu tarzda tadqiq qilish bir til oilasiga mansub barcha tillar uchun asos bo'lgan til, ya'ni qadimgi turkiy tildan alohida ajralib chiqqan, mustaqil qardosh tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ham qonuniyatlarini to'liq va atroflicha ochib berishga imkon yaratadi.

3. Binobarin, tillarni qiyoslab o'rganish esa asosan diaxron aspektida o'rganilgan. Shuningdek, o'zbek tili va turk tillarini solishtirib tadqiq etishga oid bir qator ilmiy izlanishlar, tadqiqot ishlari yuzaga kelgan bo'lsa-da, bu ikki qardosh tilni leksik-semantik, funksional, grammatik va sistem-struktur tomondan chuqurroq o'rganish hamda hozirgi kun nuqtayi nazaridan qiyoslab tahlil etish tilshunoslik oldida tadqiq etilishi muhim bo'lgan vazifalardan biridir. Qiyoslab o'rganishda esa, eng avvalo, tilning leksik fondi va ular natijasida yuzaga kelgan har ikki tilda mavjud lug'atlar muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, tilning rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy aloqalarning kengayishi natijasida yuzaga kelgan tildagi o'zgarishlar, birinchi navbatda, tilning leksik fondida o'z aksini topadi.

4. Tillarni solishtirib o'rganishda, shu jumladan har ikki til leksikasini tadqiq etishda o'rganilayotgan tillar, eng avvalo, tovushlar tizimi nuqtayi nazaridan tadqiq etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, o'zaro qiyoslanayotgan tillarning tovushlar tizimi, ya'ni fonetik qurilishi qiyoslashning bosh mezon bo'lmasa ham,

uning eng muhim obyektlaridan biri hisoblanadi va insonlar orasidagi muloqot va munosabatlarning asosi hisoblangan soʻz fonemalardan tarkib topadi va maʼlum bir maʼno ifodalashga xizmat qiladi.

5. Soʻz leksik sathda leksik birlik sifatida, morfologik sath esa grammatik birlik sifatida tadqiq etiladi. Soʻzning borliqdagi mavjud narsa, belgi, harakat va voqea-hodisalar kabi tushunchalarni anglatishi uning leksik maʼnosi sanaladi. Soʻzning biror-bir soʻz turkumiga mansubligini koʻrsatadigan va soʻzning maʼlum bir grammatik shaklini ifodalaydigan maʼnosi esa uning grammatik maʼnosi deb ataladi. Grammatik maʼno grammatik shakl orqali yuzaga kelishi esa qardosh tillar leksikasini bir-biriga solishtirib oʻrganishda morfologik umumiylik va xususiylikning muhim ekanligini koʻrsatadi.

6. Tarixiy taraqqiyot natijasida qadimda bir til oilasiga mansub tillarda aynan bir xil maʼnoni ifodalovchi soʻzlar bugungi kunda boshqa-boshqa maʼnolarni anglatish uchun xizmat qilishi yoki bir tilda uning maʼnosi toraygan, qoʻllanishi kamaygan boʻlsa, ikkinchi tilda esa, aksincha, mavjud soʻzning maʼnosi kengaygan boʻlishi mumkin. Bu esa qiyoslanayotgan tillar leksikasining bir-biridan farqli jihatlari borligini va tilshunoslikda tadqiq etilishi kerak boʻlgan soha ekanligi ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

6. “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони, 2016-йил 13-май. –Б. 1.
7. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз! – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 592 б.
8. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 486 б.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2017, 8 февраль. № 28 (6722).

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

1. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. Fan. 2010. – b 180.
2. Hozirgi o‘zbek adabiy tili // Namangan. – T., 2022. – B.15.
3. Saidov Y. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Buxoro, 2019, – B.66.
4. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili // – T., 2009. – B.72.
5. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009, – 256 б.
6. Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари (ўзбек, козок, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида) – Т.: Фан, 1966, – 150 б.
7. Исмоилов И, Мелиев К, Сапаров М. Ўрта Осиё ва Қозоғистон туркий тиллари лексикасидан тадқиқот (мевали дарахт, полиз екинлари номлари ва уй-рўзғор буюмлари лексикаси материаллари асосида) – Т.: Фан, 1990. – 260 б.

8. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
9. Неъматов Ҳ. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
10. Қўчқортойев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Т.: Фан, 1977. – 167 б.
11. Рустамий С. “Девону луғати-т-турк” даги лингвистик атамалар. – Тошкент, 2009.
12. Содиков Қ. Тарихий лексикография. – Тошкент, 2011.
13. Содиков Қ, Ҳамидов Х, Худойберганава З, Аминов Л. Турк тили [Матн]: ўқув қўлланма. – Тошкент, – Б. 8.
14. Усмонова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент, 2019.
15. Ҳожиёв А., Бегматов Э., Миртожиев М. ва б. Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. – Б. 308.
16. Гаджиева Н.З, Коклянова А.А. Глаголы речи в тюрских языках // Историческое развитие лексики тюрских языков. – М., 1961. – С. 323-460
17. Мусаев К.М. Лексика тюрских языков в сравнительном освещении. – М.: Наука, 1975. – С. 4.
18. Тожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Т.: Фан, 1966 – Б.18.
19. Кононов А.Н. Грамматика турсиқого языка. – М. – Л.: АН СССР, 1941. – С.122-124.
20. Сравнительно-историческая грамматика тюрских языков, I-III часть. – М.Наука, 1985-1988.
21. Korkmaz Z. Türkiye Türkçesi Grameri // Turk Dil Kurumu yayınları. Ankara. – Т., 2009. – 395 б.
22. Grönbech K. Der türkischche Sprashban, 1, – Kopenhagen, 1936, – В.42.

III. Matbuot materiallari va ilmiy maqolalar

1. Nurmamatova D. O‘zbek tilining semantik taraqqiyoti masalasi // uzresearchers. T., 2022. – b 47.

2. Xudoyberganova Z.N. O‘zbek va turk tillaridagi tasdiq va inkor gaplarda semantik-formal nomuvofiqlik // ZfWT. Vol 11, №3, 2019, – B.8.

3. Xudayberganova. Z. O‘zbek va turk tilshunosligida fe‘l mayllarini tasniflash mezonlari. – Uluslararası Türk lehçe arařtırmalar dergisi [TÜRKLAD], 3. cilt, 2. sayı, 2019, 212-225. s., Türkiye.

4. Омонтурдиев А. Лексикографиянинг тилшунослик тараққиётидаги ўрни Филологиянинг долзарб муаммолари илмий-амалий анжуман материаллари (Илмий тезис ва мақолалар тўплами), 2016 йил 18 май, 85-89-бетлар.

IV. Dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari

1. Odilov Y. O‘zbek tilida enantiosemiya [Matn]: filolog. fan. d-ri... dis.: 10.00.01. O‘zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2016. – 245 b.

2. Абдурахмонова М.Т. Ўзбек ва турк тилларидаги от категорияларининг қиёсий талқини. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Тошкент, 2004, – Б. 6.

3. Амонтурдиев Н.Р. Сурхондарё этрографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Термиз, 2021, – Б. 23.

4. Мустафа Четин. Ҳозирги ўзбек ва турк тилларида сўз бирикмалари синтактик деривацияси. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Самарқанд, 2002, – Б. 3.

5. Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар. Фил. фан. док. дис. – Тошкент, 1998.

6. Худайбергенова З.Н. Ўзбек ва турк тилларидаги монотаксемаларнинг илмий талқини. Фил. фан. док. дис. – Тошкент, 2007, – Б. 11.

7. Худайбергенова З.Н. Ўзбек ва турк тилларида феълнинг ўтган замон шакллари тизими. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Тошкент, 1999, – Б. 6.

8. Шабанов Ж.К. Турк ва ўзбек тилларида фаол ҳаракат феълларининг семантикаси. Фил. фан. буйича фалс. док. (PhD) дис. – Тошкент, 2003, – Б. 5.

V. Lugʻatlar

1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati / E.Begmatov, A Hojiyev, A.Madvaliyev va b. tahriri ostida. 5-jildlik, 1-tom. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom, 2022. – 962 b.

2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati / E.Begmatov, A Hojiyev, A.Madvaliyev va b. tahriri ostida. 5-jildlik, 2-tom. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom, 2022. – 1035 b.

3. Oʻzbek tilining izohli lugʻati / E.Begmatov, A Hojiyev, A.Madvaliyev va b. tahriri ostida. 5-jildlik, 3-tom. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom, 2022. – 843 b.

4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati / E.Begmatov, A Hojiyev, A.Madvaliyev va b. tahriri ostida. 5-jildlik, 4-tom. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom, 2022. – 823 b.

5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati / E.Begmatov, A Hojiyev, A.Madvaliyev va b. tahriri ostida. 5-jildlik, 5-tom. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom, 2022. – 715 b.

6. Ат-туҳфат уз-закияту фил луғатит-туркия. – Тошкент, Фан, 1968, – Б 277.

7. Бердак Юсуф. Туркча-ўзбекча, ўзбекча-туркча “алдоқчи” сўзлар луғати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 415 б.

8. Кошғарий М. Девону луғатит турк. – Тошкент, Ф.Фулум, 2017, – 482 б.

9. Türk lehçeleri sözlüğü, Kültür Bakanlığı yayınları, Ankara, 1991.

10. Türkçe Sözlük 1-2, T.T.K. – Ankara, 1985, – 552 S.

VI. Elektron resurslar

1. <https://diss.natlib.uz>

2. <https://natlib.uz>

3. library.ziyonet.uz

4. <http://www.google.ru>.

5. <https://saarj.com>